

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

Zaynutdinova D.K.

**IQTISODIY VA IJTIMOIIY
GEOGRAFIYA**

O‘quv qo‘llanma

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2024**

UO‘K 911.3:33:316(075.8)

65.04+60.5ya73

Z 22

Zaynutdinova, D.K.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya [Matn]: o‘quv qo‘llanma / D.K. Zaynutdinova; muharrir A. Qalandarov. – Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, 2024. – 116 b.

KBK 65.04+60.5ya73

Mazkur o‘quv qo‘llanmada iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining obykti va predmeti, nazariy-uslubiy masalalari, asosiy tushunchalari, tarixiy shakllanishi va tarkibiy tuzilishi, tabiatdan foydalanish, hamda ushbu fanning O‘zbekiston hududida rivojlanish xususiyatlari kabi mavzular keng yoritilgan. Asosiy e‘tibor esa ishlab chiqarishni tashkil etishning ijtimoiy shakllari, ishlab chiqarishni joylashtirishning asosiy omillari, hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayonlashtirish kabi mavzulariga qaratilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlarining geografiya, iqtisod, sotsiologiya yo‘nalishlarining talabalari, shuningdek, professor-o‘qituvchilar, magistrantlar, doktorantlar, ilmiy izlanuvchilar hamda mazkur sohaga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

N.K.Komilova, O‘zbekiston Milliy universiteti Ekologiya kafedrası
professori, g.f.d.

Taqrizchilar:

M.R. Usmanov, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti geografiya fanlari doktori (DSc), dotsent

M.K. Ergasheva, Buxoro davlat universiteti geografiya fanlari falsafa
doktori, dotsent

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 429-sonli buyrug‘iga asosan
nashr etishga ruxsat berilgan. Ro‘yxatga olish raqami 429-684.**

ISBN 978-9910-705-32-8

KIRISH

Ma'lumki, geograf mutaxassislar tayyorlashda "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" o'quv kursining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda globallashtirish jarayonlari, iqtisodiy va ekologik muammolarning chuqurlashishi, hududlararo iqtisodiy aloqalar va aholi joylashuvining samarali tashkil etilishi masalalarining dolzarb tus olishi mazkur fanga bo'lgan ehtiyojni yanada ortayotganligidan dalolat beradi.


Ta'kidlash lozimki, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha dasturlar asosida har yili barcha tuman va shaharlarning muammo, imkoniyatlarini chuqur o'rgangan holda hududlar kesimida taraqqiyot dasturlari ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratilgan. O'quv qo'llanma "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" kursi hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini chuqur tahlil qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy rayonlashtirish, hududiy mehnat taqsimoti va sanoatni joylashtirish kabi mavzularni qamrab oladi. Ushbu yo'nalish bo'yicha bilim olish zamonaviy iqtisodiy jarayonlarni tushunish, ularni boshqarish va iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishga samarali yondashuvlarni ishlab chiqish uchun juda muhim.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirish orqali zamonaviy geograf mutaxassislarini tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Shu boisdan, ushbu kurs talabalarga iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning hududiy qonuniyatlarini tushunish, ularni tahlil qilish va iqtisodiy-geografik muammolarni hal qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.

Mazkur o'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalarining "Geografiya" ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar hamda magistrantlar, doktorantlar, umumta'lim va maxsus o'quv muassasalari o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.



KIRISH. IQTISODIY GEOGRAFIYA FANINING HOZIRGI ZAMON MAZMUNI VA VAZIFALARI



- 1. Iqtisodiy geografiya fanining vujudga kelishi va rivojlanib borishi.**
- 2. Iqtisodiy geografiya fanining ta'rifi.**
- 3. Iqtisodiy geografiyaning asosiy tamoyillari.**
- 4. Iqtisodiy geografiyaning tadqiqot usullari.**
- 5. Iqtisodiy geografiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi.**

Iqtisodiy geografiya fanining vujudga kelishi geografiya fanining rivojlanishi qadimgi Antik davrida mamlakatlar o'rtasida hududiy (geografik) mehnat taqsimoti, ya'ni har bir hududning o'ziga xos tabiiy sharoiti va resurslari, iqtisodiy geografik o'rni, xalqlarning urf-odatlar va an'analari asosida ma'lum bir tovarlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashishi va ular o'rtasida tovar ayirboshlash jarayonining shakllanishi davriga borib taqaladi. Mamlakatlar o'rtasida hududiy mehnat taqsimotining shakllanishi geografiya fanlari tizimida dastlab iqtisodiy geografik tadqiqotlarni vujudga kelishiga olib keladi. Qadimgi yunon olimi Strabon o'zining o'n yetti tomlik "Geografiya" deb nomlangan asarida, aholining hududiy joylashuvi, mamlakatlar va hududlar o'rtasidagi tovar ishlab chiqarish va savdo-sotiq aloqalarini yoritadi.

"Iqtisodiy geografiya" atamasini fanga dastlab rus olimi M.V. Lomonosov tomonidan 1760-yillarda kiritiladi va keyinchalik butun dunyoda e'tirof etiladi. Olimning asosiy g'oyasida e'tibor, iqtisodiyotni rivojlanishida mamlakatni iqtisodiy geografik nuqtai nazardan tadqiq qilish g'oyat muhim va zarurligiga qaratiladi. Shuningdek, hududlarning xo'jaligini o'rganganda davriylik jihatdan o'rganish va tabiiy resurslarni o'zlashtirish masalalariga alohida e'tibor beradi. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida XX asrning yarmida iqtisodiy

geografiya fanining ilmiy maktablari Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniyada shakllanadi va rivojlanadi. Bu bejiz emas albatta, chunki bu mamlakatlarda fan-texnika sohasining taraqqiy etishi, sanoat inqilobining ro'y berish va dastlab bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllanishi ishlab chiqarishni va buning natijasida, mamlakat hududlari to'g'risidagi iqtisodiy bilimlarni rivojlanishiga olib keladi.

Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar faqat vaqt doirasida amalga oshmaydi, balki ular muayyan hududda, ya'ni makonda sodir bo'ladi. Ijtimoiy rivojlanishning hududiy xususiyatlarini o'rganish geografiya fanining asosiy vazifalaridan biridir. Biroq jamiyat rivojlanishi bilan birga, uni o'rganuvchi fanlarning tadqiqot obyekti ham murakkablashib, takomillashib boradi. Bu jarayon tabiiy va qonuniyatli bo'lib, ilm-fan taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, iqtisodiy geografiya dastlab faqat ma'lum bir hududning xo'jalik faoliyati va aholisi ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvini o'rganish bilan cheklangan bo'lsa, keyinchalik uning obyekti kengayib, xo'jalik va aholining hududiy tarkibi, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar hamda ularning majmualarini (komplekslarini) o'rganishni ham o'z ichiga oldi. Bu esa ushbu fan vazifalarining ham o'zgarishiga olib keldi. Agar ilgari iqtisodiy geografiyaning asosiy e'tibori qayerda nima borligi haqida ma'lumot yig'ishga qaratilgan bo'lsa, bugungi kunda u aniq bir voqelikning aynan shu joyda yuzaga kelish sabablarini ilmiy asosda izohlash va baholashga e'tibor qaratadi. Bunday o'zgarishlar iqtisodiy geografiyaning amaliy ahamiyatini sezilarli darajada oshirdi. Chunki zamonaviy iqtisodiy geografiya endilikda turli yiriklikdagi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni tahlil qilishdan tashhis qo'yishga, undan esa kelajakni bashorat qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish darajasiga yetdi. Ushbu jarayon iqtisodiy va hududiy rejalashtirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash hamda global va mahalliy miqyosda muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa, iqtisodiy geografiya faqatgina hududiy jarayonlarni o'rganuvchi fan sifatida emas, balki amaliy ko'nikmalarga ega konstruktiv fan sifatida ham rivojlanib bormoqda. Uning vazifasi nafaqat mavjud voqeliklarni tahlil qilish, balki ularning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari belgilash va ilmiy asoslangan yechimlarni taklif qilishdan iboratdir.

Demak, jamiyat taraqqiyoti va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi hamda ularning hududiy joylashuvi jarayonlari iqtisodiy

geografiya obyektining o'zgarishiga olib keladi. Shunga muvofiq, ushbu fanning tadqiqot predmeti va vazifalari ham uzluksiz takomillashib boradi. Bugungi kunda bunday evolyutsion jarayonlar fanning nomini zamon talablari bilan moslashtirishni talab qilmoqda. Natijada, an'anaviy iqtisodiy geografiya asta-sekin zamonaviy iqtisodiy geografiyaga, u esa yanada murakkabroq shaklga – ijtimoiy geografiyaga aylanish yo'lidan bormoqda. Bu esa ushbu fanni jahon miqyosidagi standartlarga moslashtirishga xizmat qiladi.

Aytish o'rinliki, mazkur fanning barchani qoniqtiruvchi, muayyan barqaror ta'rif mavjud emas. Buning sababi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tadqiqot objekti va predmeti haqida turli xil fikrlar mavjud. Ilmiy adabiyotlarda geografiyaning ijtimoiy tarmog'i obyektini quyidagicha aniqlash holatlari uchraydi:

- ▶ inson hayoti va faoliyatiga tegishli hududiy mutanosiblik (bunda tabiiy hududiy mutanosiblik ham mavjudligini unutmaslik kerak);
- ▶ hududiy majmualar, albatta inson faoliyati bilan bog'liq holda;
- ▶ hududiy (territorial, geografik) ijtimoiy (iqtisodiy, sotsial, siyosiy va boshqa) tizimlar;
- ▶ iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning umumiy tadqiqot objekti;
- ▶ atrof-muhitning inson tomonidan o'zgartirilgan qismi yoki antroposfera;
- ▶ iqtisodiy rayonlar va boshqalar.

Shunday qilib, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani an'anaviy iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning zamonaviy shakli, deb ta'riflash mumkin. A.Y. Skopinning fikriga ko'ra, iqtisodiy geografiyaning tadqiqot objekti antroposfera (ekosfera) hisoblanadi, u yerda xo'jalik faoliyati rivojlanadi. Tadqiqot predmeti esa tizimli yondashuv asosida geoiqtisodiy muammolar yechimini izlash va antroposferaning transformatsiyasini o'rganishdan iborat.

1960-70 yillarda geografiya hududiy tizimlar haqidagi fan sifatida qarala boshlandi. Ludvig fon Bertalanfiga ko'ra, tizim – bu doimo o'zaro bog'liq bo'lgan elementlar majmuasidir.

Y.G. Saushkin iqtisodiy geografiyani hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning shakllanishi, faoliyati va rivojlanish jarayonlari, shuningdek, ushbu tizimlarni boshqarish haqidagi fan, deb ta'riflagan.

A.I. Chistobayev, M.D. Sharigin, V.V. Voronin va boshqa mutaxassislarning fikricha, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya hududiy

ijtimoiy tizimlarni o'rganishga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, iqtisodiy geografiya ta'riflarining ko'pchiligida ishlab chiqarish kuchlari va ularning joylashuv xususiyatlari alohida ta'kidlanadi.

Ma'lumki, ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirish masalalari dastlab Yevropada, xususan, Germaniyada nemis olimlari I.Tyunen, A.Veber, A.Lyosh, V.Kristaller va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Ularning tadqiqotlari ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning amaliy va nazariy asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan edi. Ushbu olimlar joylashuv (shtandort) nazariyalari orqali ishlab chiqarish tarmoqlarining iqtisodiy va geografik jihatdan eng maqbul joylashuvini aniqlashga harakat qilishgan. Masalan, I.Tyunen qishloq xo'jaligi zonalari nazariyasini, A.Veber transport va ishchi kuchi xarajatlari asosida ishlab chiqarish korxonalarining joylashuv nazariyasini, A.Lyosh esa iqtisodiy hududlarni shakllantirishga doir ilmiy yondashuvni taklif qilgan. V.Kristaller esa markaziy joylar nazariyasini ishlab chiqqan bo'lib, bu nazariya aholi punktlarining hududiy tashkil etilishi va ularning iqtisodiy funksiyalari o'rtasidagi munosabatlarni tushuntiradi. Shunga qaramay, ushbu olimlar o'z tadqiqot natijalarini "iqtisodiy geografiya" deb ta'riflamaganlar. Ular asosan iqtisodiyot, geografiya va boshqa fanlar o'rtasida chegara vazifasini bajargan, joylashuv muammolarini iqtisodiy nazariyalar doirasida ko'rib chiqqan. Shu sababli, iqtisodiy geografiya fani keyinchalik bu yondashuvlarni o'z ichiga olib, ularni rivojlantirdi va keng qamrovli ilmiy yo'nalishga aylandi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining asosiy vazifalari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy islohotlardan kelib chiqqan holda talabalarga qo'yidagi yo'nalishlarda puxta bilimlar berishdir:

► iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining nazariy asoslarini o'rgatish, jahon siyosiy kartasining shakllanish bosqichlari, xalqaro munosabatlar, xalqaro va mintaqaviy mojarolar, ularning oqibatlari, jahon mamlakatlari to'g'risida ma'lumotlar berish;

► bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish qonuniyatlari hamda omillarini o'rgatish;

► tabiiy sharoit va tabiiy resurslarning mamlakatlar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishidagi roli va o'rni, ulardan foydalanish, ekologik muammolarning sabab va oqibatlarini tushuntirish;

► mamlakatlar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida erishilgan ilmiy-texnika yutuqlarini o'rganish, ilg'or texnologiyalardan foydalanish tajribalarini o'rganish va xulosa berish;

► jahon aholisi, mehnat resurslari, turli mamlakatlarda mehnat resurslarining sifati va malaka tarkibi, migratsiya va urbanizatsiya masalalarini tadqiq qilish;

► jahon xo'jaligining tarkibi (sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, tashqi iqtisodiy aloqalar) va hududiy rivojlanish xususiyatlarini, xalqaro iqtisodiy-ijtimoiy tizimlar faoliyatini o'rganish;

► jahon xo'jaligida ayrim mamlakatlarning tutgan o'rni, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish xususiyatlarini tadqiq qilish va tegishli xulosalar chiqarish;

► insoniyat oldida turgan umuminsoniy (xalqaro) va mintaqaviy muammolar (tinchlik va quolsizlanish, ekologik, demografik, energetika va xomashyo, oziq-ovqat, Dunyo okeani va kosmosni tinchlik maqsadlarida o'zlashtirish va boshqalar) hamda mintaqaviy (Orol va Orol bo'yi, Afg'onistonda tinchlikni yuzaga keltirish va boshqalar) muammolarni o'rganish;

► O'zbekistonning jahon hamjamiyatida tutgan o'rnini baholash va uning Markaziy Osiyoda tinchlikni saqlash va barqarorlikni ta'minlashdagi roli, hamda iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy tizimlardagi ishtirokini baholash.

Darhaqiqat, iqtisodiy geografiya mustaqil fan sifatida turli mamlakatlar va hududlarda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylashuv xususiyatlarini, shuningdek, inson hayot faoliyati va yashash tarzining hududiy jihatlarini o'rganadi. Ushbu fan jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarini hududiy nuqtayi nazardan tahlil qilish orqali ularni samarali tashkil etish masalalarini ko'rib chiqadi. Qisqacha qilib aytganda, ijtimoiy geografiyani jamiyat hayoti va faoliyatini hududiy tashkil etish haqidagi fan sifatida ta'riflash mumkin. Albatta, ushbu ta'rif ham mutlaq aniqlikka da'vogar emas, chunki fanlar rivojlanib borgan sari ularning mazmuni ham kengayib, o'zgarib boradi. Shunga qaramay, keltirilgan ta'rif fanning tub mohiyatini ifodalashda yetarlicha asoslangan bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy jabhalarni o'z ichiga oladi. U inson faoliyatining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarini hududiy jihatdan tahlil qilishni o'zining asosiy vazifasi sifatida belgilaydi. Shu orqali iqtisodiy geografiya nafaqat


nazariy, balki amaliy jihatdan ham jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Professor A.S. Soliyev fikriga ko'ra, "Iqtisodiy geografiya ishlab chiqarish kuchlarini turli mamlakat yoki rayonlarda rivojlanish va joylanish xususiyatlarini hamda inson hayot faoliyati va yashash tarzini hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar yoki majmualar doirasida o'rganadi". Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi o'zaro aloqador bo'lgan to'rt asosiy blokka, ya'ni iqtisodiy geografiya, sotsial-iqtisodiy, sotsial va siyosiy geografiyaga bo'linadi (1-rasm).

Har qanday fanning predmeti va ta'rifi uning asosiy tamoyillarini aks ettirishi shart. Bu tamoyillar fan metodologiyasi, metodlari, tadqiqot predmeti va prinsiplarini belgilab beradi. O'zining aniqlangan tamoyillariga ega bo'lmagan ilmiy yo'nalish mustaqil fan sifatida qaralishi qiyin. Shu sababli, iqtisodiy geografiyaning tamoyillarini aniqlash uning mustaqilligini va ilmiy asoslanganligini tasdiqlash uchun muhimdir.

Iqtisodiy geografiyaning asosiy tamoyillari:

► **Hududiylik tamoyili.** Bu tamoyil geografiya fanining bosh o'ziga xos xususiyati bo'lib, hududlar va ularning o'zaro bog'liqligini o'rganishga asoslanadi. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada an'anaviy tarzda hududiy tashkil etish iborasi qo'llanib, u odatda mazmuni va shakllari bo'yicha ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga yaqinroq turadi. Shu bilan birga oddiy joylashtirishdan farq qilib, ishlab chiqarishni, aholi yoki xo'jalik tarmoqlarini hududiy tashkil etish, ayni paytda, uni muayyan maqsadga yo'naltirishi va eng muhimi boshqarishini ham o'z ichiga oladiki, bu ushbu tushunchaning ilmiy va amaliyligidan darak beradi.



**1-rasm. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning ichki tuzilishi
(A.S.Soliyev bo'yicha)**

► **Komplekslik tamoyili.** Mazkur tamoyil iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy omillarni bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq holda o‘rganishni nazarda tutadi. Iqtisodiy geografiya jamiyat va atrof-muhit o‘rtasidagi munosabatlarni tizimli tahlil qilish orqali rivojlanishning muvozanatli modellarini ishlab chiqadi. Komplekslik hamma vaqt ma’lum maqsad va vazifa doirasida barcha hodisa va voqealikni faqat o‘rganilayotgan masala atrofida va u bilan bevosita aloqador bo‘lganlarni tahlil etishni ko‘zda tutadi.

► **Tarixiylik tamoyili.** Har bir hududning rivojlanishi va iqtisodiy geografik jarayonlari tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Bu tamoyil hududlarning o‘tgan davrdagi iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlarini o‘rganib, ularning rivojlanish yo‘nalishlarini tushunishga yordam beradi. Tarixiylik tamoyilining muhimligini N.N.Baranskiy ham ta’kidlagan. Bu olim “mamlakat va rayonlar iqtisodiy geografik ta’rifini shunday beringki, u oyog‘i bilan yerga – geologiya, geomorfologiya va tuproqshunoslikka, tanasi bilan tarix orqali o‘tishi, boshi bilan esa siyosat va mafkuraga tayanishi, tarqalishi kerak”, deb uqtirgan edi. Ko‘rinib turibdiki, tarixiylik iqtisodiy geografik ta’rif va tavsifni asosiy qismini tashkil etadi.

Bugungi kunda iqtisodiy geografiya hududlarni rivojlantirishda ekologik va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratadi. Bu tamoyil resurslardan oqilona foydalanish va jamiyat ehtiyojlarini muvozanatli qondirishni ta’minlashni nazarda tutadi.

► **Ekologik tamoyil** ayniqsa, ishlab chiqarishni ijtimoiy va hududiy tashkil etish shakllari, xususan, mujassamlashuv bilan uyg‘unlashib ketadi. Aytish joizki, ekologik tamoyil ham o‘ta muhimdir. Biroq, u aslo ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishga qarshi turmaydi. Aksincha, bu yerda joylashtirish masalalarini ko‘proq barcha omil va sharoitlarni atroflicha inobatga olgan holda, geografik ekspertiza asosida amalga oshirilishi lozim. Shu bilan birga ekologik masalalar faqat sanoat geografiyasidagina emas, balki ular qishloq xo‘jalik, aholi va shaharlar, transport, rekreatsiya, tibbiyot geografiyasi kabi yo‘nalishlarni o‘rganishda ham asosiy o‘rinda turishi kerak.

► **Demotsentrizm tamoyili.** Mazkur fanning yana bir tamoyili – **demotsentrizm yoki antropotsentrizmdir.** Chunki, barcha hududiy iqtisodiy munosabatlar asosida eng avvalo inson – moddiy va ma’naviy boyliklarini yaratuvchi va ayni paytda ularning iste’molchisi joy oladi.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda, ilmiy-texnika taraqqiyoti va boshqalarda inson omili uning talab va taklifi, dunyoqarashi muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan demotsentrizm tamoyili ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishda e’tiborga olinishi bilan bir qatorda uni o‘rganishi taqozo etadi.

Yuqoridagi tamoyillar iqtisodiy geografiyaning asosiy ilmiy negizini tashkil qiladi. Shunday qilib, hududiylik, komplekslik, tarixiylik, ekologiya va demotsentrik tamoyillari inson geografiyaning mustaqilligini yanada mustahkamlaydi.

Geografiya boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning kuchi aynan shu aloqadorlikda namoyon bo‘ladi. Boshqacha aytganda, geografiya o‘zining “geografik o‘rni” tufayli fanlar tizimida markaziy mavqega ega bo‘lib, boshqa fanlar u bilan aloqaga kirishishga majbur bo‘ladi. Geograflar uchun bu aloqadorlik turli sohalardan yondashuv va yutuqlarni o‘zlashtirish imkonini beradi. Iqtisodiy geografiya, o‘z navbatida, boshqa geografik fanlar, xususan, tabiiy geografiya bilan chambarchas bog‘liq. Tabiiy geografiya inson va tabiat, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rgangan holda, umumiy geografiyaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ammo iqtisodiy va tabiiy geografiya orasida muhim farqlar mavjud. Masalan, ijtimoiy, shu jumladan, iqtisodiy geografiya asosan joylashuv xususiyatlariga e’tibor qaratadi, ya’ni iqtisodiyot sohasining hududiy joylashuvini tahlil qiladi. Tabiiy geografiyada esa tabiiy komponentlarning joylashuvi emas, balki ularning kelib chiqish qonuniyatlari, tabiiy geografik jarayonlar tahlil qilinadi, baholanadi va bashorat qilinadi. Iqtisodiy geografiya boshqa ko‘plab fanlar bilan ham bog‘liqdir. Jumladan:

- **Kartografiya** – iqtisodiy geografiyaning asosiy vositalaridan biri bo‘lib, iqtisodiy va hududiy ma’lumotlarni xaritalar yordamida tasvirlash imkonini beradi.

- **Tarix** – tarixiy jarayonlarni tahlil qilish orqali hududlarning iqtisodiy rivojlanishi va joylashuvini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

- **Iqtisodiyot** – iqtisodiy geografiya ishlab chiqarish kuchlari va sohasining hududiy tashkil etilishini iqtisodiy tamoyillar asosida o‘rganadi.

- **Demografiya** – aholi soni, tarkibi, ko‘chishi va hududiy joylashuv xususiyatlarini tahlil qilishda ahamiyatlidir.

- **Statistika** – iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni aniqlashda asosiy usul sifatida qo‘llaniladi.

- **Etnologiya** – hududiy madaniy xususiyatlarni o‘rganishga yordam beradi.

- **Tibbiyot va nozogeografiya** – hududlarning sog‘liqni saqlash tizimi va kasalliklarning geografik tarqalishini tahlil qilish imkonini beradi.

Bu fanlar o‘rtasidagi aloqalar natijasida yangi yo‘nalishlar, masalan, mintaqaviy iqtisodiyot, demogeografiya (geodemografiya), geosiyosat va boshqalar shakllanadi. Bunday integratsiya geografiyaning tadqiqot obyekti va qamrovining kengligidan dalolat beradi.

Iqtisodiy geografiya tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy metodlardan foydalanadi:

- ▶ **Kartografik metod** – ma’lumotlarni xaritalar ko‘rinishida aks ettirish orqali jarayonlarni tasvirlash va tahlil qilish.

- ▶ **Geografik taqqoslash** – turli hududlarni solishtirish orqali ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash.

- ▶ **Statistik metod** – hududiy jarayonlarning miqdoriy ko‘rsatkichlarini hisoblash va tahlil qilish.

- ▶ **Tarixiy metod** – hududlarning rivojlanishini tarixiy jarayonlar asosida o‘rganish.

- ▶ **Kuzatuv va modellashtirish** – jarayonlarni kuzatish orqali ularning kelajakdagi holatini bashorat qilish.

Geografik fikrlashning asosiy vositasi bu – xaritalardir. Xarita geografiyaning “tili” hisoblanadi, chunki geografik bilimning chegarasi o‘rganilayotgan hodisalarning hududiyli va ularning xaritaga tushirilishi bilan belgilanadi.

Geografik taqqoslash joyning betakrorligini aniqlashda muhim ahamiyat o‘ynaydi. Masalan, O‘zbekistonning o‘ziga xosligini jahonning boshqa davlatlari bilan taqqoslagan holda tahlil qilish orqali aniqlash mumkin. Bu esa iqtisodiy geografiyaning asosiy maqsadi va predmeti – hududiy farqlanish va jarayonlarni o‘rganishni chuqurroq tushunishga imkon yaratadi.

Savollar:

1. Jamiyat rivojlanishi faqat vaqt bilan bog‘liq bo‘lmay, hudud bilan ham bog‘liqligi haqida qanday misollar keltirish mumkin?

2. Iqtisodiy geografiya dastlab qanday masalalarni o'rgangan va hozirgi kunda uning vazifasi qanday kengaygan?

3. "Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim" tushunchasini qanday izohlash mumkin?

4. Ilgari va hozirgi iqtisodiy geografiyaning tadqiqot usullari qanday farq qiladi?

5. Nima uchun ilmiy tahlil va bashorat qilish iqtisodiy geografiya uchun muhim hisoblanadi?

6. Demotsentrizm tamoyilini mohiyati?

Topshiriqlar:

1. **Hududiy tahlil:** O'z yashash hududingiz misolida ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni tahlil qiling.

Masalan, asosiy xo'jalik tarmoqlari, aholi soni, va infratuzilma imkoniyatlarini tasvirlab bering.

2. **Taqqoslash jadvali tuzing:** Ilgari va hozirgi iqtisodiy geografiyaning vazifalari va tadqiqot usullarini taqqoslab, jadval shaklida ko'rsating.

3. **Tadqiqot ishi:** Tanlangan biror hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi tabiiy va inson omillarini o'rganib, hisobot tayyorlang.

4. **Munozara tashkil qiling:** "Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda tabiiy geografik omillarning o'рни qanday?" mavzusida guruhda muhokama o'tkazing.

5. **Tadqiqot obyekti tanlash:** Iqtisodiy geografiya bo'yicha yangi tadqiqot uchun ob'ekt tanlang va ushbu tadqiqotning ahamiyatini asoslab bering.

2-MAVZU

IQTISODIY GEOGRAFIYANING TARIXIY SHAKLLANISHI



REJA:

1. Iqtisodiy geografiya fanining vujudga kelishi.
2. Iqtisodiy geografiya fanining rivojlanishidagi asosiy bosqichlar.
3. Statistika, siyosiy geografiya va iqtisodiy geografiya.
4. Iqtisodiy geografiya fanining tarkibiy tuzilishi.



2-rasm.

M.V.Lomonosov
(1711-1765)

“Iqtisodiy geografiya” atamasini birinchi bo‘lib buyuk rus qomusiy olimi Mixail Lomonosov XVIII asrning 60-yillarida ishlatgan (2-rasm.). Lomonosov bu tushunchani ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarning hududiy o‘ziga xosliklarini tushuntirishda muhim omil sifatida ko‘rgan. Shunga qaramay, bu davrda iqtisodiy geografiya alohida fan sifatida shakllanmagan edi, balki shunchaki yangi atama va ilmiy qiziqishning boshlanishi bo‘lgan.

Ushbu sohadagi tasavvurlar insonning o‘zlashtiruvchi iqtisodiyot bosqichidayoq shakllana boshlagan. Birinchi yirik ijtimoiy mehnat taqsimoti dehqonchilikdan chorvachilikning ajralib chiqishi va ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotga o‘tish jarayonida yuzaga keldi. Shu bilan birga, sug‘orma dehqonchilik tizimlarining Buyuk daryolar havzalari va O‘rta dengiz sohillari atrofida yuzaga kelishi iqtisodiy faoliyatlarning kengayishiga turtki bo‘ldi. Ikkinchi yirik ijtimoiy mehnat taqsimoti hunarmandchilikning rivojlanishi va shaharlar hamda savdo-sotiq markazlarining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Bu jarayonlar iqtisodiy geografik bilimlarga bo‘lgan ehtiyojni oshirdi va insonlarning

tabiat resurslarini o'rganish va ulardan samarali foydalanishga qaratilgan tajribalarini kengaytirdi.

Shuningdek, mulkchilik munosabatlarining paydo bo'lishi, qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlari va jamiyatda mehnat taqsimotining chuqurlashuvi iqtisodiy geografiya fanining asosiy masalalarini belgilab berdi. Fan, madaniyat, arxitekturaning rivojlanishi, qadimgi davlatlarning shakllanishi va taraqqiy etishi hamda boshqaruv shakllarining (monarxiya va demokratiya) yuzaga kelishi iqtisodiy geografiyaning falsafiy va amaliy asoslarini yaratishga xizmat qildi.

Shunday qilib, iqtisodiy geografiya insonning tabiat bilan o'zaro munosabatlari, jamiyatning mehnat taqsimoti va ijtimoiy-iqtisodiy tizimlari bilan bog'liq qonunlar va jarayonlarni o'rganuvchi muhim fan sifatida shakllandi.

Tabiiy geografiyaning asoslarini yaratgan mashhur nemis olimi Aleksandr fon Gumboldt esa, tabiat va jamiyat o'rtasidagi aloqalarni o'rganishga katta e'tibor qaratib, iqtisodiy geografiya rivoji uchun nazariy poydevor yaratdi. Gumboldtning ishlari iqtisodiy va tabiiy geografiyaning uzviy bog'liqligini ko'rsatdi.

Rossiyada kameral statistika yoki "Siyosiy arifmetika" davlatshunoslik ilmining bir qismi bo'lib, davlatning boyliklari – yer, mablag' va aholini hisob-kitob qilish, uni boshqarish, soliqlar yig'ish hamda harbiy kuchlarni safarbar etish kabi masalalarni qamrab olgan. Ushbu faoliyat V.N. Tatishchev, ota-o'g'il P.P. va V.P. Semyonov Tyanshanskilarning ilmiy izlanishlari va amaliy ishlari bilan chambarchas bog'liq edi. O'sha davrda statistika fani o'z ichiga faqat son va ma'lumotlarni yig'ishni emas, balki etnografiya va harbiy geografiyaga oid masalalarni ham qamrab olgan edi. Shu bilan birga, u savdo va iqtisodiy aloqalarni o'rganuvchi tijorat geografiyasi bilan bog'liq masalalarni ham o'z ichiga olgan.

V.N. Tatishchev (1686–1750) geografiya fanini turli yo'nalishlarga bo'lib o'rganishni taklif etgan. U geografiyani "sifat" jihatidan uch qismga ajratdi: matematik geografiya (hozirgi geodeziya va kartografiyaga muvofiq), tabiiy geografiya va siyosiy geografiya. Uning bu taqsimoti geografiya fanining tizimli ravishda rivojlanishi va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Kameral statistikaning rivojlanishi va geografik bilimlarning kengayishi nafaqat davlat boshqaruvi va soliqlar tizimining

takomillashuviga, balki jamiyatdagi iqtisodiy, madaniy va harbiy sohalarning mukammal tahlil qilishiga ham asos yaratdi. Bu jarayon Rossiyaning hududiy rivojlanishini tushunish va boshqarish uchun muhim omil bo'ldi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, iqtisodiy geografiyaning rivojlanish bosqichlari quyidagilar:

1. Atama va tushunchaning paydo bo'lishi (XVIII asr):

- Lomonosov iqtisodiy geografiya atamasini ilk bor ishlatib, jamiyat faoliyati bilan hududlar orasidagi bog'liqlikni tushuntirishga harakat qilgan.

- Ushbu davrda fanning rivoji uchun amaliy ehtiyoj mavjud edi, ammo ilmiy metodologiya hali shakllanmagan edi.

2. Boshlang'ich tadqiqotlar (XIX asr):

- XIX asrda iqtisodiy geografiya tabiat resurslarini o'rganish, transport yo'llari va savdo imkoniyatlarini aniqlash bilan shug'ullandi.

- K. Ritter va F. Ratsel kabi olimlar hududiy-iqtisodiy tahlilning nazariy asoslarini ishlab chiqdilar.

- Iqtisodiy faoliyat va tabiiy sharoitlar o'rtasidagi aloqalarni o'rganish fanning rivojlanishiga turtki berdi.

3. Fan sifatida shakllanishi (XIX asr oxiri – XX asr boshi):

- Iqtisodiy geografiya alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi. V.V. Dokuchayev, P.P. Semyonov-Tyanshanskiy kabi olimlar hududiy-iqtisodiy

- Ushbu davrda asosiy e'tibor resurslarning joylashuvi va ularni xo'jalik faoliyatiga jalb qilishga qaratilgan.

4. Zamonaviy iqtisodiy geografiya (XX asr):

- Iqtisodiy geografiya hududiy rivojlanish, urbanizatsiya, ekologik muammolar va global iqtisodiy aloqalarni o'rganishga kirishdi.

- Statistik tahlil, kartografiya va kompyuter texnologiyalari fanni yanada rivojlantirdi.

Demak, "Iqtisodiy geografiya" fani atama sifatida XVIII asrda paydo bo'lgan bo'lsa-da, u alohida fan sifatida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllandi. Uning rivoji jamiyatning iqtisodiy jarayonlarini chuqurroq tushunish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va hududiy rivojlanishni rejalashtirish zaruriyatidan kelib chiqdi. Zamonaviy iqtisodiy geografiya esa nafaqat hududiy tahlil bilan cheklanmay, balki global miqyosdagi iqtisodiy-ijtimoiy masalalarni hal qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy geografiya rivojlanishining nazariy poydevori hududiy mehnat taqsimoti va iqtisodiy rayonlashtirish kabi tushunchalar bilan bog'liq. Jumladan, rus olimi K.I. Arsenyevning Rossiyani iqtisodiy rayonlarga ajratish bo'yicha olib borgan ishlari bu fan rivojiga katta hissa qo'shgan. Buyuk geografik kashfiyotlardan so'ng Yerning barcha hududlari kashf etilishi bilan tabiiy va iqtisodiy geografiya o'rtasida yangi tadqiqot sohalari paydo bo'ldi. Hududlarni chuqur o'rganishga ehtiyoj tug'ildi, bu esa iqtisodiy makonning ilmiy tahliliga zamin yaratdi. Ushbu jarayonlarda nemis olimi G. Axenvalning statistikaga oid asarlari, shuningdek, ingliz iqtisodchisi U. Pettining iqtisodiy ma'lumotlarni matematik tahlil qilishga asoslangan ishlari katta ahamiyat kasb etdi. Germaniya statistikasi iqtisodiy geografiya fanining shakllanishiga xizmat qilgan bo'lsa, Pettining usullari iqtisodiy nazariya rivojiga turtki berdi.

Iqtisodiy geografiya rivojlanishi jarayonida Markaziy Osiyolik olimlar va sayyohlarning ilmiy asarlari ham alohida o'rin tutadi. Vatandosh olimlarimiz Al-Beruniy, Mirzo Ulug'bek va Zahiriddin Bobur asarlari o'z davrining nafaqat tabiiy-geografik, balki iqtisodiy hayotini ham yoritib, bu fan uchun muhim poydevor yaratgan.

Al-Beruniy (973–1048). Al-Beruniy o'zining "Geodeziya" va boshqa asarlarida hududlarning tabiiy resurslari, yer usti va osti boyliklari, ularning aholi hayotidagi o'rni haqida qimmatli ma'lumotlarni bergan. U o'lkalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar, savdo yo'llari va hududiy mehnat taqsimotiga oid masalalarni o'rganib, tabiiy sharoitning iqtisodiy faoliyatga ta'sirini ilmiy izohlab bergan. Al-Beruniy Hindistonni tadqiq qilishda mamlakatning xo'jalik faoliyati, savdo-sotiq va sanoat tarmoqlariga katta e'tibor qaratgan.

Mirzo Ulug'bek (1394–1449). Mirzo Ulug'bek asosan astronomiya va geografiya sohalaridagi ishlari bilan mashhur bo'lsa-da, uning "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asarida keltirilgan geografik ma'lumotlar iqtisodiy geografiya uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ulug'bek turli hududlarning geografik joylashuvi va iqlim sharoitlari haqida aniq ma'lumotlar berib, bu yerlarning xo'jalik faoliyatiga bo'lgan ta'sirini bilvosita yoritgan. Bundan tashqari, uning Samarqanddagi ilmiy maktabi iqtisodiy-geografik tadqiqotlarning nazariy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530). Boburning "Boburnoma" asari nafaqat tarixiy va adabiy, balki iqtisodiy-geografik

manba sifatida ham katta ahamiyatga ega. Ushbu asarda Bobur yashagan va bosib o'tgan hududlarning tabiiy resurslari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, sanoat tarmoqlari, hunarmandchilik va savdo-sotiq haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Masalan, u Farg'ona vodiysi va Hindistonning qishloq xo'jaligi, iqlimi va resurslari haqida yozib, ulkan iqtisodiy-geografik ahamiyatga ega kuzatishlar qoldirgan.

Arab va xitoy sayyohlarining hissasi. Arab va xitoy sayyohlarining yozuvlari ham Markaziy Osiyo iqtisodiy geografiyasining o'rganilishida muhim manba bo'lgan.

Ibn Battuta (XIV asr): Markaziy Osiyo bo'ylab sayohat qilgan arab geografi savdo yo'llari, bozorlar, hunarmandchilik va shaharlarning iqtisodiy hayoti haqida batafsil yozgan.

Xuantsang (VII asr): Mashhur xitoy sayyohi Markaziy Osiyo hududlarini o'z ichiga olgan qadimgi Ipak yo'lidagi iqtisodiy aloqalar, shaharlardagi hunarmandchilik va savdo faoliyatiga oid ma'lumotlarni qoldirgan.

Ular o'z yozuvlarida savdo yo'llarining ahamiyati, bozorlardagi mahsulotlar xilma-xilligi, shaharlararo iqtisodiy aloqalar va hududiy mehnat taqsimotini tasvirlab berganlar. Bu ma'lumotlar orqali hududlarning iqtisodiy hayoti va rivojlanishi haqida qimmatli tushunchalar hosil qilish mumkin. Shunday qilib, vatandosh olimlarimiz va sayyohlarning asarlari o'z davri iqtisodiy geografiyasining shakllanishi va rivojlanishida bebaho o'rin tutadi. Ularning ilmiy va kuzatuv ma'lumotlari orqali o'sha davrning iqtisodiy aloqalari, ishlab chiqarish kuchlari va hududiy rivojlanishini tahlil qilishga asos yaratilgan. Bu esa iqtisodiy geografiya fanining keyingi taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Iqtisodiy geografiyaning shakllanishida geografik determinizm, nemis olimlari tadqiqotlari va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga oid nazariyalar muhim o'rin tutadi. Geografik determinizm nazariyasi tabiat va inson faoliyati o'rtasidagi aloqalarni tushuntirib, geografiyaning ilmiy asosi sifatida qaralgan. Bu yo'nalishning rivojlanishida nemis olimi F. Ratselning "Antropogeografiya" va "Siyosiy geografiya" asarlari muhim hissa qo'shgan. Ushbu asarlar jamiyat rivojida geografik sharoitlarning rolini yoritib, iqtisodiy geografiya va siyosiy geografiyaning shakllanishiga yo'l ochgan. Nemis olimlarining ishlab chiqarish kuchlarini

joylashtirish masalalaridagi tadqiqotlari iqtisodiy geografiyaning nazariy asoslarini rivojlantirdi. Jumladan:

I. Tyunen (1826-y.) qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining shahar atrofida halqasimon joylashuv modelini ishlab chiqib, transport masofasi va yer narxi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatgan.

A. Veber (1909-y.) sanoat korxonalarining hududiy joylashuvini xarajatlarni minimallashtirish nuqtayi nazaridan tadqiq etgan.

V. Kristaller va **A. Lyosh** xizmat ko‘rsatish sohasini joylashtirish, xo‘jalik tarmoqlarining hududiy tashkil etilishi va iqtisodiy rayonlarni shakllantirish masalalarini chuqur o‘rganib, bozor iqtisodiyoti sharoitida hududiy joylashuv qonuniyatlarini ochib bergan. Ayniqsa, A. Lyosh iqtisodiy landshaftlar va rayonlashtirish bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlari bilan mashhur.

Nemis statistikasi va “shtandort” (joylashuv) nazariyasi iqtisodiy geografiyaning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Bu fan sohasidagi birinchi fakultet va kafedralar ham Germaniyada tashkil etilib, iqtisodiy geografiya ilmiy darsliklar va tadqiqotlarda o‘z mustaqil yo‘nalishini topdi. Germaniyada rivojlangan ushbu nazariyalar va yondashuvlar Rossiya ilm-faniga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Jumladan, XVIII asrda V. N. Tatischev va boshqa rus olimlari o‘z ishlarini asosan nemis statistikasi va geografiya an‘analariga tayangan holda olib borishgan. 1820-yillarda Peterburg universitetida tashkil etilgan birinchi geografiya kafedrasi ham “Geografiya va statistika” nomi bilan faoliyat boshlagan.

Bevosita iqtisodiy geografiya uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan rus olimi K. I. Arsenyevning Rossiyani iqtisodiy rayonlashtirish bo‘yicha ishlari ilmiy asos sifatida qabul qilindi. U mamlakat hududlarini iqtisodiy rivojlanish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish nuqtayi nazaridan tasniflagan, bu esa iqtisodiy geografiya fanining rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shgan. Iqtisodiy geografiyaning fan sifatida shakllanishida tabiiy va ijtimoiy jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj, sanoat rivoji va xalqaro iqtisodiy aloqalar kabi omillar hal qiluvchi rol o‘ynagan. Shu sababli u iqtisodiy rayonlashtirish, xizmat ko‘rsatish sohasini joylashtirish va sanoatni hududiy tashkil etishni o‘rganadigan mustaqil fan sifatida rivojlandi. Iqtisodiy geografiya fanining shakllanishi va rivojlanish jarayonini o‘rganishda sobiq Ittifoq davri ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu davrda fan asosan nemis maktablari

ta'sirida rivojlanib, dastlab Peterburgda shakllana boshlagan. Iqtisodiy geografiyaning rivojlanishiga alohida ta'sir ko'rsatgan nemis maktabi statistik raqamlar va tarmoqlar tahliliga katta ahamiyat bergan. Shu sababli, XX asrning 20-yillarida iqtisodiy geografiya iqtisodiyot fanlari tizimiga kiritilib, ko'pincha "tarmoq-statistika" yo'nalishida ishlangan. Biroq, faqat raqamlar va tarmoqlar bilan chegaralanish iqtisodiy geografiyaning to'liq tasavvurini yaratishda yetarli emas edi. Iqtisodchi olimlar, masalan, Bernshteyn va Kogan hamda N. N. Baranskiy, fanning hududiy jihatlariga ko'proq e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlashgan. Ularning izlanishlari natijasida iqtisodiy geografiyaning rayonlar yo'nalishi kuchaytirilgan, va bu o'zgarish fanning geografiya bilan bog'liq jihatlarini yanada mustahkamladi. Shu bilan birga, iqtisodiy geografiya iqtisodiyot tizimidan geografiya fanlari qatoriga o'tkazildi va uning asosiy maqsadi hududiy tahlil va tavsifga qaratildi. Shunday qilib, iqtisodiy geografiya XX asrda, ayniqsa sobiq Ittifoq davrida, faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy jihatdan ham rivojlanib, turli ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muhim fan sifatida shakllangan. Bu fan, o'z navbatida, iqtisodiy tizimlarni hududiy tahlil qilish, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va tabiiy resurslarni samarali boshqarish kabi amaliy masalalarni hal etishda muhim vosita sifatida xizmat qilgan.

Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirilganidan so'ng 1897-yil Toshkent shahrida tashkil etilgan Turkiston geografiya jamiyati butun Turkiston, jumladan O'zbekiston hududi, tabiati, aholisi, tabiiy boyliklari, xo'jalik tizimi, shaharlari to'g'risida sistemali tarzda ma'lumotlar to'plash bilan shug'ullandi.

Dastlab, rus olimlari G.N.Cherdansev, N.N.Kojanov, N.K.Yarashevich, Y.I.Poslavskiy, A.I.Golovin va boshqalar Turkiston hududini iqtisodiy rayonlashtirish, Markaziy Osiyo hududida ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish, tabiiy resurslarni iqtisodiy baholash, aholishunoslikning nazariy va amaliy muammolari bilan shug'ullanadilar.

50-60-yillardan boshlab O'zbekiston iqtisodiy geograflarining dastlabki vakillari (Z.M.Akramov, M.K.Qoraxonov, S.Ziyodullayev va boshqalar) O'zbekistonda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish (Farg'ona vodiysi. 1952 y.), iqtisodiyot tarmoqlari – sanoat, qishloq xo'jaligining rivojlanishi va istiqboli (Samarqand va Qashqadaryo

qishloq xo‘jaligi geografiyasi), aholishunoslik va aholi geografiyasi, shaharshunoslikka doir ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirdilar.

70-yillardan boshlab mamlakatimizdagi taniqli iqtisodiy geograflar – Z.M.Akramov, A.S.Soliyev, O.B.Ata-Mirzayev, N.X.Mamatkulov, iqtisodchilar – S.Ziyodullayev, K.I.Lapkin, I.Iskandarovlar rahbarligida ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil qilish, rivojlantirish va istiqbollarini majmualar o‘rganuvchi yo‘nalishlar va ilmiy maktablar shakllandi.

Bu yo‘nalishlar:

- tabiiy sharoit va tabiiy resurslarni iqtisodiy baholash va mintaqaviy ekologik muammolar tadqiqoti;
- aholishunoslik va aholi geografiyasi, shaharshunoslik;
- sanoat tarmoqlari geografiyasi, agrosanoat majmuasi, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar va mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va istiqbollarining tadqiq qilishdan iboratdir.

Hozirgi kunda O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyani rivojlanishiga, Y.I.Ahmadaliyev, N.K.Komilova, I.R.Turdimambetov, S.K.Tashtayeva, M.I.Nazarov, M.O.Xamroyev, A.X.Ravshanov, M.R.Usmanov, M.A.Kodirov, O.L.Muxamedov, A.M.Mavlonov, M.M.Egamberdiyeva, N.I.Safarova, Sh.B.Qurbonov, V.N. Fedorko, L.Z.Ibragimov va boshqa olimlarning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi.

Savollar:


1. Iqtisodiy geografiya fanining shakllanishida qaysi ilmiy yo‘nalishlar va olimlarning ta’siri katta bo‘lgan?
2. Iqtisodiy geografiya fanining asosiy tushunchalari va nazariyalarini qanday tushunasiz?
3. Iqtisodiy geografiyaning tarixiy rivojlanish jarayonida Rossiyada kimlarning ishlari muhim ahamiyatga ega bo‘lgan?
5. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini o‘rganishda qaysi hududiy tadqiqotlar amalga oshirilgan?

Topshirilar:

1. Iqtisodiy geografiya fanining tarixini qisqacha yozing va asosiy bosqichlarni ajrating.
2. Iqtisodiy geografiyaning “tarmoq-statistika” yo‘nalishiga taalluqli misollarni keltiring va uning o‘zgarishlarini tushuntiring.
3. Germaniyaning iqtisodiy geografiya sohasidagi tadqiqotlar va olimlar haqida esse yozing.

4. O‘zbekistonning hududiy iqtisodiy komplekslari bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarni tavsiflab bering va ularning amaliy ahamiyatini izohlang.

5. A.S.Soliyev va uning shogirdlarining O‘zbekiston hududlaridagi iqtisodiy tadqiqotlarini tahlil qilib, ularning ilmiy va amaliy natijalarini ko‘rib chiqing.



1. An'anaviy usullar.
2. Zamonaviy usullar.
3. Anketa va sotsiologik so'rovlar.
4. Boshqa usullar.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy vazifasi jamiyatning hududiy tashkil etilishini takomillashtirish yo‘llarini o‘rganish, tabiiy va ishlab chiqarish komplekslarini shakllantirishni boshqarish, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni rivojlantirish va aholi turmush darajasi hamda sifatini oshirishdir. Bundan tashqari, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ijtimoiy farqlarni kamaytirish va aholining teng imkoniyatlardan foydalanishini ta'minlashga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshiradi. Mazkur soha geografiya, iqtisodiyot va sotsiologiya elementlarini birlashtirib, murakkab hududiy tizimlarni o‘rganadi va tahlil qiladi. Bu jarayonda quyidagi **an'anaviy va zamonaviy geografik tadqiqot usullari** qo‘llaniladi.

- kartografik usul;
- geografik taqqoslash usuli;
- tarixiy usul;
- rayonlashtirish usuli;
- statistik tahlil usuli;
- iqtisodiy-matematik modellashtirish usuli;
- tizim-tarkib usuli;

- sotsiologik so‘rov usuli;
- aerokosmik tadqiqotlar usuli
- klaster va b.

An’anaviy usullar. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada an’anaviy tadqiqot usullari tarixan shakllangan va ko‘p yillik tajribalarga asoslangan usullar bo‘lib, ular bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan.

▶ **Kartografik usul** - geografik tadqiqotlarning ajralmas qismi bo‘lib, ma’lumotlarni xaritalar shaklida ifodalashga asoslanadi.

Xususiyatlari:

- Hududiy o‘zgarishlarni tahlil qilish.
 - Iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni vizualizatsiya qilish.
 - Resurslar, infratuzilma va tabiiy sharoitlarni hududiy joylashuvini aniqlash.
- ▶ **Statistik usul** - iqtisodiy va ijtimoiy ma’lumotlarni tahlil qilish uchun raqamli ko‘rsatkichlardan foydalanadi.

Xususiyatlari:

- Iqtisodiy faoliyat ko‘rsatkichlarini aniqlash (masalan, yalpi ichki mahsulot, eksport-import hajmlari).
 - Aholi tarkibini, o‘sishini va zichligini o‘rganish.
 - Dinamik jarayonlarni tahlil qilish uchun statistik ma’lumotlarni qayta ishlash.
- ▶ **Taqqoslash (qiyosiy) usuli** - geografik hududlar, iqtisodiy tizimlar yoki ijtimoiy jarayonlar o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklarni aniqlashga qaratilgan.

Xususiyatlari:

- Hududlar rivojlanishini solishtirish.
 - Mamlakatlar yoki mintaqalarning iqtisodiy-ijtimoiy ko‘rsatkichlarini taqqoslash.
 - Ijtimoiy farovonlik darajasidagi farqlarni aniqlash.
- ▶ **Tarixiy usul** - iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning rivojlanish tarixi va dinamikasini o‘rganishga asoslanadi.

Xususiyatlari:

- O‘tgan davrlardagi iqtisodiy-ijtimoiy holatlarni tahlil qilish.
- Hududiy rivojlanishning bosqichlarini aniqlash.
- Tarixiy ma’lumotlar asosida hozirgi holatni tushunish va kelajakni prognozlash.

► **Matematik usul** - iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni raqamli ko‘rinishda ifodalash, tahlil qilish va modellashtirishni o‘z ichiga oladi.

Xususiyatlari:

- Ma’lumotlarni matematik tahlil qilish (korrelatsiya, regressiya).
- Hududiy prognoz modellarini yaratish.
- Aholi soni va iqtisodiy ko‘rsatkichlarning kelajakdagi o‘zgarishlarini hisoblash.

► **Kuzatish usuli** - obyekt va jarayonlarni tabiiy sharoitida, ularni o‘zgartirmasdan, bevosita kuzatish orqali o‘rganishga qaratilgan.

Xususiyatlari:

- **Bevosita kuzatish:** tahlil qilinayotgan hududga sayohat qilish yoki joylarda jarayonlarni kuzatish orqali ma’lumot olish.
- **Masofaviy kuzatish:** dronlar, sun’iy yo‘ldoshlar yoki boshqa masofadan boshqariladigan texnologiyalar orqali kuzatish.

An’anaviy usullar iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy tushunchalarini aniqlashda, mintaqaviy jarayonlarni tahlil qilishda va hududiy rejalashtirishni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu usullar zamonaviy texnologiyalar bilan birlashtirilganda, tadqiqotlar samaradorligi yanada ortadi.

Zamonaviy usullar. Zamonaviy tadqiqot usullari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada ilmiy-texnologik rivojlanish natijasida shakllangan innovatsion usullarni o‘z ichiga oladi. Bu usullar murakkab geografik jarayonlarni o‘rganish, modellashtirish va prognozlashda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

► **Geografik prognozlash usuli** - kelajakdagi iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning rivojlanish tendensiyalarini oldindan baholashga qaratilgan.

Xususiyatlari:

- Hududiy rivojlanish istiqbollarini belgilash.
- Iqtisodiy faoliyatning potentsial rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash.
- Urbanizatsiya va migratsiya jarayonlarini prognozlash.

► **Geoinformatika (GIS)** - geografik axborot tizimlari geografik ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va vizuallashtirish uchun ishlatiladi.

Xususiyatlari:

- Hududiy ma'lumotlarni aniqlik bilan xaritaga tushirish.
- Tabiiy resurslarni boshqarish va monitoring qilish.
- Turli hududiy ko'rsatkichlarni integratsiyalash orqali tahlil qilish.

► **Kosmik texnologiyalar (masofadan zondlash)** - sun'iy yo'ldoshlar va boshqa masofadan zondlash qurilmalari yordamida ma'lumot yig'ishni ta'minlaydi.

Xususiyatlari:

- Katta hududlarni tezkor kuzatish va xaritalash.
- Iqlim o'zgarishi, deforestatsiya va boshqa ekologik jarayonlarni monitoring qilish.
- O'zgarishlarni real vaqtda kuzatish imkoniyati.

► **Model va simulyatsiya usuli** - zamonaviy dasturiy ta'minot vositalari yordamida geografik jarayonlarni modellashtirish va simulyatsiya qilish amalga oshiriladi.

Xususiyatlari:

- Iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarning virtual modellarini yaratish.
- Rivojlanishning turli senariylarini sinovdan o'tkazish.
- Raqamli vositalar orqali natijalarni tahlil qilish.

► **Big Data (katta ma'lumotlar) tahlili** - Big Data usuli yirik va murakkab ma'lumotlar to'plamlarini tahlil qilish orqali geografik jarayonlarni o'rganadi.

Xususiyatlari:

- Real vaqtda tahlil qilish imkoniyati.
- Migratsiya, transport, ijtimoiy harakatlar va iqtisodiy faoliyatni o'rganish.
- Hududiy rivojlanishni aniqlash uchun keng qamrovli ma'lumotlar bazasidan foydalanish.

Zamonaviy usullar murakkab va keng ko'lamli geografik jarayonlarni o'rganish, aniqlash va prognozlashda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Ushbu usullar iqtisodiy va ijtimoiy geografiya uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish, aniqlikni oshirish va resurslarni samarali boshqarishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Anketa va sotsiologik so‘rovlar

Anketa va sotsiologik so‘rovlar iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada aholi fikrlarini o‘rganish, ularning ehtiyojlari, muammolari va yashash sharoitlari haqida ma’lumot olishda keng qo‘llaniladigan usullardir.

Ushbu usullar jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni bevosita aholi vakillarining fikrlari asosida o‘rganishga imkon beradi.

► **Anketa usuli** - oldindan tuzilgan savollar to‘plamidan iborat bo‘lib, respondentlardan aniq ma’lumot yoki fikr olish uchun ishlatiladi.

Xususiyatlari:

- Savollar qisqa va tushunarli bo‘lishi kerak.
- Javoblar yozma shaklda olinadi.
- Turli xil shakllar mavjud: yopiq savollar (javoblar cheklangan), ochiq savollar (respondentlar erkin fikr bildiradi).

Qo‘llanilishi:

- Hududiy iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash.
- Mahalliy aholi ehtiyojlari va talablarini baholash.
- Ijtimoiy xizmatlardan foydalanish darajasini aniqlash.

Afzalliklari:

- Ko‘plab respondentlardan tezkor ma’lumot olish imkoniyati.
- Olingan ma’lumotlarni statistik tahlil qilish oson.
- Mavzuga mos savollar orqali chuqur tahlil imkoniyati.

Kamchiliklari:

- Respondentlar anketani to‘ldirishga ehtiyotsizlik bilan yondashishi mumkin.
 - Savollarga noto‘g‘ri yoki yuzaki javoblar berilishi ehtimoli bor.
- **Sotsiologik so‘rovlar usuli** - aholining muayyan mavzuga oid fikrlarini og‘zaki yoki yozma shaklda yig‘ish jarayonidir.

Xususiyatlari:

- **Intervyular:** Tadqiqotchi respondentlar bilan bevosita muloqot qiladi.
- **Telefon yoki onlayn so‘rovlar:** Masofaviy usullardan foydalaniladi.
- Savollar aniq ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga qaratilgan.

Qo‘llanilishi:

- Urbanizatsiya, migratsiya yoki aholi bandligi haqida fikrlarni yig‘ish.
- Ijtimoiy-iqtisodiy holat va muammolarni aniqlash.

- Hududiy rivojlanish rejalari bo'yicha aholi fikrini bilish.

Afzalliklari:

- Real vaqt rejimida chuqur ma'lumot olish imkoniyati.
- Tadqiqot mavzusiga mos ravishda savollarni moslashtirish oson.
- Aholi muammolari va ehtiyojlarini bevosita aniqlash.

Kamchiliklari:

- So'rovni o'tkazish ko'p vaqt va xarajat talab qilishi mumkin.
- Aholining barcha qatlamlarini qamrab olish qiyin bo'lishi mumkin.
- Respondentlar noqulay yoki yolg'on ma'lumot berishi ehtimoli bor.

Anketalar va sotsiologik so'rovlarning qadam-baqadam amalga oshirilishi:

• **Tadqiqot maqsadini belgilash:** Maqsadga mos ravishda savollar tuzish.

• **Respondentlar tanlovi:** So'rovni kimlar orasida o'tkazish kerakligini aniqlash.

• **Savollarni ishlab chiqish:** Qisqa, tushunarli va maqsadga muvofiq savollarni tuzish.

• **Ma'lumot yig'ish:** Tanlangan usul orqali respondentlardan javoblarni olish.

• **Ma'lumotlarni tahlil qilish:** Olingan javoblarni statistik va mantiqiy tahlil qilish.

• **Natijalarni taqdim qilish:** Xulosa chiqarish va hisobot tayyorlash.

Anketalar va sotsiologik so'rovlar iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada aholi fikrini tushunish va ularning ehtiyojlarini baholashda samarali usullar hisoblanadi. Ushbu usullar yordamida mintaqaviy siyosatni rejalashtirish, ijtimoiy muammolarni aniqlash va hududiy rivojlanishni tashkil etish uchun zarur ma'lumotlar to'plash mumkin. Zamonaviy texnologiyalar ushbu usullarni yanada qulay va samarali qiladi. Masalan, shaharlarning ekologik holatini baholash uchun sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish atrof-muhit holati, aholi salomatligi va jamoatchilik fikri o'rtasidagi munosabatni yaxshiroq tushunishga, aholidan ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlarning sifati, dori-darmonlarning mavjudligi to'g'risida fikr-mulohazalarni olishga yordam beradigan muhim kompleks yondashuvdir. Shu bilan birga,

profilaktika choralari va sog'lom turmush tarzining ahamiyati to'g'risida aholining xabardorligi darajasini aniqlashga imkon beradi.

Boshqa usullar

Ko'pgina fanlarda bo'lganidek, geografiyada ham modellashtirish usuli muhim o'rin tutadi. Bu usul geografik hodisalar va voqeliklarni o'rganishda, ulardagi qonuniyatlarni tahlil qilishda va natijalarni oldindan bashorat qilishda keng qo'llaniladi. Modellashtirish jarayonida hodisa yoki voqelik umumlashtirilib, ma'lum bir ko'rinishda, ya'ni sodda, lekin mazmunan boy shaklda aks ettiriladi. Geografik modellar voqelikni to'liq takrorlamasdan, uning eng asosiy tomonlarini ko'rsatadi. Masalan, kartalar geografik modellarning eng an'anaviy va keng tarqalgan shakllaridan biridir. Ular voqelikni kichraytirilgan va shartli belgilar yordamida ifodalaydi, shu orqali geografik obyektlar va jarayonlarni tushunishni osonlashtiradi. Turli masshtab va mazmundagi kartalar nafaqat ma'lumot olish vositasi, balki ilmiy tadqiqotlar uchun ham muhim vositadir. Shu bilan birga, geografik modellashtirish faqat kartalar bilan cheklanib qolmaydi. Matematik formulalar, grafiklar va jadvallar ham modellashtirishning boshqa ko'rinishlari bo'lib, ular yordamida fikrlar, hodisalar yoki jarayonlar "miniatyura" ko'rinishda ifodalanadi. Masalan, iqlim o'zgarishlarini tahlil qilishda matematik modellar qo'llaniladi, tabiiy resurslar taqsimotini tasvirlashda esa grafiklar va jadvallar katta ahamiyat kasb etadi. Modellashtirish geografik tadqiqotlar samaradorligini oshiradi, voqelikni tizimli tushunish imkonini beradi va ko'p hollarda real hayotda tajriba o'tkazishning murakkab yoki imkonsiz bo'lgan holatlarida muqobil vosita sifatida xizmat qiladi. Shu sababli, modellashtirish geografiyaning nazariy va amaliy jihatlarida ajralmas usuldir.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada klassifikatsiya va tipologiya usullaridan keng foydalaniladi. Bu usullar yordamida geografik hududlar, iqtisodiy jarayonlar, ijtimoiy strukturalar va boshqa kompleks tizimlar tartibga solinadi va tahlil qilinadi.

Klassifikatsiya usuli, odatda, geografik hududlar yoki hodisalarni bir-biriga o'xshash belgilarga asoslanib guruhlashni anglatadi. Iqtisodiy geografiyada bu usul ishlab chiqarish tarmoqlarining, hududlarning yoki shaharlarning turli kategoriyalarga bo'linishi, masalan, rivojlangan va rivojlanayotgan hududlar, shuningdek, resurslar va ishlab chiqarish salohiyatini baholashda qo'llaniladi.

Ijtimoiy geografiyada esa turli ijtimoiy guruhlar, daromad darajalari, yashash sharoitlari va ta'lim darajasiga qarab aholi tahlil qilinadi.

Tipologiya usuli esa, klassifikatsiyadan farqli o'laroq, turli hodisalar yoki hududlarni aniq bir tiplar yoki modellarga ajratish orqali tizimlashtirishni anglatadi. Iqtisodiy geografiyada, masalan, turli iqtisodiy tizimlar (bozor iqtisodiyoti, rejalashtirilgan iqtisodiyot) yoki sanoat tarmoqlarining tipologiyasi tuziladi. Ijtimoiy geografiyada esa, aholi turmush tarzlari, urbanizatsiya darajasi, migratsiya tendensiyalari va boshqa ijtimoiy-hududiy xususiyatlarga asoslangan tipologiyalar ishlab chiqiladi.

Bu usullar geografik tahlilni chuqurlashtirish va tizimli yondashuvni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Klassifikatsiya va tipologiya yordamida olimlar va mutaxassislar muayyan hududlarning yoki jarayonlarning xususiyatlarini yanada aniqroq aniqlab, ularni o'zaro solishtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya sohalarida, ushbu usullar orqali turli muammolarni, masalan, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolatsizlik yoki ekologik barqarorlik masalalarini hal qilish uchun strategiyalar ishlab chiqish osonlashadi.

Klaster – bu ma'lumotlarni o'zaro o'xshashliklarga qarab guruhlash va tahlil qilish usuli bo'lib, ko'plab sohalarda, jumladan, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada keng qo'llaniladi. Ushbu modelini joriy etishning tarafdori M.Porterning fikricha, klasterlar geografik jihatdan o'zaro bog'langan kompaniyalar, firmalar, tashkilotlar (korxonalar, agentliklar, markazlar, universitetlar va hokazo)ning mujassamlashuvidir. Klaster usulida, obyektlar yoki hodisalar, ular orasidagi o'xshashliklar va farqlar asosida bir nechta guruhlariga bo'linadi. Bu usulni geografiyada qo'llashda, masalan, hududlarni rivojlanish darajasi, iqtisodiy tarmoqlarning tuzilishi yoki ijtimoiy omillarga ko'ra guruhlash mumkin. Klaster yordamida hududlarning o'ziga xos xususiyatlari va muammolari yaxshiroq tushuniladi, bu esa tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini soddalashtiradi. Misol uchun, iqtisodiy geografiyada turli mamlakatlar yoki hududlar iqtisodiy ko'rsatkichlar (masalan, daromad darajasi, sanoat rivoji, savdo oqimlari) bo'yicha klasterlash mumkin. Shu orqali o'xshash iqtisodiy tizimlarga ega bo'lgan hududlar guruhlanadi va ularning o'xshashliklari va farqlari yanada aniqroq ko'rsatiladi. Ijtimoiy geografiyada esa, aholi xususiyatlari, migratsiya tendensiyalari yoki

ijtimoiy barqarorlikni tahlil qilishda klasterlash usulidan foydalanish mumkin. Bu usul, shuningdek, katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishda, geografik hududlar yoki ijtimoiy guruhlarini aniq va samarali ravishda ajratish imkonini beradi.

Professor A.Soliyev ta'biri bilan aytganda, quyilgan maqsad va vazifalarni yechish ushbu masalani moliyaviy, ashyoviy, tashkiliy va boshqa tomondan uyushtirilishini taqozo etadi. Bu tadbirlar majmui esa dasturni tashkil qiladi. Shu bois, mazkur usul maqsadga dasturli yondoshuv deb nomlanadi; uni ayni vaqtda, hozirgi zamon tili bilan aytganda, klaster usuli deb ham belgilash mumkin.

So'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarda **SWOT-tahlil** usuli ham keng qo'llanilmoqda. Bu usul, odatda, tashkilotlar, hududlar yoki tizimlarning kuchli va zaif tomonlarini, imkoniyatlarini va xavf-xatarlarini aniqlashda ishlatiladi. **SWOT** qisqartmasi inglizcha so'zlarning boshlang'ich harflaridan tashkil topgan bo'lib, quyidagi ma'nolarni anglatadi:

- **S** – Strengths (Kuchli tomonlar)
- **W** – Weaknesses (Zaif tomonlar)
- **O** – Opportunities (Imkoniyatlar)
- **T** – Threats (Xavf-xatarlar)

SWOT-tahlil geografiya va iqtisodiy geografiya sohalarida ham keng qo'llaniladi. Masalan, iqtisodiy rivojlanishni baholashda, hududlarning tabiiy resurslari, infratuzilmasi, ijtimoiy muhitini tahlil qilishda bu usul samarali bo'lishi mumkin. SWOT-tahlil yordamida geografik hududlarning o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish imkoniyatlari aniqlanadi, shu bilan birga, ularga ta'sir etadigan ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik xavflar baholanadi. Bundan tashqari, SWOT-tahlil, har qanday hudud yoki tashkilotning strategik rejasini ishlab chiqishda ham foydalidir. Masalan, mahalliy boshqaruv organlari yoki mintaqaviy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda, SWOT-tahlil yordamida mavjud resurslar va imkoniyatlardan foydalanish yo'llari, shuningdek, mavjud muammolar va xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar berilishi mumkin. Shuningdek, SWOT-tahlil usuli, tadqiqotchilarga ma'lumotlarni tizimli va izchil tarzda tahlil qilish imkonini beradi, bu esa ilmiy tadqiqotlarni chuqurroq o'rganishga yordam beradi.

Aytish lozimki, iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlarni o'tkazishda turli xil usul va vositalardan foydalanish muhimdir. Har bir

metod yoki usul o'zining maxsus yondashuvini va qo'llanish sohasini taqdim etadi, ammo samarali tadqiqot o'tkazish uchun ularni birgalikda va muvofiqlashtirilgan tarzda qo'llash talab etiladi. Tadqiqotchidan esa, o'zining oldiga qo'ygan maqsad va vazifalari doirasida turli metodlarni to'g'ri tanlash va ulardan samarali foydalanish kutiladi. Birinchidan, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada tahlil qilish uchun bir nechta usullarni birlashtirish zarur. Masalan, klasterlash, SWOT-tahlil, klassifikatsiya, tipologiya va modellashtirish kabi usullarni birgalikda qo'llash orqali tadqiqotlar yanada chuqurroq va kompleks bo'ladi. Har bir usulning o'ziga xos afzalliklari mavjud bo'lsa-da, ularni bir-biri bilan kombinatsiya qilish natijasida olingan tahlil yanada ishonchli va to'liq bo'ladi. Ikkinchidan, faqat bitta usuldan foydalanish, ko'pincha tadqiqotning haqiqiy holatini to'liq aks ettirmasligi mumkin. Masalan, bir hududning iqtisodiy holatini tahlil qilishda faqat SWOT-tahlil usulini qo'llash unga ta'sir qiluvchi barcha omillarni hisobga olmasligi mumkin. Shu sababli, ushbu tahlilni boshqa metodlar bilan (masalan, modellashtirish yoki statistik tahlil) to'ldirish kerak bo'ladi. Shu tarzda, iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlar muvaffaqiyatli bo'lishi uchun metodlar birgalikda ishlatilishi, tadqiqotchining ilmiy maqsadlari va vazifalariga mos ravishda tanlanishi lozim. Bunda metodlarning o'zaro uyg'unligi va to'g'ri qo'llanishi tadqiqot natijalarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Ekspert baholash usuli – ishlab chiqarish kuchlarining tarmoqlar va hududlar bo'yicha istiqbolda rivojlanishini yuqori malakali ekspertlar yordamida baholashdir. Ekspert baholash usuli ayniqsa insonning xo'jalik faoliyati tufayli atrof-muhitda yuz berayotgan o'zgarishlarni baholashda keng qo'llanilmoqda.

Prognoz qilish usuli esa, iqtisodiyotni rivojlanishi, aholi soni va tarkibini, hududlarning kelajakda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ilmiy bashorat qilishdan iboratdir. Iqtisodiy bashorat qilish ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning oldindan bilish, bu muammolarni aniqlash va jamiyat taraqqiyotining ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Faktlar tahlili usuli – asosida tarmoqlar o'rtasida va tarmoqlar ichidagi farqlar aniqlanadi va korxonalar yo'nalishi belgilanadi. Faktlar tahlili ko'plab hodisalarni umumlashtirish hamda tarmoqlarni modellashtirish uchun kerakli ma'lumotlarni tayyorlash imkonini beradi.

Balans usuli – iqtisodiyot tarmoqlari, tarmoqlararo, ijtimoiy sohalarda doimo o'zgarib turuvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar muvozanatini ifodalovchi tizimdir.

Inson geografiyasi fanida tarmoqlar bo'yicha tadqiqot usullari muhim o'rin tutadi. Bu usul orqali jahon xo'jaligi, iqtisodiy rayon va mamlakat bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishi va joylashish xususiyatlari, tarmoqning iqtisodiy rayon va mamlakat xo'jalik ixtisoslashuvida tutgan o'rni, istiqbolda rivojlanishi hamda iqtisodiy rayonlarning shakllanishidagi o'rni tadqiq qilinadi;

Rayonlar bo'yicha – mamlakat xo'jalik majmuasini, mavjud tabiiy sharoit, tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy resurslar hamda ilmiy-texnika inqilobi yutuqlari asosida samarali hududiy ishlab chiqarish tizimini rivojlantirish va shakllantirish tadqiq qilinadi. Shuningdek, rayon va mamlakat bo'yicha majmualar tadqiqotda rayon va mamlakat hududida rivojlanayotgan ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilishning samarali shakllari, hududiy ishlab chiqarish majmualari va agrosanoat majmualari, vertikal va gorizontal ishlab chiqarish aloqalari hamda energiya ishlab chiqarish bosqichlari (sikllari) o'rganiladi.

Ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilishni takomillashtirish va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda mahalliy ko'lamdagi tadqiqotlar, ya'ni aniq korxona, firmalar faoliyati, aholi yashash manzilgohlari, assotsiatsiyalar, dehqon-fermer va uy xo'jaliklarining iqtisodiy holatini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bunda asosiy e'tibor mahalliy sharoit, mehnat resurslari, ishlab chiqarish aloqalari, hamda istiqbolda rivojlanish masalalariga qaratiladi.


Savollar:

1. Anketalar va sotsiologik so'rovlar o'rtasidagi asosiy farqlarni izohlang.
2. Zamonaviy usullar qaysi jihatlari bilan an'anaviy usullardan farq qiladi?
3. Sotsiologik so'rovlar orqali aholi fikrini qanday aniqlash mumkin? Misol keltiring.
4. Matematik usul iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada qanday vazifalarni hal etishda yordam beradi?
5. Kartografik usuldan foydalanib, biror hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini qanday tasvirlash mumkin?

6. SWOT-tahlilning qisqartmasi nima va u qanday sohalarda qo'llaniladi? Iqtisodiy geografiyada SWOT-tahlilning qanday afzalliklari bor?

Topshiriqlar:

1. Mahalliy hududning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini baholash uchun anketa tuzing. Kamida 10 ta savoldan iborat bo'lsin.
2. Aholi bandligiga oid statistik ma'lumotlarni yig'ib, iqtisodiy jarayonlarni matematik usulda tahlil qiling.
3. SWOT-tahlil usulidan foydalanib, biror hududning iqtisodiy rivojlanishini baholang. Rivojlanish imkoniyatlarini va xavflarni aniqlang.
4. Klaster usulini qo'llab, o'zingizning hududingizda iqtisodiy yoki ijtimoiy jihatdan o'xshash guruhlarini shakllantiring va ularning asosiy xususiyatlarini tahlil qiling.



Reja

1. Iqtisodiy geografik o'rin.
2. Hududiy va ijtimoiy mehnat taqsimoti.
3. Ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etish va hududiy ishlab chiqarish majmualari. Infratuzulma.

Iqtisodiy geografiya asosini bir qator ilmiy g'oyalar (konsepsiyalar), tushunchalar va qonuniyatlar tashkil etadi. Ushbu ilmiy g'oyalarga umuman geografiya fanining asosiy tushunchasi bo'lgan rayon, uning fundamental tushunchasi — hududiy mehnat taqsimoti, shuningdek, iqtisodiy geografik o'rin va boshqa muhim jihatlar kiradi. Hududiy ishlab chiqarish komplekslari yoki majmualari (HICHM) ham iqtisodiy geografiyaning asosiy tushunchalari orasida alohida ahamiyatga ega.

“Rayon” atamasi fransuz tilidan olingan bo‘lib (ingliz tilida “region”), u ma’lum bir umumiy xususiyatga ega bo‘lgan hududning ayrim qismini anglatadi. Rayonlar turli darajalarga ega bo‘lib, ularning shakllanishi va maqsadi turlicha bo‘lishi mumkin. Geografiya fanida esa iqtisodiy yoki ijtimoiy-iqtisodiy rayonlar alohida o‘rin tutadi. Iqtisodiy rayonlashuvda hududning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy resurslari o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganiladi. Bu jarayon hududni samarali boshqarish va iqtisodiy faoliyatlarni rejalashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Hududiy mehnat taqsimoti rayonlarning asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lib, ishlab chiqarishning joylashuvi, ixtisoslashuvi va ularning o‘zaro integratsiyasini belgilaydi.

Iqtisodiy geografiya fanining asosiy tushunchalari bir-birlari bilan chambarchas bog‘liq, shu bois ularni aloqadorlikda qarash katta ahamiyatga ega. Bu fikr hududiy ishlab chiqarish majmualariga ham daxldor. Uni o‘rganish esa metodologik jihatdan tizim-tarkib uslubiga mos keladi.

Iqtisodiy geografik o‘rin – bu ma’lum bir hudud yoki obyektning iqtisodiy va geografik xususiyatlarini belgilovchi tushuncha bo‘lib, uning boshqa tabiiy va iqtisodiy obyektlarga nisbatan joylashuvi bilan aniqlanadi.

Iqtisodiy geografik o‘rin quyidagi asosiy omillar orqali belgilanadi:

► **Tabiiy resurslarga yaqinlik va ularning quvvati:** hududning foydali qazilmalar, suv, o‘rmon va boshqa tabiiy boyliklarga yaqinligi iqtisodiy rivojlanish darajasiga ta’sir ko‘rsatadi.

► **Atrof-muhitning xo‘jalik faoliyatidagi roli:** obyektga yaqin joylashgan qishloq xo‘jaligi yerlari va ularning samaradorligi.

► **Transport yo‘llariga yaqinlik:** transport-kommunikatsiya tizimiga yaqinlik iqtisodiyotning logistika va savdo imkoniyatlarini belgilaydi.

► **Aholi punktlari va iqtisodiy markazlarga nisbatan joylashuvi:** yirik shaharlarga yoki sanoat markazlariga yaqinlik hududning iqtisodiy aloqalarini kengaytiradi.

► **Ma’muriy va madaniy ahamiyati:** hududning davlat boshqaruvi, ta’lim, madaniyat va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi ahamiyati uning iqtisodiy-geografik o‘rnini yanada mustahkamlaydi.

Demak, hududning iqtisodiy geografik o‘rin uning ixtisoslashuv yo‘nalishini, transport imkoniyatlarini, savdo-sotiq rivojini va boshqa

iqtisodiy ko'rsatkichlarini belgilovchi asosiy omillardandir. Bu tushuncha hududlarning iqtisodiy rivojlanishini rejalashtirish va strategik qarorlar qabul qilishda muhim o'rin tutadi.

Iqtisodiy geografik o'rin baholashning makro, mezo va mikro darajalari mavjud bo'lib, har biri hududning iqtisodiy va geografik xususiyatlarini turli darajalar bo'yicha aniqlaydi.

1. Makroiqtisodiy geografik o'rin - bu mamlakat yoki mintaqa miqyosida hududning iqtisodiy geografik o'rin baholanadi. Bu darajadagi baholashda quyidagi omillar inobatga olinadi:

- **Mamlakatlararo aloqalar:** hududning boshqa davlatlar bilan savdo, iqtisodiy aloqalari va transport yo'llariga nisbatan joylashuvi.

- **Tabiiy resurslar va ularning foydaliligi:** mamlakat yoki mintaqaning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi tabiiy resurslar (masalan, energetika, foydali qazilmalar).

- **Sanoat va qishloq xo'jaligiga bo'lgan ta'sir:** hududning ixtisoslashgan sanoat tarmoqlari va qishloq xo'jaligi faoliyati, shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish darajasi.

- **Iqtisodiy markazlarga yaqinlik:** hududning yirik iqtisodiy markazlarga, ya'ni poytaxt yoki sanoat markazlariga nisbatan joylashuvi. Misol uchun, O'zbekistonning makroiqtisodiy geografik o'rni: Markaziy Osiyo yuragida joylashgan, qo'shni davlatlar bilan transport aloqalariga ega, ammo dengizga chiqish imkoniyatiga ega emas.

2. Mezoiktisodiy geografik o'rin - bu hududning alohida iqtisodiy rayonlar yoki viloyatlar miqyosidagi baholashidir. Bu darajadagi baholashda quyidagilar inobatga olinadi:

- **Ixtisoslashgan tarmoqlar va iqtisodiy faoliyat:** mintaqaning o'ziga xos sanoat va xizmatlar sohalari, ishlab chiqarish va savdo yo'nalishlari.

- **Infratuzilma va transport tizimi:** mintaqadagi transport yo'llari, portlar, temir yo'llar va aeroportlar kabi infratuzilma obyektlarining rivojlanishi.

- **Aholi zichligi va ishchi kuchi:** hududning aholi zichligi, ixtisoslashgan ishchi kuchi va uning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar.

- **Sanoat va qishloq xo'jaligi o'rtasidagi bog'liqlik:** hududdagi sanoat ishlab chiqarishi va qishloq xo'jaligi o'rtasidagi o'zaro aloqalar. Masalan, Toshkent viloyati – iqtisodiy geografik jihatdan

respublikaning yirik sanoat va moliyaviy markazi, transport-kommunikatsiya tizimining tuguni.

3. Mikroiqtisodiy geografik o‘rin bu ma'lum bir shahar, tuman yoki kichik hududning iqtisodiy geografik o‘rin baholashidir. Mikro darajadagi baholashda quyidagilar inobatga olinadi:

- **Mahalliy resurslar va ishlatilish darajasi:** mahalliy tabiiy resurslarning samarali ishlatilishi, masalan, qurilish materiallari yoki qishloq xo‘jaligi mahsulotlari.

- **Transport va logistik imkoniyatlar:** hududning transport infratuzilmasi, yuk tashish imkoniyatlari va mahalliy bozorlarga yaqinligi.

- **Shahar va tumanlararo aloqalar:** shaharlar o‘rtasidagi aloqalar, savdo va xizmatlar tarmog‘i, kichik biznesning rivojlanishi.

- **Mahalliy iqtisodiy ixtisoslashuv:** hududning o‘ziga xos iqtisodiy ixtisoslashuvi, masalan, kichik sanoat korxonalari yoki qishloq xo‘jaligi tarmoqlari. Misol uchun, Angren shahri – mikroiqtisodiy darajada strategik ahamiyatga ega sanoat zonasi, ayniqsa konchilik va energetika sohasida rivojlangan.

Har bir darajadagi baholash hududning iqtisodiy imkoniyatlari va rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududiy va ijtimoiy mehnat taqsimoti – iqtisodiy va geografik jihatdan ishlab chiqarishning ma'lum hududlar va ijtimoiy guruhlar o‘rtasida o‘zaro bog‘liq holda joylashtirilishini va ixtisoslashuvini tavsiflaydigan tushuncha. Bu tushuncha mehnatni hududiy va ijtimoiy jihatdan samarali tashkil etish orqali iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Quyidagi misollarni keltirish mo‘mkin:

- Toshkent viloyatining sanoat tarmoqlariga ixtisoslashuvi (mashinasozlik, kimyo sanoati).

- Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarining neft-gaz sohasiga ixtisoslashuvi.

- Farg‘ona vodiysining qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan hudud sifatida rivojlanishi.

Ijtimoiy mehnat taqsimoti – bu jamiyatdagi turli sohalar va tarmoqlar o‘rtasida mehnat faoliyatining bo‘linishi va ixtisoslashuvi. Asosiy xususiyatlari: ishlab chiqarish tarmoqlari bo‘yicha taqsimot, kasbiy ixtisoslashuv, ishchi kuchining taqsimlanishi.

Aytish joizki, hududiy mehnat taqsimoti ishlab chiqarishni geografik jihatdan joylashtirishni belgilasa, ijtimoiy mehnat taqsimoti jamiyatda mehnat resurslarining iqtisodiyot tarmoqlariga bo‘linishini ta’minlaydi. Hududiy va ijtimoiy mehnat taqsimoti mamlakat va hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish, mehnat resurslarini samarali ishlatish va ishlab chiqarishning ixtisoslashuvini ta’minlashda muhim ahamiyat o‘ynaydi. Shu bilan birga, bu jarayonlar transport tizimi, infratuzilma va aholi o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Xalqaro mehnat taqsimoti (XMT) – bu dunyo mamlakatlari va mintaqalari o‘rtasida mehnat faoliyatining ixtisoslashuvi va o‘zaro iqtisodiy bog‘liqligidir. Bu tushuncha ishlab chiqarishni global miqyosda joylashtirish va mahsulot almashinuvi asosida vujudga keladi.

Xalqaro mehnat taqsimoti xususiyatlari:

1. Ixtisoslashuvning global darajasi:

- Har bir mamlakat yoki mintaqa o‘zining tabiiy resurslari, ishlab chiqarish salohiyati va ishchi kuchi xususiyatlariga mos ravishda muayyan mahsulot yoki xizmatga ixtisoslashadi. Masalan, Xitoy – elektronika va iste’mol tovarlari ishlab chiqarish markazi, Germaniya – avtomobilsozlikda, Braziliya – qishloq xo‘jaligi mahsulotlarida ixtisoslashgan.

2. Mahsulot va xizmatlar almashinuvi:

- Mamlakatlar o‘zlari ixtisoslashgan mahsulot yoki xizmatlarni eksport qiladi va boshqa mamlakatlardan o‘z ehtiyojlari uchun mahsulotlarni import qiladi. Bu jarayon xalqaro savdo va iqtisodiy hamkorlikni ta’minlaydi.

3. Transport va logistika tarmog‘ining rivoji:

- Xalqaro mehnat taqsimoti xalqaro transport, logistika va global ta’minot zanjirining rivojlanishini talab qiladi. Masalan, yuk tashishning dengiz, havo va temir yo‘l transportlari orqali samaradorligi global ishlab chiqarishni boshqarishda muhim ahamiyatga ega.

4. Iqtisodiy integratsiya:

- Xalqaro mehnat taqsimoti xalqaro iqtisodiy tashkilotlar (JST, YI, EAEO kabi) va iqtisodiy bloklar orqali muvofiqlashtiriladi.

Xalqaro mehnat taqsimoti va hududiy/ijtimoiy mehnat taqsimoti o‘rtasidagi farqlar

Xususiyatlar	Xalqaro mehnat taqsimoti	Hududiy/ijtimoiy mehnat taqsimoti
Daraja	Global (mamlakatlararo)	Milliy yoki mintaqaviy (hududlararo)
Obyektlar	Mamlakatlar va xalqaro mintaqalar	Hududlar, viloyatlar, jamiytdagi tarmoqlar
Ixtisoslashuv ko'lam	Mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishning butun dunyo bo'yicha taqsimlanishi	Mahsulot yoki xizmatlar mamlakat ichida yoki tarmoqlar ichida bo'linadi
Iqtisodiy aloqalar	Eksport va import, xalqaro savdo orqali bog'lanadi	Ichki bozor va milliy iqtisodiyot tarmoqlari orqali bog'lanadi
O'zaro bog'liqlik	Global iqtisodiy bog'liqlikni ta'minlaydi	Ichki iqtisodiy bog'liqlikni ta'minlaydi
Resurslardan foydalanish	Dunyodagi tabiiy va insoniy resurslar	Hududiy va milliy resurslardan foydalanish
Misollar	Xitoyning elektronika eksporti, Rossiyaning gaz eksporti	Toshkent sanoatga, Buxoro gazga ixtisoslashuvi

Shunday qilib, xalqaro mehnat taqsimotining ahamiyati global iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligi, texnologiya va bilimlar almashinuvi, xalqaro savdoni rivojlantirish.

Ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etish – bu iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish jarayonlarini ma'lum hududlarda joylashtirish va ularni samarali ishlatish jarayonidir. Bu tushuncha ishlab chiqarishni geografik jihatdan unumli tashkil etishga va hududiy imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanishga qaratilgan.

Asosiy tamoyillari: tabiiy resurslardan foydalanish (hududning tabiiy boyliklariga yaqin joyda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish), transport infratuzilmasi (transport yo'llariga yaqinlik ishlab chiqarishning joylashuvini belgilashda muhim ahamiyatga ega), mehnat resurslari (ishlab chiqarish kuchlarining aholi zichligi yuqori bo'lgan hududlarda joylashuvi), iqtisodiy manfaatdorlik (korxonalar

o‘zaro ishlab chiqarish aloqalariga ega bo‘lgan hududlarda joylashtiriladi (kooperatsiya)).

Maqsadlari:

- Resurslardan oqilona foydalanish.
- Hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish.
- Transport xarajatlarini kamaytirish.
- Aholini ish bilan ta‘minlash.

Hududiy ishlab chiqarish majmualari - bu bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan va muayyan hududda joylashgan ishlab chiqarish tarmoqlari va korxonalarining birikmasidir. Bu majmualar tabiiy, mehnat va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni ta‘minlash uchun shakllanadi.

Hududiy ishlab chiqarish majmualarining xususiyatlari:

- O‘zaro bog‘liqlik: hududdagi korxonalar bir-birining mahsulotlariga asoslangan holda faoliyat ko‘rsatadi (kooperatsiya va integratsiya). Masalan, neftni qayta ishlash zavodi yonida kimyo sanoati korxonalarining mavjudligi.

- Hududning ixtisoslashuvi: hududiy ishlab chiqarish majmualari ma‘lum bir hududning tabiiy va iqtisodiy resurslariga asoslangan holda rivojlanadi. Masalan, Farg‘ona vodiysi paxta yetishtirish va to‘qimachilik sanoatiga ixtisoslashgan.

- Resurslarni kompleks ishlatish: tabiiy resurslar bir hudud ichida maksimal samaradorlik bilan qayta ishlanadi. Masalan, metallurgiya komplekslarida temir rudasi qazib olinib, o‘sha hududda qayta ishlanadi.

Xulosa qilish mumkinki, **ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etish** ishlab chiqarish jarayonlarining geografik jihatdan joylashtirilishini optimallashtiradi, **hududiy ishlab chiqarish majmualari** esa bir hududdagi korxonalar va tarmoqlarning samarali integratsiyasini ta‘minlab, resurslardan maksimal darajada foydalanishga yordam beradi. Ikkalasi ham hududlarning iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

Infratuzilma – bu jamiyat va iqtisodiyotning moddiy va tashkiliy elementlari majmuasi bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etmaydi, ammo uning amalga oshirilishi uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Infratuzilma jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarni qo‘llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalaridan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, infratuzilma ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotning ajralmas qismi bo'lib, jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratadi. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning uyg'un rivojlanishi mamlakatning umumiy iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini oshiradi.

Savollar:


1. Iqtisodiy geografik o'rin qanday omillar bilan aniqlanadi?
2. Hududiy mehnat taqsimotining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Xalqaro mehnat taqsimoti bilan hududiy mehnat taqsimoti o'rtasidagi asosiy farqlarni tushuntiring.
4. Hududingizda qanday hududiy ishlab chiqarish majmualari mavjud?
5. Hududingizdagi ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilmaning holati qanday?

Topshiriqlar:

1. O'z hududingizning iqtisodiy geografik o'rnini baholang va uning imkoniyatlarini aniqlang.
2. Xalqaro mehnat taqsimotida O'zbekistonning ahamiyati haqida ma'lumot to'plang va muhokama qiling.
3. O'zbekistonning yirik hududiy ishlab chiqarish majmualarini o'rganing va ularning tarmoqlarini tahlil qiling.
4. Jadval yordamida hududiy ishlab chiqarish majmualari tarkibiy qismlarini ifodalang.
5. Diagramma yordamida ishlab chiqarish infratuzilmasi va ijtimoiy infratuzilma o'rtasidagi farqlarni ko'rsating.



ISHLAB CHIQARISHNI TASHKIL ETISHNING IJTIMOIIY SHAKLLARI



1. **Ishlab chiqarishni tashkil etishning tarmoqlar va hududiy shakllari.**
2. **Konsentratsiya (mujassamlashuv) va uning turli sohalarda ko‘rinishi.**
3. **Ixtisoslashuv va uning asosiy shakllari.**
4. **Kooperatsiya va uning shakllari.**
5. **Kombinatlashuv va uning o‘ziga xos xususiyatlari.**

Ishlab chiqarishni tashkil etish – ishlab chiqarish jarayonlarini muayyan hududiy va tarmoq sharoitlarida optimal tarzda yo‘lga qo‘yishdir. Bu jarayon iqtisodiyotning samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish va aholi ehtiyojlarini to‘laonli qondirishni maqsad qilgan.

Iqtisodiy geografiyada ishlab chiqarishning hududiy jihati yetakchi ahamiyatga ega. Shu bilan birga, jarayonlarni bog‘liq holda o‘rganish va tahlil qilish, biridan ikkinchisiga o‘ta bilish geografik fikrlashning muhim xususiyatidir.

1. Tarmoq shakllari

Tarmoq shakli – ishlab chiqarishni sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish kabi iqtisodiyot sohalariga bo‘lishni nazarda tutadi. Tarmoqlar quyidagilarga bo‘linadi:

► *Sanoat ishlab chiqarish*

- Og‘ir sanoat: metallurgiya, energetika, mashinasozlik va kimyo sanoati kabi ishlab chiqarish tarmoqlarini o‘z ichiga oladi.
- Yengil sanoat: to‘qimachilik, kiyim-kechak, oziq-ovqat va boshqa aholi iste’mol mahsulotlarini ishlab chiqaradi.

► *Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish*

- Dehqonchilik: don, sabzavot, meva yetishtirish.

- Chorvachilik: go'sht, sut, jun va boshqa chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish.

► *Xizmat ko'rsatish sohasi*

- Transport, aloqa, ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm kabi xizmatlarni ko'rsatish.

Tarmoq shakllarining ahamiyati:

- Mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvni chuqurlashtiradi.

- Resurslardan samarali foydalanishga imkon beradi.

- Hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvini rivojlantiradi.

2. Hududiy shakllari

Hududiy shakl – ishlab chiqarishni geografik joylashuvi, tabiiy resurslarga yaqinligi va infratuzilma rivojlanish darajasiga ko'ra tashkil etishdir. Hududiy shakllar quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:

► *Hududiy ixtisoslashuv*

- Muayyan hududda bir yoki bir necha tarmoqqa ixtisoslashgan ishlab chiqarishni tashkil etish. Masalan, Toshkentda mashinasozlik, Navoiyda tog'-kon sanoati.

► *Ishlab chiqarish klasterlari*

- Bir hududda o'zaro bog'liq ishlab chiqarish korxonalarining birlashuvi. Masalan, Farg'ona vodiysidagi to'qimachilik klasterlari.

► *Hududiy ishlab chiqarish komplekslari*

- Yirik hududlarda turli tarmoqlarning birgalikda faoliyat yuritishi. Masalan, Angrenda sanoat va energetika komplekslari.

► *Urbanizatsiya va ishlab chiqarishning shaharlar bo'ylab joylashuvi*

- Yirik shaharlar infratuzilmasi ishlab chiqarish korxonalarini jalb qiladi.

- Transport va aloqa imkoniyatlari keng hududda mahsulot taqsimotini osonlashtiradi.

Demak, ishlab chiqarishni tarmoqlar va hududiy shakllarda tashkil etish iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va hududlararo iqtisodiy tengsizliklarni kamaytirish uchun muhimdir. Tarmoq shakllari ixtisoslashuvni ta'minlasa, hududiy shakllar resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Shu sababli, ishlab chiqarishni rejalashtirishda tarmoq va hududiy omillarni birgalikda hisobga olish zarur.

Mujassamlashuv (konsentratsiya) va uning hududiy va ijtimoiy xususiyatlari

Mujassamlashuv – ishlab chiqarish va xizmatlarni muayyan hududlarda yoki iqtisodiy tizimlarda to‘plash, ulardan samarali foydalanishning shakli sifatida namoyon bo‘ladi. U iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga tegishli bo‘lib, ayniqsa sanoat, qishloq xo‘jaligi va transport tarmoqlarida yaqqol ko‘rinadi. Ushbu jarayon iqtisodiy geografiya fanining asosiy obyektlaridan biri bo‘lib, turli hududiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni o‘rganishda muhim ahamiyat o‘ynaydi.

Mujassamlashuvning hududiy ko‘rinishlari. mujassamlashuvni hududiy jihatdan o‘rganish jarayonida iqtisodiy faoliyatning joylashuvi va tashkil etilish shakllari ko‘rib chiqiladi. Ular quyidagilar bilan tavsiflanadi:

► *Sanoatda mujassamlashuv*

Sanoatda mujassamlashuv ishlab chiqarishning bir nuqtada, shahar yoki tarmoq markazida to‘planishini anglatadi. Bunday joylashuv yirik korxonalar va sanoat klasterlari shaklida yuzaga keladi. Sanoat markazlari va tugunlarida resurslar va ishlab chiqarish quvvatlari birlashtiriladi. Misol sifatida Toshkentda mashinasozlik sanoati. Aglomeratsiyalarda sanoat korxonalari, ilmiy-texnologik markazlar va xizmatlar birgalikda faoliyat yuritadi. Masalan, Samarqand aglomeratsiyasi.

► *Qishloq xo‘jaligida mujassamlashuv*

Qishloq xo‘jaligi areal yoki mintaqaviy (zonal) joylashuv bilan ajralib turadi.

Mintaqaviy ixtisoslashuv: muayyan hududlarda faqat bir turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtiriladi. Misol sifatida Farg‘ona vodiysida paxta yetishtirish. **Intensiv hududlar:** Yer resurslari samarali foydalaniladigan joylar, masalan, bog‘dorchilik va sabzavotchilik mintaqalari.

► *Transportda mujassamlashuv*

Transport tarmoqlari lentasimon yoki chiziq shaklida rivojlanadi. Asosiy yuk va yo‘lovchi oqimlari yo‘nalishida joylashgan avtomobil va temir yo‘l tarmoqlari. Yirik transport markazlari (masalan, Toshkent transport tuguni).

Shunday qilib, mujassamlashuvning ijtimoiy xususiyatlari iqtisodiy faoliyatning joylashuvi va rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq. Aholi va unga xizmat ko‘rsatuvchi sohalar sanoat va qishloq xo‘jaligi

markazlariga yaqin joylashadi. Bu quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

► *Urbanistik mujassamlashuv*

Shaharlar atrofida yirik aholi punktlari va xizmatlar tizimi shakllanadi. Misol: Toshkent aglomeratsiyasi - shaharda sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlari mujassamlashgan.

► *Hududiy mujassamlashuv*

Sanoat, qishloq xo'jaligi va transport infratuzilmasi muvozanatli joylashtiriladi. Bu hududlararo iqtisodiy bog'liqlikni kuchaytiradi.

► *Shahar aglomeratsiyalari va sanoat tugunlari*

Shaharlarda ekologik, transport va uy-joy muammolari kuchaysa, yangi korxonalar shahar aglomeratsiyasining periferik hududlarida quriladi. Bu sanoat tugunlari yoki zonalar shakllanishiga olib keladi.

Aglomeratsiya – yirik shaharlar yoki markazlar atrofida iqtisodiy faoliyatning to'planishi natijasida shakllanadigan jarayondir. Nemis olimi Alfred Veber (1909-yil) aglomeratsiya samaradorligi tushunchasini ishlab chiqib, quyidagilarni ta'kidlagan: Darhaqiqat, mujassamlashuv iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida samaradorlikni oshiruvchi jarayon bo'lsa-da, u turli hududlarda o'ziga xos ko'rinishlarga ega. Sanoatda tugunlar va markazlar, qishloq xo'jaligida zonalar, transportda esa lentasimon joylashuv shakllari mujassamlashuvning hududiy xususiyatlarini belgilaydi. Ushbu jarayon iqtisodiy geografiyaning asosiy o'rganish obyektlaridan biri bo'lib, resurslarni samarali taqsimlash va hududiy rivojlanishni optimallashtirishga xizmat qiladi.

Markazlashuv – mujassamlashuvning bir ko'rinishi bo'lib, ishlab chiqarish korxonalari, tashkilotlar va boshqa xo'jalik ob'yektlarining birgina shaharda yoki hududda joylashishini anglatadi. Ushbu jarayon iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi mumkin, ammo u bir qator muammolarni ham keltirib chiqaradi. Markazlashuv iqtisodiy va boshqaruv tizimlarida muvozanatsizlikni keltirib chiqarib, yakka hokimlik va monopoliyaga olib kelishi ehtimoli bor. Shu bois, markazlashuvga ehtiyotkorlik bilan yondashish va muvozanatni ta'minlash zarur.

Markazlashuvning afzalliklari va kamchiliklari

Afzalliklari:

● **Iqtisodiy samaradorlik:** markazlashuv resurslardan optimal foydalanish imkonini beradi, ishlab chiqarish hajmini oshiradi.

- **Infratuzilma rivojlanishi:** markaziy hududlarda transport, aloqa va xizmat ko'rsatish tarmoqlari tez rivojlanadi.

- **Ilmiy-texnologik rivojlanish:** yirik markazlar yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etishda yetakchi bo'ladi.

Kamchiliklari:

- **Hududiy nomutanosiblik:** boshqa hududlar iqtisodiy rivojlanishdan orqada qoladi.

- **Ekologik muammolar:** aholi zich joylashuvi va sanoat korxonalarining ko'pligi atrof-muhitga zarar keltiradi.

- **Transport tarmog'ining yuklanishi:** shahar markazlarida tirbandlik va transport infratuzilmasining haddan tashqari yuklanishi yuzaga keladi.

Markazlashuv ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tizimlarining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ammo u iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muvozanatni buzmaslik uchun ehtiyotkorlik bilan rejalashtirilishi kerak. Shaharlarni ixtisoslashtirish va hududiy taqsimotni muvozanatlash quyidagi afzalliklarni ta'minlaydi:

- Hududlararo iqtisodiy tenglikni mustahkamlash.

- Ekologik muammolarni kamaytirish.

- Transport tizimini yaxshilash va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish.

Demak, shaharlarni sanoat markazlari sifatida rivojlantirishda ularning tabiiy resurslar, infratuzilma va mehnat resurslari bilan uzviy bog'liqligini hisobga olish zarur. Shu bilan birga, har bir shahar faqatgina "sanoat markazi" deb emas, balki qaysi sanoat tarmog'iga ixtisoslashgan markaz ekanligi aniqlanishi lozim.

Ixtisoslashuv va uning shakllari

Ixtisoslashuv – iqtisodiy faoliyatning ma'lum bir sohada chuqurlashuvi, hududlar, korxonalar yoki davlatlarning belgilangan yo'nalishda ishlab chiqarishga ixtisoslashishi hisoblanadi. Bu jarayon iqtisodiyotda mehnat taqsimoti, resurslardan samarali foydalanish va raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ixtisoslashuv nafaqat mamlakatlar yoki hududlar, balki korxonalar va taniqli iqtisodiy markazlarda ham namoyon bo'ladi. U ichki va tashqi bozor talablariga, tabiiy resurslarga, mehnat resurslariga hamda texnologiyaning rivojlanganligiga asoslanadi.

Ixtisoslashuvning asosiy shakllari

► *Hududiy ixtisoslashuv - belgilangan geografik hududning tabiiy va iqtisodiy resurslaridan kelib chiqib, ma'lum yo'nalishda ishlab chiqarishga ixtisoslashuvdir.*

Sanoat ixtisoslashuvi: hududlarda asosiy sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan. **Mahalliy misollar:** Angrenda yoqilg'i sanoati, Navoiyda kimyo va kon sanoati. **Xalqaro misollar:** Germaniyaning Rur hududi – metallurgiya sanoati, Yaponiyaning Tokay hududi – elektronika sanoati.

Qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvi: tabiiy sharoitga muvofiq, hududlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga yo'naltiriladi. **Mahalliy misollar:** Qoraqalpog'iston – sholichilik, Farg'ona vodiysi – paxtachilik. **Xalqaro misollar:** Gollandiya – gulchilik va sabzavotchilik, Braziliya – qahva yetishtirish.

► *Tarmoqlaro ixtisoslashuv - bu ixtisoslashuv turli iqtisodiy tarmoqlar o'rtasida chuqur mehnat taqsimotini anglatadi.*

Misollar: Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati o'rtasidagi aloqalar (sharbat ishlab chiqarish uchun mevalar yetishtirish) yoki elektr energiyasi va sanoat ishlab chiqarishining bog'liqligi. **Xalqaro misol:** AQShning Kremniy vodiysi – axborot texnologiyalari va ilmiy tadqiqot markazlari.

► *Korxonalar ixtisoslashuvi - korxonalar ma'lum bir mahsulot yoki xizmat turiga ixtisoslashgan bo'ladi.*

Sof ixtisoslashuv: korxona yagona turdagi mahsulot ishlab chiqaradi. **Misollar:** Asakadagi avtomobil zavodi, Germaniyaning BMW kompaniyasi.

Kombinatsiyalangan ixtisoslashuv: Korxona bir-birini to'ldiruvchi mahsulotlar ishlab chiqaradi. **Misollar:** Nestle kompaniyasining turli oziq-ovqat mahsulotlari.

► *Xalqaro ixtisoslashuv - davlatlar tabiiy, mehnat va iqtisodiy resurslari asosida o'zlarining muvaffaqiyatli iqtisodiy yo'nalishini shakllantiradilar.*

Eksport mahsulotlarida ixtisoslashuv:

O'zbekiston: paxta tolasi, oltin, gaz.

Xitoy: elektronika va texnika.

Saudiya Arabistoni: neft.

• **Turizm ixtisoslashuvi:**

Fransiya – madaniy turizm.

Tailand – plyaj va sayohat turizmi.

Ixtisoslashuvning asosiy omillari:

1. Tabiiy omillar: Yer va suv resurslari, iqlim. Masalan, Braziliyada qahva va Osiyo davlatlarida choy yetishtirish.

2. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar: Mehnat resurslarining mosligi va malakasi. Hududning infratuzilmasi.

3. Transport va logistika: Ichki va xalqaro transport tizimi ixtisoslashuvni rivojlantiradi. Masalan, Yevropadagi port shaharlarning dengiz savdosidagi ahamiyati.

4. Talab va bozor ehtiyoji: Bozor talablari ixtisoslashuvning yoʻnalishini belgilaydi. Masalan, Yevropa Ittifoqi davlatlarida avtomobil va sanoat uskunalariga ehtiyojning yuqoriligi.

Ixtisoslashuvning afzalliklari va kamchiliklari

Afzalliklari:

- Resurslardan samarali foydalanish.
- Yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish.
- Xalqaro iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishi.

Kamchiliklari:

- Iqtisodiyotning bir tarmoqqa qaram boʻlib qolishi (masalan, neft-gazga bogʻliq davlatlar).
- Tabiiy resurslar tugab qolganida, iqtisodiy xavf yuzaga kelishi.
- Hududiy nomutanosiblik.

Shu oʻrinda xulosa qilib aytish lozimki, ixtisoslashuv – zamonaviy iqtisodiy tizimning asosiy mexanizmlaridan biri boʻlib, u hududlar, korxonalar va davlatlarning raqobatbardoshligini oshiradi. Hududlarning ixtisoslashuv yoʻnalishini toʻgʻri tanlash, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlash muhimdir. Shu bilan birga, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va turli tarmoqlar oʻrtasida muvozanatni saqlash talab etiladi. Xalqaro misollar ular samaradorligini oshirishda yaqqol koʻrinadi: Germaniya sanoat ixtisoslashuvi orqali dunyodagi eng rivojlangan davlatlardan biriga aylandi, Yaponiya esa elektronika va avtomobilsozlik sohasida yetakchi oʻrinni egallab turibdi. Bunday tajribalarni oʻrganish va moslashtirish milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

Kooperatsiya va uning shakllari

Kooperatsiya – iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning bir shakli boʻlib, unda bir nechta korxona, tashkilotlar umumiy maqsadlarni amalga oshirish uchun birlashadilar. Kooperatsiya iqtisodiyotning turli

sohalarida, jumladan, sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida qo'llaniladi. Kooperatsiya jarayonida ishtirokchilar o'z resurslarini birlashtirib, mahsulot ishlab chiqarishni, xizmat ko'rsatishni yoki boshqa xo'jalik faoliyatlarini amalga oshiradilar. Ushbu tizim resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va xarajatlarni qisqartirish imkonini beradi.

Kooperatsiyaning asosiy shakllari:

Ishlab chiqarish kooperatsiyasi - turli korxonalar yoki tashkilotlarning mahsulot ishlab chiqarish jarayonida hamkorlik qilishi demakdir.

Texnologik kooperatsiya - korxonalar ishlab chiqarishning turli bosqichlarini o'zaro taqsimlaydi.

Texnik kooperatsiya - korxonalar o'zaro texnika va texnologiyalar bilan almashadilar.

Qishloq xo'jaligi kooperatsiyasi - bu shakl dehqon va fermer xo'jaliklarining birlashib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bilan shug'ullanishi. Masalan, Niderlandiyada dehqonlar va fermerlar gullar va sabzavotlarni birgalikda eksport qilish uchun kooperatsiyalarga birlashadi.

Savdo va xizmat ko'rsatish kooperatsiyasi - bu kooperatsiya shakli bir guruh iste'molchilar yoki xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning ehtiyojlarini qondirish uchun birlashishi bilan bog'liq.

Iste'mol kooperatsiyasi - aholi guruhlari arzon narxda zarur mahsulotlarni sotib olish uchun kooperativlar tashkil qiladi. Masalan, Shvetsiyadagi "Koop" savdo tarmog'i.

Xizmat ko'rsatish kooperatsiyasi: Bir necha kichik korxona yoki tadbirkorlik sub'yektlari birlashib, umumiy xizmatlarni taqdim etadi (masalan, logistika, texnik xizmat).

► *Hududiy kooperatsiya - bir hududda joylashgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirishi. Misol: texnoparklar va erkin iqtisodiy zonalaridagi korxonalar o'rtasidagi hamkorlik.*

► *Xalqaro kooperatsiya - bu shakl turli davlatlar korxonalari yoki tashkilotlarining hamkorligini nazarda tutadi. Misol: Toyota va General Motors kompaniyalarining qo'shma loyihalari.*

Kooperatsiyaning afzalliklari va kamchiliklari

Afzalliklari:

- Resurslardan samarali foydalanish.

- Xarajatlarni kamaytirish.
- Innovatsiyalarni joriy etish va tajriba almashish.
- Bozor talablariga tez moslashish.

Kamchiliklari:

• Qatnashchilarning manfaatlarini muvofiqlashtirishdagi qiyinchiliklar.

- Moliyaviy va boshqaruv masalalaridagi kelishmovchiliklar.
- Ba'zi hollarda raqobatning kamayishi.

Demak, kooperatsiya iqtisodiy tizimda resurslardan samarali foydalanish va mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirishning muhim vositasidir. Ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, savdo va xizmat ko'rsatish sohalaridagi kooperatsiya jarayonlari korxona va tashkilotlarning o'zaro manfaatdorligiga asoslanadi. Xalqaro misollar kooperatsiyaning naqadar muvaffaqiyatli bo'lishini isbotlaydi. Masalan, Yevropadagi sanoat konsorsiumlari, Yaponiyaning avtomobil sanoatidagi hamkorlik loyihalari, AQSH va Xitoy o'rtasidagi savdo kooperatsiyasi dunyo iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, kooperatsiya turli sohalarda samaradorlikni oshiradi va global hamkorlikni mustahkamlaydi.

Kombinatlashuv – bu bir xil yoki o'xshash ishlab chiqarish jarayonlari va xomashyolarni ishlatgan holda, texnologik jihatdan bog'liq bo'lgan turli korxonalar yoki ishlab chiqarish birliklarining birlashishi. Kombinatlashuv ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, resurslarni tejash va mahsulot sifatini yaxshilash maqsadida tashkil etiladi. Bunda bir korxona yoki bir guruh korxonalar bir hududda joylashgan bo'lib, o'zaro o'xshash xomashyo va texnologiyalardan foydalanadi.

Kombinatlashuvning o'ziga xos xususiyatlari:

► **Texnologik yagona siklga o'xshashlik:** Kombinatsiya ko'pincha bitta xomashyo (masalan, po'lat, o'rmon, go'sht) asosida turli mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun tashkil etiladi. Bunda xomashyolar birlashtiriladi va ishlab chiqarish jarayonlarida ularning chiqindilaridan ham foydalaniladi. Misol uchun, **qora metallurgiya kombinatlari** cho'yan, po'lat va prokat ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

► **Mahsulot turlari ko'pligi:** Kombinatlashuvda yakuniy mahsulotlar ko'plab turdagi bo'lishi mumkin, lekin ularning barchasi bitta xomashyodan yoki shu xomashyo bilan bog'liq jarayonlardan

olinadi. Misol uchun, **go'sht kombinatlari** go'sht, kolbasa, konservalar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradi, ammo bularning barchasi go'sht xomashyosidan olinadi.

► **Hududiy majmua va markazlashgan joylashuv:** Kombinatlashuvda ko'proq hududiy majmua namoyon bo'ladi. Korxonalar bir joyda joylashib, o'zaro yaqin hududlarda ishlab chiqarishni amalga oshiradi. Masalan, **Bekobodagi metallurgiya kombinati** yoki **kimyo sanoati** kombinatlari. Bu birlashgan korxonalar ishlab chiqarishni o'zaro bog'lab, butun tarmoqni samarali ishlatishga imkon beradi.

► **Katta hajmdagi ishlab chiqarish:** Kombinatlashuvda ishlab chiqarish hajmi odatda katta bo'ladi. Birlashtirilgan korxonalar bir-birining ishlab chiqarish jarayonlariga bog'liq bo'lib, ular biror mahsulotni ishlab chiqarishda katta hajmdagi resurslarni birgalikda ishlatadi. Bu o'z navbatida ishlab chiqarishning samarasini oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi.

► **Chiqindilardan foydalanish:** Kombinatlashuvning yana bir muhim xususiyati – xomashyo va ishlab chiqarish jarayonlaridan chiqindilarni maksimal darajada qayta ishlash. Misol uchun, go'sht kombinatlari chiqindilarni qishloq xo'jaligi va tibbiyotda foydalanish uchun qayta ishlashadi, terilar esa charm-poyafzal sanoatida ishlatiladi.

► **Markazlashgan boshqaruv:** Kombinatlashuvda ko'pincha markazlashgan boshqaruv tizimi mavjud bo'ladi. Barcha ishlab chiqarish jarayonlari va korxonalar bitta boshqaruv markazi orqali boshqariladi, bu esa ishlab chiqarishning samaradorligini oshiradi va boshqaruvni osonlashtiradi.

► **Muayyan sanoat tarmoqlarida qo'llanilishi:** Kombinatlashuv asosan **qora va rangli metallurgiya, kimyo sanoati, o'rmon sanoati, oziq-ovqat sanoati, yengil sanoat va qurilish sanoati** kabi tarmoqlarda keng tarqalgan. Bu tarmoqlar, o'zining texnologik jarayonlari va mahsulotlarining turli xilligi bilan kombinatsiyaga yaxshi mos keladi.

► **Ekologik masalalar:** Kombinatlashuvning ba'zi salbiy tomonlari ham mavjud. Katta ishlab chiqarish korxonalari atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkin, ayniqsa, chiqindilarni samarali qayta ishlamaslik, havoni va suvni ifloslantirish kabi muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Kombinatlashuvning afzalliklari:

- Texnologik integratsiya va ishlab chiqarish jarayonlarining o‘zaro bog‘lanishi.

- Resurslarni tejash va chiqindilarni samarali qayta ishlash.

- Katta ishlab chiqarish hajmi, bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

- Mahsulotlarning xilma-xilligi, bir xomashyodan turli mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyati.

- Transport va logistik xarajatlarni kamaytirish, bitta hududda ko‘plab korxonalar joylashganligi sababli.

Kombinatlashuvning kamchiliklari:

- O‘zaro bog‘liqlik tufayli biror korxonaning muvaffaqiyatsizligi butun kombinatsiyani yomonlashtirishi mumkin.

- Ekologik ta’sirning salbiy oqibatlari, katta korxonalar va ishlab chiqarish jarayonlarining ifloslantiruvchi ta’siri.

Yuqoridagi fikr va mulohazalaridan kelib chiqqan holda, kombinatlashuv – bu texnologik jihatdan bog‘liq bo‘lgan, bir xomashyodan turli mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etuvchi tizimdir. Bu tizim samaradorlikni oshiradi, resurslarni tejashga imkon beradi va ishlab chiqarishning iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Kombinatlashuv asosan yirik sanoat tarmoqlarida, masalan, metallurgiya, kimyo, oziq-ovqat sanoati va boshqa sohalarda qo‘llaniladi. Kombinatlashuvning o‘ziga xos xususiyatlari va afzalliklari ko‘plab ishlab chiqarish tizimlarining rivojlanishiga yordam beradi.

Mustaqillikni mustahkamlash va bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida ishlab chiqarishni oqilona tashkil etish zarur. Mamlakat iqtisodiy qudratini faqat kichik korxonalar bilan chegaralab bo‘lmaydi, shuning uchun katta, o‘rta va kichik korxonalarning barqaror uyushmasini shakllantirish muhimdir.

O‘zbekistonda milliy iqtisodiyotni “yuqoridan” va “pastdan” qurish zarurati mavjud. Xorijiy hamkorlik asosida sanoat korxonalarini rivojlantirish bilan birga, ularga kerakli texnologik qismlar va dastgohlarni mahalliy ishlab chiqarish, shuningdek, tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarni kengaytirish zaruratidir.

Savollar:

1. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishga qanday omillar kiritiladi va ularning har biri qanday ahamiyatga ega?

2. Mujassamlashuv (konsentratsiya) va markazlashuv tushunchalarining farqi nimada? Har bir tushunchani amaliy misollar bilan izohlang.

3. Kooperatsiya va ixtisoslashuv tushunchalari o'rtasida qanday o'zaro bog'liqlik mavjud? Misollar orqali tushuntiring.

4. Ishlab chiqarishda ixtisoslashuvni kuchaytirish qanday iqtisodiy samaradorlikka olib keladi? Bunga ta'sir etuvchi omillarni aniqlang.

5. Hududiy mujassamlashuv va ixtisoslashuv o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiring.


Topshiriqlar:

1. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishda muhim bo'lgan omillarni tahlil qiling va har birining iqtisodiyotga ta'sirini misollar asosida tushuntirib bering.

2. Mujassamlashuv va markazlashuvni amaliy misollar bilan taqqoslang va ularning iqtisodiy samaradorligini yozma tahlil shaklida ko'rsating.

3. Kooperatsiya va ixtisoslashuv o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tasvirlaydigan diagramma yarating va uni matn bilan izohlang.

4. Kooperatsiya va mujassamlashuvning sanoat tarmoqlariga ta'sirini o'rganing va yozma tahlil shaklida bayon qiling.



1. Ishlab chiqarish tarmoqlari tushunchasi.
2. HICHMlar shakllanishining nazariy asoslari.
3. Ijtimoiy sohalarda hududiy majmualar.

Ishlab chiqarish tarmoqlari – bu iqtisodiyotning moddiy va nomoddiy boyliklar yaratish bilan shug'ullanuvchi faoliyat sohalaridir yoki mahsulot va xizmatlar yaratishga ixtisoslashgan sohalar yig'indisidir. Ushbu tarmoqlar jamiyat ehtiyojlarini qondirish, aholi

farovonligini oshirish va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qiladi.

Ishlab chiqarish tarmoqlarining asosiy xususiyatlari:

- ▶ **Moddiy ishlab chiqarish:** mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lib, moddiy boyliklarni yaratadi (masalan, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish).
- ▶ **Nomoddiy ishlab chiqarish:** xizmatlar ko'rsatish orqali jamiyat ehtiyojlarini qondiradi (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, transport va boshqalar).
- ▶ **Hududiy xususiyatlar:** ishlab chiqarish tarmoqlari tabiiy resurslar, transport infratuzilmasi va aholi zichligiga qarab turli hududlarda rivojlanadi.
- ▶ **Tarmoqlarning o'zaro bog'liqligi:** har bir tarmoq boshqalar bilan yaqin aloqada bo'lib, resurslar va mahsulotlarni almashadi.

Ishlab chiqarish tarmoqlarining ahamiyati:

- **Iqtisodiy o'sishni ta'minlash:** ishlab chiqarish milliy iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini bo'lib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.
- **Bandlikni ta'minlash:** ishlab chiqarish tarmoqlari ko'plab ish o'rinlari yaratadi.
- **Resurslardan samarali foydalanish:** tabiiy va inson resurslarini iqtisodiy jihatdan samarali boshqaradi.
- **Aholi ehtiyojlarini qondirish:** mahsulot va xizmatlar orqali insonlar hayot sifatini yaxshilaydi.

Darhaqiqat, xo'jalik tarmoqlarining har biri iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, ular o'zaro bog'liq holda faoliyat yuritadi. Hududiy tashkil etish masalalari esa xo'jalik faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda sanoat, qishloq xo'jaligi va transport sohalarining ahamiyati beqiyosdir. Shu bilan birga, maorif, madaniyat va fan tarmoqlari aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish tarmoqlarining asosiy o'ziga xos xususiyatlari:

- **Ishlab chiqarish jarayonining tuzilishi:** Xomashyodan mahsulotgacha bo'lgan jarayonning tarmoq xususiyatlari.
- **Hududiy joylashuv:** Resurslarning mavjudligi va bozorga yaqinligi ishlab chiqarish joylashuviga ta'sir ko'rsatadi.
- **Texnologik jarayonlar:** Tarmoqning rivojlanish darajasi texnologiyalardan foydalanish darajasiga bog'liq.

Mazkur tarmoqlar birgalikda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi va milliy boylikni oshiradi. Har bir tarmoqning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati ijtimoiy ehtiyojlarga, tabiiy resurslar mavjudligiga va texnologik taraqqiyot darajasiga bog'liq.

Hududiy ishlab chiqarish majmualari iqtisodiy geografiyaning jahon ahamiyatiga molik bo'lgan nazariy yutuqlaridan biridir. Ushbu tushunchani rivojlantirish va uning nazariy asoslarini yaratishda taniqli rus olimi N.N.Kolosovskiy katta hissa qo'shgan. U hududiy ishlab chiqarish majmualarini (HICHM) hududning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy resurslarini muvofiqlashtirish asosida samarali tashkil etishni o'rganuvchi ilmiy tushuncha sifatida izohladi. Kolosovskiyning ta'kidlashicha, hududiy ishlab chiqarish majmualarining shakllanishida quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

- **Tabiiy-geografik omillar:** yer resurslari, iqlim, mineral resurslar va suv resurslari;

- **Ijtimoiy-iqtisodiy omillar:** aholi zichligi, ishchi kuchi salohiyati, sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanish darajasi;

- **Transport infratuzilmasi:** hududiy ishlab chiqarish majmualarini samarali bog'lash va integratsiyalash imkoniyatlari.

Hududiy ishlab chiqarish majmualarining ahamiyati shundaki, ular tabiiy resurslarni iqtisodiy jihatdan oqilona foydalanishni, ishlab chiqarish va infratuzilmani samarali tashkil etishni ta'minlaydi. Bu yondashuv mintaqaviy va global miqyosda iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda ham muhim o'rin tutadi. Mazkur nazariy yondashuv bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, u nafaqat sobiq Ittifoq davlatlari hududida, balki boshqa ko'plab mamlakatlarda ham ishlab chiqarish va resurslardan samarali foydalanish modelini yaratishda qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, ekologik barqarorlikni ta'minlash va hududlarni rivojlantirishda ham HICHM asosidagi rejalar ishlab chiqilishi alohida ahamiyatga ega.

Ishlab chiqarishning hududiy birliklari to'g'risidagi ilk ilmiy yondashuvni akademik I.G. Aleksandrov ilgari surgan bo'lib, u mamlakatni elektrlashtirish rejalarini doirasida ushbu masalaga e'tibor qaratgan. Olim o'tgan asrning yigirmanchi yillarida yirik elektr stansiyalarni loyihalashda faol ishtirok etgan va bu jarayonda **rayon kombinatlari (RK)** tushunchasini yaratgan. Aleksandrovning fikricha, ishlab chiqarish jarayonlarini hududiy jihatdan birlashtirish elektr

energiyasini samarali taqsimlash va hududiy rivojlanishni tezlashtirishga yordam beradi.

O'ttizinchi yillarga kelib, I.G. Aleksandrov ushbu g'oyani yanada chuqur o'rganib, **rayon ishlab chiqarish kombinatlari (RICHK)** nazariyasini taklif qildi. U iqtisodiy rayonlar miqyosida ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish va turli tarmoqlar o'rtasidagi samarali integratsiyani ta'minlash uchun bunday kombinatlarni barpo etish zarurligini ta'kidladi. Keyinchalik N.N. Kolosovskiy Aleksandrovning RICHK haqidagi nazariy ishlariga tayangan holda, uni yanada boyitdi va rivojlantirdi. U Ural, Sibir va Qozog'iston kabi yirik iqtisodiy rayonlar misolida mazkur yondashuvni amaliyotga tatbiq etdi. Kolosovskiy RICHK g'oyalarini asos qilib olib, o'zining **rayon komplekslari (majmualari)** haqidagi nazariyasini yaratdi. Bu nazariya ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishida chuqur tahliliy yondashuvni joriy qildi va iqtisodiy geografiya fanining rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shdi.

Keyinchalik hududiy ishlab chiqarish majmualari (HICHM) nazariyasini rivojlantirishga bir qator olimlar o'z hissalarini qo'shdilar. Ular orasida N.T. Agafonov, M.K. Bandman, T.M. Kalashnikova, A.T. Xrushev, M.D. Sharigin, K.N. Bedrinsev, Z.M. Akramov, O. Abdullayev, Q. Abirqulov, A. Ro'ziyev, O.B. Atamirzayev, A.S. Soliyev, A.M. Sodiqov kabi taniqli tadqiqotchilar bor. Ushbu olimlar HICHM nazariyasini yanada rivojlantirish, uning amaliy va nazariy jihatlarini boyitish, shuningdek, turli iqtisodiy va geografik sharoitlarda qo'llashga katta e'tibor qaratdilar. HICHM nazariyasining rivoji iqtisodiy rayonlashtirish, tabiiy va mehnat resurslarini oqilona boshqarish, transport infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek, ekologik barqarorlikni ta'minlash kabi muhim sohalarda katta ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasida bu olimlarning tadqiqotlari HICHMlarni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha nazariy asoslarni mustahkamlashga yordam berdi.

Ma'lumki, **hududiy mehnat taqsimoti** iqtisodiy geografiyaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, u mintaqalarning tabiiy resurslari, mehnat salohiyati va iqtisodiy ixtisoslashuviga asoslangan holda ishlab chiqarishning samarali tashkil etilishini belgilaydi. Aynan hududiy mehnat taqsimoti asosida iqtisodiy rayonlar va HICHMlar shakllanadi. Bu jarayon quyidagi tamoyillarni o'z ichiga oladi:

- **Ixtisoslashuv:** Har bir hudud o'zining tabiiy va iqtisodiy salohiyatiga mos faoliyat turlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

- **Kooperatsiya:** Mintaqalar o'rtasida iqtisodiy aloqalar va mahsulot almashinuvi yo'lga qo'yiladi.

- **Kompleks rivojlanish:** Hududning barcha resurslarini maksimal darajada samarali ishlatish va sanoat, qishloq xo'jaligi hamda transport infratuzilmasini birgalikda rivojlantirish ta'minlanadi.

Aytish joizki, bu tushunchalar bir-biriga bog'liq bo'lsa-da, mazmun va funksional vazifalari jihatidan bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Taniqli olim N.N. Kolosovskiy bu masalaga oydinlik kiritib, **HICHM iqtisodiy rayonlar o'rnini egallamasligi, balki ularning asosini tashkil etishi kerakligini** ta'kidlagan edi. Unga ko'ra, iqtisodiy rayonlar keng qamrovli hududiy birlik bo'lsa, HICHM ko'proq ma'lum bir joydagi ishlab chiqarish jarayonlarini muvofiqlashtiruvchi mahalliy birikmalarni ifodalaydi.

HICHM va iqtisodiy rayonlar o'rtasidagi farqlarni tushunish muhimdir. Mazmun va mohiyatga ko'ra HICHM iqtisodiy rayondan farqli ravishda korxonalarining muayyan nuqtada yoki hududda joylashgan turg'un birikmasidir. Iqtisodiy rayon esa kengroq hududni qamrab olib, turli HICHMlarni o'z ichiga oladi.

Funksional vazifalar bo'yicha HICHM mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va muvofiqlashtirishga qaratilgan bo'lsa, iqtisodiy rayon mintaqaviy darajadagi iqtisodiy resurslarni boshqarishni nazarda tutadi. Iqtisodiy rayonlar ko'pincha bir nechta HICHMdan tashkil topadi va makroiqtisodiy darajada faoliyat ko'rsatadi.

HICHM qayerda vujudga keladi? HICHMlar o'ziga xos tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar birlashadigan joylarda shakllanadi. Ular quyidagi shart-sharoitlarda paydo bo'ladi:

- **Tabiiy resurslarga yaqinlik:** Tog'-kon sanoati va energetika kabi tarmoqlar tabiiy resurslarning konsentratsiyasi bo'lgan joylarda HICHMlarni shakllantiradi.

- **Transport qulayligi:** Transport yo'llari va logistika markazlariga yaqinlik ishlab chiqarish korxonalarini birlashtirish uchun muhim omil hisoblanadi.

- **Mahalliy ixtisoslashuv:** Hududning tarixiy rivojlanishi, mehnat resurslari va ijtimoiy infratuzilmasi bilan bog'liq xususiyatlar HICHM shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalaridan kelib chiqqan holda, HICHMni shakllantirishda tabiiy resurslar, ishlab chiqarish va transportning o‘zaro aloqasini hisobga olish zarur. Hududiy ishlab chiqarish majmualari muayyan funksional birikmani ifodalashi kerak va har qanday korxonalarning majmuasi HICHM deb atalmasligi kerak. Masalaga noto‘g‘ri yondashish chalkashliklar va rejalashtirishdagi xatoliklarga olib kelishi muqarrar. Shu sababli, HICHMlarni o‘rganish va tahlil qilishda ilmiy asoslangan mezonlarga rioya qilish zarur.

Hududiy majmualar nafaqat iqtisodiyot, balki **noishlab chiqarish sohalarida** ham muhim ahamiyatga ega. Bunday majmualar aholiga xizmat ko‘rsatishning turli jabhalarini hududiy tashkil etishni ta‘minlashda keng qo‘llaniladi. Masalan, tibbiyot, maishiy xizmat ko‘rsatish, savdo majmualari shular jumlasidandir. Tibbiyot sohasida hududiy majmualarga misol sifatida dorixonalar, poliklinikalar, diagnostika markazlari bir hududda joylashtirilishini keltirish mumkin. Ushbu tashkilotlarning bir joyda faoliyat yuritishi aholiga qulaylik yaratadi va xizmat ko‘rsatish sifatini oshiradi. Shu bilan birga, bolalar uchun bog‘chalar va yasli muassasalari, sataroshxonalar, ta‘mirlash korxonalari, kimyoviy tozalash markazlari va hammomlar ham hududiy majmua shaklida tashkil etilishi mumkin. Bunday majmualar aholining kundalik ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan xizmatlarni bir joyda taqdim etish imkonini beradi.

Hududiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmualari kombinatlashuv jarayonlari asosida vujudga keladi. Kombinatlashuv jarayoni deganda, bir hududda turli ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish subyektlarining birgalikda faoliyat olib borishi tushuniladi. Bu jarayon ishlab chiqarishni ijtimoiy va hududiy tashkil etishning samarali shakli hisoblanadi. Ishlab chiqarish kombinatlashuvi, odatda, bir xomashyodan bir necha turdagi mahsulot yetishtirishni nazarda tutadi. Masalan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa tovarlarni ishlab chiqarish korxonalari bir hududda joylashgan bo‘lishi mumkin. Hududiy ishlab chiqarish majmualarining rivojlanishi orqali mahalliy resurslardan samarali foydalanish, tashqi transport xarajatlarini qisqartirish va hududlararo iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga erishiladi. Shuningdek, hududiy majmualarning aholi uchun noishlab chiqarish xizmatlarida tutgan o‘rni ham katta ahamiyatga ega. Maishiy xizmatlar, savdo komplekslari va turli turdagi xizmat ko‘rsatish muassasalarining bir hududda tashkil etilishi aholi

turmush darajasini oshirishda muhim ahamiyat o'ynaydi. Bunday majmualar orqali aholi kundalik ehtiyojlarini oson va qulay tarzda qondira oladi, bu esa hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Hududiy majmualarning yana bir muhim jihati bu ekologik barqarorlikka erishish imkoniyatidir. Bir hududda ko'plab korxona va xizmat ko'rsatish markazlarining birgalikda joylashuvi, infratuzilmadan samarali foydalanish imkonini beradi. Masalan, chiqindilarni qayta ishlash tizimini yagona kompleks shaklida tashkil etish orqali ekologik zarar kamaytiriladi. Shuningdek, energetika tizimlarining birlashtirilishi va transport infratuzilmasining yaxshilanishi hududning ekologik holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Savollar:

1. Ishlab chiqarish tarmoqlari qanday asosiy guruhlariga bo'linadi?
2. Og'ir sanoat va yengil sanoat o'rtasidagi farqlarni tushuntiring.
3. Qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasi bir-biridan qanday farq qiladi?
4. Ishlab chiqarish tarmoqlarida zamonaviy texnologiyalar qanday ahamiyat o'ynaydi?
5. Noishlab chiqarish sohalaridagi hududiy majmualarni ta'riflab bering.
6. Jarayonlarning bir-biri bilan bog'liqligi iqtisodiy geografiyada qanday ahamiyatga ega?

Topshiriqlar:

1. Mahalliy hududingizdagi ishlab chiqarish korxonalarini o'rganib, ularning qaysi tarmoqqa tegishli ekanini aniqlang.
2. Turli ishlab chiqarish tarmoqlariga oid ma'lumotlarni diagramma shaklida tasvirlab bering.
3. Mahalliy va global ishlab chiqarishning afzalliklari va kamchiliklarini taqqoslang.
4. Biror ishlab chiqarish tarmog'ini tanlab, uning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlang.
5. Innovatsion texnologiyalarning ishlab chiqarish jarayonlariga qanday o'zgarishlar kiritayotganini tahlil qiling.

7-MAVZU

**ISHLAB CHIQUARISHNI
JOYLASHTIRISHGA TA'SIR
ETUVCHI OMILLAR**



REJA:

1. **Ishlab chiqarishni joylashtirishning klassik g'oyalari.**
2. **Ishlab chiqarishni joylashtirishga ta'sir etuvchi tabiiy va iqtisodiy omillar.**
3. **Bozor iqtisodiyoti va ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirish.**
4. **Tabiiy resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy geografiya.**

Ishlab chiqarishni joylashtirishning klassik g'oyalari.

Xalqaro savdo nazariyasining asoslari XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida mashhur iqtisodchilar Adam Smit va David Rikardo tomonidan shakllantirilgan. Adam Smit o'zining 1776-yilda chop etilgan "Xalqlar boyligi sabab va ularning tabiatlari to'g'risida tadqiqotlar" nomli asarida mutloq ustunlik nazariyasini ilgari surdi. U xalqaro erkin savdoning rivojlanishidan manfaatdor mamlakatlar, ularning eksportyor yoki importyor ekanligiga qaramay, albatta foyda olishini ko'rsatib berdi. A.Smit savdo har bir mamlakat uchun foydali ekanini va har bir mamlakat o'zining mutloq ustunligini topishi mumkinligini isbotladi. Xalqaro savdoda mutloq ustunlik degani - bu muayyan mamlakatda boshqa mamlakatlar uchun mumkin bo'lmagan darajada kam mehnat sarfi bilan tovar ishlab chiqarish qobiliyatidir.

D.Rikardo "Siyosiy iqtisodning boshlanishi va soliqqa tortish" (1819-y.) kitobida xalqaro ixtisoslashuv mezonlarini ajratib ko'rsatadi va ikki davlat o'rtasida qaysi doirada almashinish maqbul bo'lishini belgilaydi. Har bir mamlakat o'z manfaatidan kelib chiqib, ishlab chiqarishda ustunlik beradigan yoki nisbatan kam foyda keltiradigan sohalarga ixtisoslashishi mumkin. Uning mulohazalari taqqoslama, ya'ni nisbiy ustunlik nazariyasida o'z aksini topgan. D.Rikardo xalqaro

almashinuv barcha mamlakatlar uchun zarur va manfaatli ekanligini asoslab berdi.

Jon Styuart Mill o'zining "Siyosiy iqtisod asoslari" (1848-y.) asarida xalqaro savdoda almashinuv qanday amalga oshishini tahlil qildi. Millning fikriga ko'ra, almashinuv bahosi talab va ehtiyoj qonuniga asosan belgilanadi, va har bir mamlakat eksport orqali oladigan foydasi import uchun sarflanadigan to'lovlarni qoplash imkoniyati darajasida bo'lishi lozim. Bu Mill tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro qiymat qonuni yoki xalqaro qiymat nazariyasi deb ataladi. Ushbu nazariya shundan dalolat beradiki, mamlakatlar o'rtasida tovar almashuvini muvozanatlashtiruvchi muayyan baho mavjud bo'lib, bu bozor narxi talab va ehtiyojga qarab shakllanadi.

Burjuaziya siyosiy iqtisodiyotining klassik nazariyasi rivojiga yangi hissani Gotfrid Xaberler qo'shdi. U mehnatga cheklanib qolmasdan, ishlab chiqarishning barcha omillarini tahlil qilish va ularning xalqaro savdoda tutgan o'rnini aniqlashtirishga e'tibor qaratdi. Xaberlarning yondashuvi ishlab chiqarish resurslarining samarali taqsimlanishi va ularning xalqaro savdoda qo'llanilishi bo'yicha yangi nazariy asoslarni yaratishga imkon berdi. Bunda, ishlab chiqarishning mehnat, kapital, tabiiy resurslar kabi omillari va ularning o'zaro bog'liqligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi zamon xalqaro savdo oqimi tuzilishi va yo'nalishlari haqidagi tasavvurlarga shved iqtisodchi olimlari Eli Xeksher va Bertil Olinlar asos soldi. Ularning taqqoslama ustunlik haqidagi tushuntirishlariga ko'ra, ma'lum bir mamlakatda ayrim mahsulotlarga egalik darajasi ishlab chiqarishni ta'minlash uchun mavjud ishlab chiqarish omillarining darajasiga bog'liq. Xeksher va Olin ishlab chiqarish omillari – mehnat, yer, kapital, shuningdek, ayrim mahsulotlarga bo'lgan ichki talablar bozor baholarini muvozanatlashtiruvchi omil ekanligini ilgari surdilar. Ularning teoremasi ishlab chiqarish omillarining taqsimlanishi va mamlakatlarning o'zaro iqtisodiy munosabatlaridagi rolini asoslab berdi.

1948-yilda amerikalik iqtisodchilar Pol Samuelson va Vassiliy Stolper Xeksher - Olin teoremasining asoslarini yanada takomillashtirdilar. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, ishlab chiqarish omillari bir xil bo'lganda, texnologiyalar bir xil rivojlangan bo'lsa, xalqaro savdoda tovarlar to'liq safarbar etilganda va bozorlar raqobatga

asoslanganida, bu jarayon mamlakatlar o'rtasida narx omillarini tenglashtiradi. Bu nazariya ishlab chiqarish omillarining xalqaro savdoda qanday qilib taqsimlanishi va savdo orqali mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy resurslarning samarali ishlatilishini ta'minlashni ko'rsatib berdi. Shu bilan birga, teorema xalqaro savdo oqimlarining mantiqiy va nazariy asoslarini chuqurroq anglash imkonini yaratdi.

Bundan keyingi tashqi savdo nazariyasi taraqqiyoti amerikalik iqtisodchi Vasiliy Leontevning "Leontevning o'ziga xos fikrlari" nomli ishida o'z ifodasini topdi. Leontevning o'ziga xos fikrlari shundan iboratki, u Xeksher-Olin teoremasidan foydalangan holda urushdan keyingi davrda Amerika iqtisodiyoti kapitaldan chiqadigan mahsulotlar ishlab chiqarishga emas, balki mehnat talab va kam xarajatli mahsulotlarga ixtisoslashganini ko'rsatib berdi. Boshqacha aytganda, Amerika eksporti importga qaraganda bir muncha ko'proq mehnat talab qiladi va kamroq xarajatni talab qiladi.

Bu xulosa AQSh iqtisodiyoti haqidagi avvalgi tasavvurlarni rad etdi. Umumiy qarashlarga ko'ra, AQSh iqtisodiyoti har doim ortiqcha kapital bilan xarakterlanadi deb hisoblangan va Xeksher-Olin teoremasiga binoan, AQSh kapital talab mahsulotlarni eksport qilishi kutilgan edi, ammo Leontevning tahlillari bu fikrni inkor qildi.

V.Leontevning bu kashfiyoti keyingi yillarda keng aks-sado berdi. Turli mamlakatlar iqtisodchilari "Leontevning o'ziga xos fikrlari" mavzusida bahs-munozaralar olib borib, nazariyaning chegaralarini va amaliy jihatlarini kengaytirdilar. Natijada tenglashtiruvchi ustunlik nazariyasi yanada rivojlandi. Bu nazariya texnika taraqqiyoti va uning resurslar taqsimotidagi notekisligi, iqtisodiy vositalarning bir xil darajada foydalanilmasligi, ish haqi farqlari va boshqa omillar mamlakatlar o'rtasidagi tafovutlarni qamrab olishini anglatadi. Shu tariqa, Leontevning ishlari xalqaro savdo nazariyasini chuqurroq tushunishga va uni yanada takomillashtirishga xizmat qildi.

Bevosita ishlab chiqarishni joylashtirishga oid ilmiy g'oyalar dastlab Germaniyada shakllangan. Masalan, nemis iqtisodchisi va yer egasi Iogann Genrix Tyunen XIX asrning 20-30-yillarida o'zining qishloq xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirishga oid ilmiy fikrlarini maxsus asarida bayon qilgan (ruscha "Изолированное государство", 1826-y.). Tyunen g'oyasining asosiy mohiyati shundan iboratki, yagona shahar, ya'ni iste'mol markazi atrofida qishloq xo'jaligi

mahsulotlarini belgilangan tartibda yetishtirish uchun hududiy tashkilot barpo qilish kerak.

Tyunen bu g'oyani amalga oshirish uchun xo'jalik bilan shahar yoki bozor o'rtasidagi masofa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxi, qiymati va yer rentasi kabi ko'rsatkichlarga tayanadi. Yer rentasi esa yerga qo'yilgan mablag'lar va undan olinadigan daromad nisbatiga asoslanib belgilanadi. Unga ko'ra, bozordan masofa uzoqlashgan sari yer rentasi kamayadi, chunki tashish xarajatlari ortadi va mahsulotning raqobatbardoshligi pasayadi.

Tyunen nazariyasining amaliy ahamiyati shundan iboratki, u ishlab chiqarishni samarali joylashtirishni hududiy rejalashtirishning nazariy asoslarini belgilab berdi. Tyunenning fikricha, iste'mol markazi atrofida mahsulotlar yetishtirishning ketma-ketligi masofa va iqtisodiy ko'rsatkichlarga bog'liq bo'lib, yaqin hududlarda transport xarajatlari past bo'lgani sababli yuqori qiymatga ega bo'lgan va tez buziladigan mahsulotlar yetishtirilishi lozim. Masofa ortishi bilan esa, uzoqroq joylarda transport xarajatlari oshgani sababli transportga chidamli va uzoq muddat saqlanadigan mahsulotlarga ixtisoslashuv afzal hisoblanadi. Yuqoridagi shartlar yordamida I. Tyunen shahar atrofida qishloq xo'jaligi tarmoqlarining joylashuv tizimini yoki hududiy majmuasini yaratdi. Bu tizim adabiyotda "Tyunen xalqalari" nomi bilan mashhur. Chunki turli mahsulotlarni yetishtirishga ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi tarmoqlari iste'mol markazi atrofida xalqasimon shaklda joylashadi.

"Tyunen xalqalari" tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ▶ birinchi halqa – bog'dorchilik, sabzavotchilik va qisman sut chorvachiligi;
- ▶ ikkinchi halqa – o'rmon xo'jaligi (o'sha davrda o'tin uchun asosiy manba);
- ▶ uchinchi halqa – kartoshka, arpa yetishtirish va urug'chilik;
- ▶ to'rtinchi halqa – yuqori unumdor g'allachilik va sut-go'sht chorvachiligi;
- ▶ beshinchi halqa – g'allachilik;
- ▶ oltinchi halqa – yaylov chorvachiligi.

I. Tyunen birinchi bo'lib yer resurslaridan foydalanish masalalarini ko'tardi va ilmiy adabiyotga "iqtisodiy makon" tushunchasini kiritdi. Olim o'zining abstrakt modelida mahsulotning bozorlarga –

iste'molchilarga arzon narxda va sifatini buzmaganda holda yetkazib berilishini ta'minlashga katta e'tibor qaratdi.

Shu tariqa, I. Tyunen qishloq xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirishning dastlabki ilmiy asoslarini yaratdi va qishloq xo'jaligi geografiyasi fani rivojlanishida muhim poydevor qo'ydi. Uning nazariyasi keyinchalik iqtisodiy geografiya va hududiy rejalashtirish sohasida keng qo'llanilib, bu fanlarning shakllanishiga katta hissa qo'shdi. Shu sababli, I. Tyuneni qishloq xo'jaligi geografiyasining asoschisi sifatida e'tirof etish mumkin.

1909-yilda Tyunennning vatandoshi, nemis iqtisodchisi Alfred Vebber "Sanoat shtandarti to'g'risida" nomli asarini chop etgan. U o'zining diqqat-e'tiborini sanoat ishlab chiqarishini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillarga qaratdi. Shu maqsadda Vebber omillarni ta'sir kuchiga qarab tabaqalashtirdi va asosiy hal qiluvchi omilni aniqladi.

A.Vebber sanoat shtandartining asoschisi hisoblanadi. "Shtandart" esa – korxonaning joylashgan o'rni yoki korxonaning optimal (standart) joylashgan nuqtasi ma'nosini anglatadi. Joylashtirish omili, u yoki bu korxonani qurishda ko'zda tutilgan iqtisodiy samaradorlik va foyda nuqtai nazaridan baholandi. Bu foyda, Vebber fikricha, asosan xomashyo, mahsulotni realizatsiya qilish, transport va ishchi kuchiga ketgan xarajatlar nisbatidan, shuningdek, asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatidan tashkil topadi. Keyinchalik u xomashyo va mahsulotni sotish bilan bog'liq omilni umumiy transport xarajatlariga kiritdi, chunki mahsulotning narxiga xomashyo tashilishi, mahsulotni realizatsiya qilish bilan bog'liq xarajatlar ham ta'sir ko'rsatadi. Natijada, sanoat shtandartini belgilovchi ikkita asosiy omil – transport va ishchi kuchi (mehnat resursi) ajratildi. Vebber keyinchalik ularga yana bir muhim omilni qo'shdi – aglomeratsiya omilini. Transport omiliga mahsulot yoki xomashyoning og'irligi, tashilish masofasi, mehnat resurslarida ish haqi, aglomeratsiya omiliga esa korxonalar bir joyda to'planishining samarasini kiritdi.

A.Vebber ilmiy adabiyotda o'zining "shtandart nazariyasi", "joylashtirish omili" va "aglomeratsiya samaradorligi" tushunchalarini kiritganligi bilan mashhurdir. Aglomeratsiya samaradorligi – bu asl mohiyatiga ko'ra, mujassamlashuv (konsentratsiya) samaradorligi bo'lib, u hozirgi kunda korxonalar yiriklashuvidan, ya'ni miqyos, shkalada iqtisodiy asosda emas, balki korxonalar kooperatsiyasi va ixtisoslashuvi (yoki "xilma-xillik", ya'ni sifat iqtisodiyoti) natijasida

erishiladi. Vebberning bu nazariyalari sanoat joylashuvi va iqtisodiy geografiga katta ta'sir ko'rsatdi va sanoat ishlab chiqarishining samarali joylashuvi uchun muhim ilmiy asos yaratdi.

I. Tyunen (qishloq xo'jaligi) va A. Vebberning (sanoat shtandarti) g'oyalari abstrakt sharoitlarni hisobga olgan holda yaratilgan bo'lsa-da, ularning ilmiy ahamiyati hozirgacha yo'qolmagan. Bu olimlarning g'oyalarini "omillar tahlili" shaklida umumlashtirish mumkin. Omillar esa hududda ayrim joylarni tanlab olish va pirovard natijada hududiy mujassamlashuv va hududiy notekisliklarni yoki geografik tengsizlikni keltirib chiqaradi.

Aholiga xizmat ko'rsatish sohasining hududiy tashkil etish muammolariga oid ishlanmalari nemis olimi Valter Kristallerga tegishli. U 1930-yillarda aholi tarqalishi va joylashuvi masalalarini o'rgangan holda, o'zining "Janubiy Germaniya markaziy o'rinlari" nomli kitobini yozdi. Markaziy o'rinlar turli yiriklikdagi shaharlar va boshqa aholi manzillari bo'lib, ular o'ziga xos ta'sir doirasi va xizmat ko'rsatish radiusiga ega. Ideal holatda, har xil miqyosdagi markaziy o'rinlar geografik muhitda olti burchak shaklga ega bo'lib, ular asalarining uyalari kabi joylashadi. Kristallerning g'oyalariga ko'ra, markaziy o'rinlar o'zaro muloqotda bo'lishi va ma'lum bir miqdordagi xizmatlarni taqdim etishi kerak. Bu o'rinlar orasida, ayniqsa, transport aloqalari va xizmat ko'rsatishning o'zaro bog'liqligi ham muhim ahamiyatga ega. Ularning joylashuvi aholining ehtiyojlarini qondirishga va hududiy iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, markaziy o'rinlar, ularga xizmat ko'rsatish joylarining mutanosibligi va samarali tarqatilishi orqali hududiy tengsizliklarni kamaytirish hamda ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

Shu tariqa, Kristallerning markaziy o'rinlar nazariyasi, hududiy iqtisodiy rivojlanishning samarasini oshirishda va mamlakat ichidagi resurslar va xizmatlarni optimallashtirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, u hududiy rejalashtirish va iqtisodiy geografiya sohasida muhim ilmiy yutuqlarga olib keldi.

Kristaller uchun ham hudud barcha sharoitlar bo'yicha bir xil bo'lishi, ya'ni hudud tepadan-tekis, aholi, aholi manzillari, yo'llar va boshqa omillar bir xil joylashgan. Ana shunday ideal manzaradan kelib chiqqan holda u o'zining ilmiy g'oyasini yaratdi. V. Kristaller nomi bilan "Markaziy o'rinlar", ierarxiya, shaharlar klassifikatsiyasi kabi

tushunchalar, aholi xizmat ko'rsatish sohalarini joylashtirishga oid ilmiy fikrlar bog'liq.

Nemis olimi Avgust Lyosh o'zidan oldingi vatandoshlarining ilmiy ishlanmalarini umumlashtirib (u A. Vebberning o'quvchisi edi), barcha xo'jalik tarmoqlarini joylashtirish to'g'risida ish olib bordi. A. Lyosh g'oyalari mohiyati uning maxsus kitobida (ruscha nomi "Географическое размещение хозяйства" – М. 1959) bayon etilgan. Kitobning asl nusxasi, qo'lyozmasi 1940-yilda nashr qilingan.

A. Lyosh qishloq xo'jaligining areal, maydon sifatida, sanoatning esa nuqtasimon o'rnatilgan hududiy tashkil etish xususiyatlarini asoslab berdi. U birinchi bo'lib "bozor muhiti yoki makoni", "iqtisodiy landshaft" (hozirgi kunda – iqtisodiy rayon) tushunchalarini yaratdi va fanga kiritdi. Agar avvalgilar, xususan I.Tyunen va A. Vebber alohida korxonani, tarmoqni o'rgangan bo'lishsa, A. Lyosh ishlari barcha xo'jalik sohalarini qamrab oldi va o'z mohiyatiga ko'ra mikroiqtisodiy bozor munosabatlari, uning ta'sir doirasi haqiqiy rayon tashkil qiluvchi omil ekanligini ta'kidlagan, matematik usullarni keng qo'llagan. Lyoshning ilmiy ishlanmalari iqtisodiy geografiya, hududiy iqtisodiyot va xususiy iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Uning g'oyalariga asoslanib, turli iqtisodiy tizimlarni o'rganish va tahlil qilishda yangi yondashuvlar paydo bo'ldi, bu esa hududiy ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga va resurslarni optimallashtirishga yordam berdi.

Ishlab chiqarishni joylashtirish jarayonida bir qancha **tabiiy va iqtisodiy omillar** katta ahamiyat o'ynaydi. Bu omillar ishlab chiqarishning samarali tashkil etilishiga, resurslardan oqilona foydalanishga va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga yordam beradi.

► **Xomashyo resurslari** ishlab chiqarishning ko'plab tarmoqlariga, xususan, sanoat va qishloq xo'jaligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, metallurgiya sanoati, tog'-kon qazilmalari, to'qimachilik va boshqa ko'plab sohalar xomashyo resurslariga bog'liq holda rivojlanadi. Xomashyo resurslari ishlab chiqarishni joylashtirishda asosiy omil sifatida ko'rib chiqiladi, chunki resurslarning mavjudligi va ularni samarali ishlatish, tarmoqlarni joylashtirish va ixtisoslashishda juda muhim. Resurslar o'z hududida mavjud bo'lsa, bu tarmoqning rivojlanishi va joylashishi uchun qulay sharoitlar yaratadi. Masalan, temir va rangli metallar qazib olish tarmoqlari tog'-kon qazilmalari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi

va ular faqat ma'lum hududlarda, bu qazilmalarning mavjudligiga qarab rivojlanadi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, masalan, paxta, sholi yoki g'alla ishlab chiqarish uchun ayni hududlarda iqlim va tuproq sharoitlari mos kelishi kerak. Bundan tashqari, xomashyo resurslarini samarali ishlatish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lib, ishlab chiqarish tarmoqlarining ixtisoslashuvini ta'minlaydi. Har bir hududda mavjud bo'lgan xomashyo resurslari, ularni qayta ishlash va ulardan foydalanish tizimining o'ziga xos strategiyalarini ishlab chiqishni talab qiladi. Bu esa ishlab chiqarishning ko'p tarmoqlarini ma'lum bir hududda ixtisoslashtirishni va resurslarni eng samarali tarzda ishlatishni ta'minlaydi.

► **Yoqilg'i va elektroenergetika resurslari** energiya ishlab chiqarish, sanoat tarmoqlari va transport sohalarini rivojlantirish uchun zarur bo'ladi. **Yoqilg'i resurslari**, jumladan, neft, gaz, ko'mir va boshqa energiya manbalari ishlab chiqarish va sanoatni rivojlantirish uchun muhimdir. Ular faqatgina energiya ishlab chiqarishda emas, balki kimyo sanoati, metallurgiya, to'qimachilik va boshqa sanoat tarmoqlarida xomashyo sifatida ham ishlatiladi. Yoqilg'i resurslarining joylashuvi tarmoqni tashkil etishda va uning samarali ishlashida katta ta'sirga ega. Masalan, ko'mir va gaz ishlab chiqarish tarmoqlari ko'pincha tog'-kon qazilmalari bilan boy hududlarda joylashgan. Shuning uchun, ishlab chiqarish tarmog'ining joylashishi bu resurslarning mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatlariga bog'liq.

Elektroenergetika resurslari: Elektroenergetika sanoati energiya ishlab chiqarishning asosi bo'lib, u qishloq xo'jaligi va sanoatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun energiya manbalari (neft, gaz, ko'mir, suv va shamol energiyasi) va elektr stansiyalarining joylashuvi muhim ahamiyatga ega. Elektr energiyasi ishlab chiqarishning markazlashgan va markazlashtirilmagan tizimlari mavjud, va bu tizimlarning joylashuvi yirik sanoat markazlari, shaharlar yoki kichikroq hududlar bilan bog'liq bo'ladi.

Shuningdek, elektroenergetika tarmoqlarining rivojlanishi uchun infratuzilma (masalan, elektr uzatish liniyalari, transformator stansiyalari) zarur. Yoqilg'i va elektroenergetika resurslari ishlab chiqarishni samarali tashkil qilish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda hal

qiluvchi omil bo'lib, ular hududiy va iqtisodiy rivojlanishni shakllantirishda muhim omil sifatida qaraladi.

► **Mehnat resurslari** ishlab chiqarishni joylashtirishda muhim omil bo'lib, har bir hududning iqtisodiy rivojlanishiga, tarmoqlarni tashkil qilishga va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga ta'sir ko'rsatadi. Mehnat resurslari - bu ishchilar, ya'ni insonlarning ishlab chiqarishda qatnashishi uchun mavjud bo'lgan bilim, malaka, tajriba va ishlash qobiliyatlaridir.

Mehnat resurslarining ishlab chiqarishni joylashtirishga ta'siri bir nechta asosiy omillar bilan bog'liq:

Aholi soni va tarqoq joylashuvi: mehnat resurslari miqdori va ularning joylashuvi ishlab chiqarish tarmoqlarining joylashuviga ta'sir qiladi. Katta va zich aholiga ega hududlar, odatda, sanoat, xizmatlar, savdo va boshqa sohalarda rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Aholi zichligi yuqori bo'lgan hududlarda, ayniqsa, poytaxt shaharlarida va yirik sanoat markazlarida mehnat resurslari mavjudligi ko'proq, shuning uchun bu hududlar ishlab chiqarishni joylashtirishda afzalliklarga ega bo'ladi.

Malakali ishchi kuchi: ishlab chiqarish tarmoqlari faqat malakali ishchi kuchiga asoslanadi. Yaxshi ta'lim va kasbiy tayyorgarlikka ega mehnat resurslari ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshiradi. Malakali ishchi kuchining mavjudligi yuqori texnologiyalarni joriy etish, murakkab ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil qilishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, malakali ishchi kuchining mavjudligi va tayyorlanishi ishlab chiqarishni joylashtirishda ustuvor ahamiyatga ega.

Mehnat narxi: hududda mehnat resurslarining narxi ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishga ta'sir qiladigan asosiy iqtisodiy omil hisoblanadi. Agar hududda mehnat kuchi arzon bo'lsa, bu ishlab chiqarishning narxini pasaytiradi va yuqori rentabellikka olib keladi. Shuning uchun ishlab chiqarishni joylashtirishda mehnat narxining pastligi ham muhim omil hisoblanadi.

Ijtimoiy infratuzilma: mehnat resurslarining joylashuvi va ularning samarali ishlashi uchun ijtimoiy infratuzilma, ya'ni uy-joy, tibbiy xizmatlar, ta'lim muassasalari va boshqa xizmatlar zarur. Mehnat resurslarining yuqori sifatini ta'minlash uchun zarur infratuzilmaning rivojlanganligi ishlab chiqarishni joylashtirishga ta'sir qiladi.

Aholining migratsiyasi: hududdagi mehnat resurslarining miqdori va sifatiga aholi migratsiyasi ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan iqtisodiy imkoniyatlar va ish o'rinlari ko'proq bo'lgan hududlarga mehnat resurslari ko'chib o'tadi, bu esa ishlab chiqarishning joylashuvini o'zgartirishi mumkin. Misol uchun, rivojlangan sanoat markazlari va poytaxtlar mehnat resurslarini o'ziga jalb qiladi, bu esa ularning ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashiga olib keladi.

Demak, mehnat resurslari ishlab chiqarishning samarali joylashuvi uchun muhim omil bo'lib, iqtisodiy o'sish, hududiy tenglik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

► **Iste'mol omillari**, asosan, mahsulot yoki xizmatlarga bo'lgan talabni belgilaydi va ishlab chiqarish tarmoqlarining joylashuvini ta'sir etadi. Ushbu omilni hisobga olish orqali ishlab chiqarish jarayonini samarali tashkil etish, mahsulotlarning bozoriga moslashish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin. Iste'mol omillari quyidagi asosiy faktorlar bilan bog'liq:

Bozorning o'lchami va tarkibi: agar bozor katta bo'lsa, ya'ni aholining iste'mol imkoniyatlari yuqori bo'lsa, ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarini shu hududda joylashtirishni maqsadga muvofiq deb bilishadi. Bozor tarkibi esa, mahsulotlarga bo'lgan talabni va uning xilma-xilligini belgilaydi. Misol uchun, texnologik mahsulotlarga bo'lgan talab zamonaviy shaharlarda yuqori bo'lishi mumkin, bu esa texnologik ishlab chiqarish tarmoqlarining shu hududlarda rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Iste'mol darajasi va ehtiyojlar: Hududdagi aholining daromad darajasi va iste'mol qobiliyati ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda muhim omil hisoblanadi. Agar hududda aholining iqtisodiy holati yaxshi bo'lsa va yuqori sifatli mahsulotlarga talab mavjud bo'lsa, ishlab chiqaruvchilar yuqori texnologiyali va sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo'naltiradilar. Iste'mol ehtiyojlarining xilma-xilligi ham hududda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning turini belgilaydi. Har bir hududda turli ehtiyojlar mavjud bo'lishi mumkin, bu esa ishlab chiqarishni joylashtirishda ixtisoslashuvni keltirib chiqaradi.

Bozorning geografik joylashuvi: mahsulot yoki xizmatlarga bo'lgan talabning o'zgarishi hududning geografik joylashuviga ta'sir qiladi. Agar iste'molchilar biror mahsulotni uzoqdan olishni istamasa, ishlab chiqaruvchilar mahalliy bozorlarda faoliyat yuritishga va ishlab

chiqarishni shu hududlarda tashkil etishga intiladilar. Bozorlar geografik jihatdan bir-biridan uzoq bo'lsa, transport xarajatlari va yetkazib berish tezligi ishlab chiqarish tarmoqlarining joylashuviga ta'sir qiladi.

Iste'mol madaniyati va urf-odatlar: iste'mol omillariga madaniyat, urf-odatlar va ijtimoiy odatlar ham ta'sir qiladi. Mahsulotlarga bo'lgan talab ko'pincha hududning madaniy va ijtimoiy xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Misol uchun, ayrim hududlarda mahalliy an'analariga mos mahsulotlar yoki xizmatlar talab qilinishi mumkin. Bunday holatda, ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarini shu hududning madaniyatiga moslashtirishni maqsadga muvofiq deb bilishadi.

Mahsulotni sotish va marketing imkoniyatlari: ishlab chiqaruvchilar mahsulotni sotish va reklama qilish imkoniyatlariga qarab, ishlab chiqarishning joylashuvi va tarmog'ini aniqlashadi. Sotish kanallari, savdo tizimlari va marketing strategiyalari ishlab chiqarishning joylashuviga ta'sir qiladi. Yaxshi rivojlangan savdo tarmoqlari va marketing infratuzilmasiga ega hududlarda ishlab chiqarish tarmoqlari osonroq joylashishi mumkin.

Iste'mol omillari ishlab chiqarishning samarali joylashuvi va bozordagi talabni o'rganish uchun muhimdir. Shu sababli, ishlab chiqarish jarayonida iste'mol omillarini hisobga olish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun zarurdir.

► **Transport tizimi** ishlab chiqarishni joylashtirishda muhim omil hisoblanadi, chunki u ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligi, resurslar va tayyor mahsulotlarning harakatini ta'minlashda, shuningdek, iqtisodiy mintaqalararo aloqalarni o'rnatishda asosiy ahamiyat o'ynaydi. Yaxshi rivojlangan transport tizimi xomashyo va energiya resurslarini ishlab chiqarish joylariga samarali yetkazib berish imkonini yaratadi, bu esa ishlab chiqarishning davomiyligini ta'minlaydi. Transport infratuzilmasining samarali ishlashi mahsulotlarning bozorga vaqtida va arzon yetkazilishini ta'minlaydi, bu esa ishlab chiqaruvchilarga o'z mahsulotlarini raqobatbardosh narxlarda taqdim etishga yordam beradi. Transport tizimining samarali ishlashi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, chunki qisqa va arzon yo'llar orqali mahsulotlarni tashish mumkin bo'ladi. Bundan

tashqari, transport tizimi turli mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi va hududiy ixtisoslashuvni rivojlantiradi.

► **Iqtisodiy geografik o'rin** ishlab chiqarishni joylashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan omil hisoblanadi. Bu omil mamlakat yoki hududning iqtisodiy faoliyatni tashkil etish uchun qulay joylashuvi, ya'ni uning tabiiy resurslari, transport yo'llari, ishlab chiqarish tarmoqlari va iste'mol bozorlariga yaqinligi bilan belgilanadi.

Iqtisodiy geografik o'rinning ahamiyati shundaki, u ishlab chiqarishning samaradorligini, raqobatbardoshligini oshiradi va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga turtki beradi. Shu sababli, ishlab chiqarishni joylashtirishda iqtisodiy geografik o'rinni hisobga olish, barcha resurslardan maksimal darajada foydalanish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun muhimdir. Jo'yning, ayniqsa shaharning iqtisodiy geografik o'ri ko'pincha uning iqtisodiy ixtisoslashuvini belgilab beradi. Masalan, Bekobodda O'zbekiston metallurgiya zavodining joylashtirilganligi, Qo'qonda transport funksiyasining rivojlanganligi, Yangiyer yoki Qarshida qurilish materiallari sanoatining rivojlanish sababi ularning iqtisodiy geografik o'ri orqali izohlash mumkin. Shuningdek, Angren va Olmaliq kabi shaharlarning sanoat markazlariga aylanishida tog'-kon va metallurgiya sohalariga yaqinligi muhim omil bo'lgan. Farg'ona vodiysida paxta-to'qimachilik sanoati va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashning rivojlanishi ham bu hududning iqtisodiy geografik imkoniyatlari bilan bog'liq. Bundan tashqari, Guliston yoki Termizning nisbatan sust rivojlanganligi ularning geografik va geosiyosiy joylashuviga, masalan, yirik sanoat markazlariga nisbatan uzoqligiga bog'liq. Shu bilan birga, Termizning xalqaro savdo va logistika markazi sifatida rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar mavjud.

► **Infratuzilma**, avvalo, transport, energetika, aloqa, suv ta'minoti, kanalizatsiya va boshqa xizmatlarni o'z ichiga oladi. Bu tizimlar ishlab chiqarish tarmoqlari, savdo va xizmat ko'rsatish sektorlarining samarali ishlashini ta'minlashda katta ahamiyat o'ynaydi. Misol uchun, yaxshi rivojlangan transport infratuzilmasi, yo'l, temir yo'l, portlar va aeroportlar orqali tovarlar va xomashyo oqimini tezlashtiradi va ishlab chiqarishni samarali tashkil etishga yordam beradi. Energetika infratuzilmasi esa, ishlab chiqarish jarayonlarida zarur bo'lgan energiya resurslarini ta'minlashga xizmat qiladi. Elektr tarmoqlari, gaz va suv ta'minoti tizimlari sanoat

korxonalarining uzluksiz ishlashini ta'minlaydi. Bundan tashqari, aloqa infratuzilmasi, ya'ni internet va telefon tarmoqlari, axborot almashinuvi va kompaniyalar o'rtasidagi hamkorlikni yaxshilaydi. Samarali infratuzilma ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishiga turtki beradi, yangi ish o'rinlari yaratadi va iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, infratuzilma – bu ishlab chiqarishni joylashtirishni, o'sish va rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydigan asosiy omil bo'lib, har bir ishlab chiqarish tizimining muvaffaqiyatli ishlashi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratadi.

► **Yer-suv resurslari** iqtisodiy faoliyatning samarali amalga oshirilishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni ta'minlaydi. Yerning unumdorligi, tabiiy xususiyatlari, joylashuvi va boshqa omillar mahsulotlarning turini va ishlab chiqarish jarayonini belgilaydi. Qishloq xo'jaligi sohasida, yerning sifatli va unumdorligi mahsulotlarning hosildorligini oshiradi, shuningdek, suv resurslari bilan ta'minlanish esa ekinlar uchun zarur bo'lgan sug'orish imkoniyatlarini yaratadi. Yerning tabiiy sharoitlari, ya'ni uning iqlimi, tuzilishi va yer osti suvlarining mavjudligi, ishlab chiqarishning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Sanoat tarmoqlarida yer resurslari va suv ta'minoti ishlab chiqarish joylarining tanlanishida asosiy omil hisoblanadi. Masalan, neft va gazni qazib olish, tog'-kon sanoati yoki neftni qayta ishlash sanoati uchun maxsus yer talab etiladi. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlari uchun zarur bo'lgan suv resurslari, masalan, sovutish yoki texnologik jarayonlarda foydalanish uchun alohida e'tiborga olinadi.

Aytish joizi, yer va suv resurslarini noto'g'ri ishlatish atrof-muhitni ifloslantirishi, ekologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun, yer-suv resurslaridan foydalanishda ekologik barqarorlikni ta'minlash juda muhimdir. Umuman olganda, yer-suv resurslari ishlab chiqarish tarmoqlarining samarali joylashuvi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda iqtisodiy resurslarning taqsimoti, talab va taklif, raqobat, va boshqa bozor omillari muhim o'rin tutadi. Bozor iqtisodiyoti, asosan, erkin raqobatni qo'llab-quvvatlaydi, shuning uchun ishlab chiqarish tarmoqlarining joylashuvi ham bozorning talab

va taklif asosida shakllanadi. Har bir tarmoqning joylashuvi, ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshirishga, xarajatlarni kamaytirishga, va foyda olishga qaratilgan bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish tarmoqlarining joylashuvini belgilovchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

- **Bozor talab va taklifi:** ishlab chiqarish tarmoqlarining joylashuvi asosan bozortalabiga qarab shakllanadi. Mahsulotlar yoki xizmatlarga bo'lgan talab va uning joylashuvi tarmoqning rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Mahalliy va global bozorga chiqish imkoniyatlari ham ishlab chiqarishni joylashtirishga ta'sir ko'rsatadi.

- **Raqobat:** bozor iqtisodiyoti raqobatni kuchaytiradi. Tarmoqlar orasidagi raqobat ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, narxlarni pasaytirish va sifatni yaxshilashga olib keladi. Shuning uchun, raqobatga bardosh bera olish uchun ishlab chiqarish tarmoqlari o'z joylashuvini va ixtisoslashuvini strategik ravishda tanlashlari zarur.

- **Resurslardan foydalanish:** ishlab chiqarish joylashuidagi omillardan biri – xomashyo, mehnat resurslari, transport tizimi va infratuzilma. Bozor iqtisodiyoti sharoitida resurslarni eng optimal va samarali tarzda taqsimlashga intiladi. Ishlab chiqarish joylashuvi ko'pincha resurslarga yaqin bo'lishi kerak, chunki bu xarajatlarni kamaytirish va mahsulot ishlab chiqarishni tezlashtirishga yordam beradi.

- **Ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi:** bozor iqtisodiyoti ixtisoslashuvni rag'batlantiradi, chunki bu tarmoqlarga bir xil turlarni ishlab chiqarish va ulardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Shu munosabat bilan, bozor talabi va resurslar mavjudligi asosida ishlab chiqarish tarmoqlari o'z ixtisoslashuviga qarab joylashadi.

- **Transport va logistika:** mahsulotlarni yetkazib berish va iste'molchiga yetkazib berish imkoniyatlari bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish tarmoqlarining joylashuvi uchun zarurdir. Shubhasiz, yaxshi rivojlangan transport tizimi mahsulotlarning narxini pasaytirishga va bozorda raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi.

Albatta, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda iqtisodiy qarorlar, bozorning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashish va tarmoqlarni to'g'ri joylashtirish orqali mamlakat iqtisodiyoti samarali rivojlanishi mumkin. Xorijiy mamlakatlarda, ayniqsa Yevropada ishlab chiqarishni joylashtirish nazariyalari bozor

iqtisodiyotning rivojlanish talablariga mos ravishda yaratilgan va amaliyotda keng qo'llanilgan. Ushbu nazariyalarning aksariyati ishlab chiqarish jarayonlarida hududiy resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy faoliyatni optimal joylashtirish masalalariga qaratilgan. Olimlar bu borada turli yondashuvlar va konsepsiyalarni ishlab chiqarishgan. Nemis iqtisodchisi Alfred Veber ishlab chiqarishni joylashtirish nazariyasining asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning "shtandort" nazariyasi sanoat korxonalarining joylashuviga ta'sir etuvchi uchta asosiy omilni belgilaydi: transport xarajatlari, mehnat omili, aglomeratsiya. Veberning nazariyasi Germaniyada va boshqa Yevropa mamlakatlarida industriyalash jarayonining ilk bosqichlarida keng qo'llanilgan.

Yana bir nemis olimi August Lyosh hududiy iqtisodiyotning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Uning tadqiqotlari iqtisodiy faoliyatning joylashuvi va bozor hududlari o'rtasidagi aloqadorlikka qaratilgan. Lyosh ishlab chiqarishning joylashuvi bozor talabiga mos bo'lishi kerakligini ta'kidlab, transport va kommunikatsiya infratuzilmasining ahamiyatini urg'ulagan. Lyoshning konsepsiyasi, ayniqsa, qishloq xo'jaligi va turizm kabi sohalarda iqtisodiy faoliyatni tashkil qilishda dolzarb hisoblangan. Uning fikricha, bozor va ishlab chiqarish markazlari optimal shaklda joylashganda butun iqtisodiyotning samaradorligi oshadi.

Valter Kristallerning markaziy joylar nazariyasi hududiy rivojlanishni tushunishda muhim ahamiyatga ega. Bu nazariya aholi punktlarining ierarxik tizimini va ularning funksional vazifalarini tushuntirib beradi. Unga ko'ra, yirik markazlar kichikroq shaharlar va qishloqlarni o'ziga qaram qiladi va iqtisodiy faoliyat tarmoqlarining joylashuviga ta'sir ko'rsatadi. Kristallerning ishlanmalari Yevropaning turli mamlakatlarida shaharlarni rejalashtirishda va hududiy siyosatni ishlab chiqishda muvaffaqiyatli qo'llanilgan.

Yuqoridagi klassik nazariyalar ishlab chiqarishni joylashtirishning asosiy tamoyillarini belgilab bergan bo'lsa, zamonaviy iqtisodiyotda yangi yondashuvlar shakllangan. Xususan, **Maykl Porterning raqobat ustunligi nazariyasi** (Competitive Advantage Theory) zamonaviy iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni tushuntirishda va biznes strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Porterning yondashuvi mamlakat, tarmoq yoki kompaniyaning global bozorda muvaffaqiyat qozonishiga yordam beruvchi omillarni chuqur tahlil

qilishga asoslangan. U raqobat ustunligini quyidagi asosiy omillar orqali izohlaydi:

1. Faktorlar shart-sharoitlari (Factor Conditions) - bu ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan asosiy resurslar va infratuzilma darajasini anglatadi. Porter bu resurslarni ikki turga ajratadi: asosiy resurslar (tabiiy boyliklar, ishchi kuchi, iqlim) va rivojlangan resurslar (texnologiya, ta'lim darajasi, ilmiy-tadqiqot infratuzilmasi).

2. Ichki talab sharoitlari (Demand Conditions) - mahalliy bozorning talab darajasi va sifat talabchanligi raqobat ustunligini shakllantiruvchi muhim omillardan biridir. Agar mahalliy bozor yuqori talabchan bo'lsa, kompaniyalar raqobatga tayyor va innovatsion yechimlarni taklif qilishga majbur bo'ladi. Mahalliy talab global bozorga mos mahsulotlarni yaratishga turtki beradi.

3. Qo'llab-quvvatlovchi va bog'liq tarmoqlar (Related and Supporting Industries) - muvaffaqiyatli tarmoqlar o'zaro bog'liq yoki qo'llab-quvvatlovchi sohalarning mavjudligi bilan ham belgilanadi. Masalan, avtomobil ishlab chiqarish sanoati rivojlanishi uchun sifatli ehtiyot qismlar va ilg'or texnologiyalarni ta'minlovchi sanoatlar zarur. Porterning fikricha, klasterlarning shakllanishi raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy vositasidir.

4. Strategiya, tuzilma va raqobat (Firm Strategy, Structure and Rivalry) - Porter korxonaning ichki strategiyasi, boshqaruv tizimi va bozordagi raqobat muhiti muvaffaqiyatni ta'minlovchi asosiy omillar ekanligini ta'kidlaydi. Mahalliy bozorda kuchli raqobat global bozorda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur sharoit yaratadi.

Porter klasterlarni raqobat ustunligining eng muhim elementlaridan biri deb biladi. **Klaster nima?** Klaster - bu geografik jihatdan yaqin joylashgan, bir-biriga bog'liq bo'lgan kompaniyalar, yetkazib beruvchilar, qo'llab-quvvatlovchi sohalar va institutlar majmuasi. Klasterlashning afzalliklari: innovatsiyalarni tezroq joriy qilish, ishlab chiqarish zanjiri va xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish, yangi korxonalar va ish o'rinlarini yaratish.

Porterning nazariyasi ko'plab mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda qo'llaniladi. **AQSh** Silikon vodiysi yuqori texnologiyalar klasteri bu nazariyaning muvaffaqiyatli amaliy misoli, **Janubiy Koreya** elektronika va avtomobil sanoatida, xususan, Samsung va Hyundai kompaniyalari raqobat ustunligiga Porter tamoyillari asosida erishgan yoki **Germaniya** mashinasozlik va


avtomobil sanoatida, masalan, BMW va Mercedes-Benz kompaniyalari o'z klasterlaridan samarali foydalanib, global bozorda yetakchi mavqeini saqlab qolmoqda. Porterning nazariyasi bugungi globallashgan va raqamli iqtisodiyotda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Yuqoridagi fikr va mulohazalaridan kelib chiqqan holda, ishlab chiqarishni joylashtirish nazariyalari iqtisodiy faoliyatning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Alfred Veber, August Lyosh va Valter Kristallerning ishlanmalari sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida amaliy qo'llanilgan. Zamonaviy sharoitda esa ushbu nazariyalar yangi omillar - raqamli infratuzilma, ekologik talablar va globalizatsiya ta'siri bilan uyg'unlashgan holda rivojlanmoqda.

Tabiiy resurslardan samarali foydalanish iqtisodiy geografiyaning muhim jihatlaridan biridir. Shubhasiz, iqtisodiy geografiya resurslarning joylashuvi, ularning taqsimlanishi, va ularni qanday samarali ishlatish haqida o'rganadi. Tabiiy resurslar, masalan, yer, suv, xomashyo, energiya manbalari, va boshqa tabiiy boyliklar iqtisodiy rivojlanishning asosi hisoblanadi. Ularning samarali va barqaror foydalanilishi mamlakatlar va mintaqalarning iqtisodiy o'sishi, ekologik holati va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Tabiiy resurslardan samarali foydalanishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

► **Resurslarni optimallashtirish:** Tabiiy resurslardan samarali foydalanish uchun ularni optimal miqdorda va samarali tarzda ishlatish zarur. Bu, o'z navbatida, resurslarning cheklanganligi va ularning tugab ketishining oldini olishga yordam beradi. Masalan, yer resurslari, suv resurslari va xomashyo tarmoqlaridan resurslar miqdorini cheklash, ularni tejash va qayta tiklash muhim ahamiyatga ega.



3-rasm. Tabiiy resurslar klassifikatsiyasi

► **Barqaror rivojlanish:** Barqaror rivojlanish tamoyili tabiiy resurslardan uzoq muddatli va ekologik jihatdan xavfsiz foydalanishni ta'minlaydi. Ushbu tamoyil, resurslarning ekologik ta'sirini kamaytirish, ularni qayta tiklash, va kelajak avlodlar uchun zaxiralarni saqlashga qaratilgan.


► **Ekologik ta'sirni kamaytirish:** Tabiiy resurslardan samarali foydalanishning yana bir muhim jihatini ekologik barqarorlikni ta'minlashdir. Iqtisodiy geografiya tabiiy resurslarni ishlatishda yuzaga keladigan ekologik muammolarni, masalan, ifloslanishni, tuproqning yemirilishini va biologik xilma-xillikning yo'qolishini o'rganadi. Bu muammolarni hal qilish uchun resurslardan foydalanishni boshqarish zarur.

► **Resurslarning mintaqaviy taqsimlanishi:** Tabiiy resurslar mamlakatning turli hududlarida turlicha joylashgan. Iqtisodiy geografiya bu resurslarning joylashuvini o'rganib, ularni samarali tarzda joylashtirishga yordam beradi. Resurslarni joylashtirishda mahalliy resurslarning mavjudligi va hududiy ixtisoslashuv hisobga olinadi. Masalan, neft va gaz zahiralarini ayrim hududlarda, qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan erlar boshqa hududlarda joylashgan bo'lishi mumkin.

► **Qayta tiklanadigan va qayta tiklanmaydigan resurslar:** Tabiiy resurslar ikki asosiy turga bo'linadi: qayta tiklanadigan va qayta

tiklanmaydigan. Qayta tiklanadigan resurslar (masalan, quyosh nuri, shamol, suv resurslari) uzoq muddatda ham foydalanishga yaroqli bo‘lib, barqaror foydalanish imkonini beradi. Qayta tiklanmaydigan resurslar (masalan, qazilma boyliklar) cheklangan va ularni ishlatishda ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur.

Misol uchun, O‘zbekiston hukumati 2030-yilga borib umumiy energiya sarfining 21 foizini muqobil energiya manbalarini (MEM) hissasiga yetkazishni maqsad qilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun mamlakatda MEM rivojlanishini rag‘batlantiruvchi va tartibga soluvchi me‘yoriy qonun hujjatlari va qarorlar ishlab chiqilgan.



4-rasm. O‘zbekistonning quyosh energiyasidan foydalanish imkoniyati

Shubhasiz, zamonaviy texnologiyalar tabiiy resurslarni ishlatishni yanada samarali qilishga, energiya tejamkorligini oshirishga, va qayta tiklanadigan resurslardan foydalanishni kengaytirishga imkon yaratadi. Yangi texnologiyalar yordamida resurslardan foydalanishning ekologik ta‘sirini va chiqindilarni kamaytirish mumkin.

Haqiqatan ham, hozirgi kunda ekologik omil xo‘jalik tarmoqlarini joylashtirishda yetakchi ahamiyat kasb etmoqda, chunki tabiatning sof hududlari tobora kamayib bormoqda. Hozirgi davrda global muammo sifatida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish dolzarb masalaga aylandi. Sanoat, qishloq xo‘jaligi va transport kabi asosiy tarmoqlar ekologik vaziyatga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. N.N.Kolosovskiyning


chiqindisiz texnologik jarayonlar konsepsiyasidan foydalanish bu sohada muhim samara berishi mumkin.

Savollar:

1. Tabiiy va iqtisodiy omillarning ishlab chiqarishni joylashtirishga ta'sirini misollar bilan tushuntiring.
2. Transport infratuzilmasi ishlab chiqarish korxonalarining joylashuvi uchun qanday ahamiyatga ega?
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish tarmoqlarini hududiy tashkil etish xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Ishlab chiqarishni joylashtirishda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillar o'rtasidagi muvozanatni qanday ta'minlash mumkin?
5. Tabiiy resurslardan samarali foydalanishning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?

Topshiriqlar:

1. Tabiiy va iqtisodiy omillarni hisobga olgan holda, mintaqangizda qaysi ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish mumkinligini aniqlang.
2. Ishlab chiqarish korxonalari joylashgan hududda atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish uchun qanday ekologik chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin?
3. Hududingizning geografik joylashuvi va iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha strategik takliflar bering.



1. Hududiy mehnat taqsimoti – geografiyaning “hujayrasi”.
2. A.Smit va D.Rikordolarning xalqaro mehnat taqsimoti bo'yicha nazariy fikrlari.
3. Hududiy mehnat taqsimotini shakllantiruvchi omillar va uning darajalari.

Har bir fanning o'ziga xos tushuncha va qonuniyatlari boladi. Iqtisodiy geografiyada ular: hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayonlashtirish, hududiy ishlab chiqarish majmualari va iqtisodiy geografik o'rin hisoblanadi.

Hududiy mehnat taqsimoti - iqtisodiy geografiyaning asosiy, fundamental tushunchasi hisoblanadi. Chunki ushbu fanning qolgan barcha tushunchalari, hududiy mehnat taqsimoti bilan bog'liq. Hududiy mehnat taqsimotini iqtisodiy geografik jarayon, uning natijasida vujudga kelgan rang-barang iqtisodiy makonni, ishlab chiqarishning hududiy tarkibini, «areal, nuqta va chiziqlarning» o'zaro munosabatini iqtisodiy geografik vaziyat yoki holat sifatida ko'rish mumkin. Masalan, *hududiy mehnat taqsimoti fanning fundamental tushunchasi, rayon yoki rayonlashtirish – birlamchi, hududiy majmualar – konstruktiv va iqtisodiy geografik o'rin mazkur fanning o'ziga xos kalit tushunchasidir.* Quyida bu tushunchalarning har biriga qisqacha to'xtalib o'tiladi.

Dastlab hududiy (xalqaro) mehnat taqsimoti ta'limotini ingliz klassik iqtisodchilari A.Smit va D.Rikardolar yaratgan. Ular **merkantilizmga** qarshi ochiq, erkin savdo, ya'ni **fritredizm** g'oyasini oldinga surishgan. Bu g'oyaning asosiy mohiyati har bir mamlakat yoki mintaqa o'zida nisbatan qulay va arzon mahsulotlarni chetga chiqarib, bu yerda ishlab chiqarish xarajatlari ko'p va qimmat mahsulotlarni sotib olishdan, import qilishdan iboratdir. Bunday fikrlash asosida *mutlaq va nisbiy (qiyosiy) qulaylik yoki afzallik* yotadi. Xuddi shunga o'xshash g'oya ishlab chiqarish omillari nuqtai nazaridan shved iqtisodchilari E.Xeksher va B.Olinlar tomonidan ham yaratilgan. Buning ma'nosi– har bir mamlakat o'zida arzon omil mahsulotini chiqarib, qimmat omil mahsulotini chetdan keltirish demakdir



5-rasm. A. Smit (1723-1790)



6-rasm. David Rikardo
(1772-1823)

Ko‘rinib turibdiki, hududiy mehnat taqsimoti har bir joyning o‘zida qulay va arzon bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini anglatadi. Ixtisoslashuv esa yaratilgan mahsulotning miqdor va sifat jihatidan yaxshi, uni mahalliy bozorlarni qondirgan holda boshqa mintaqaviy, xalqaro va jahon bozoriga chiqarish imkoniyatini nazarda tutadi yoki raqobatbardoshligini bildiradi. Aynan shu ma’noda hududiy mehnat taqsimoti tashqi savdo yuritishning asosi bo‘lib xizmat qiladi, savdo esa, iqtisodchilar fikricha, har qanday boylikning yaratuvchisidir.

Hududiy mehnat taqsimoti mamlakat va rayonlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichi, belgisi bo‘lib xizmat qiladi. U qay darajada keng tashkil qilingan, diversifikasiyalashtirilgan (ya’ni turlangan) bo‘lsa, mamlakat ham shuncha rivojlangan bo‘ladi. Ayni vaqtda hududiy mehnat taqsimotining rivojlanmaganligi mamlakatda intensiv emas, ekstensiv iqtisodiyot yo‘nalishi mavjudligi, uning ichki salohiyatidan to‘la foydalanmaslik va hudud iqtisodiy zichligining (sig‘imining) pastligini aks ettiradi. Hududiy mehnat taqsimoti rivojlanmagan sharoitda mamlakatning iqtisodiy makoni to‘laligicha shakllanmaydi, uning geosiyosiy va iqtisodiy xavfsizligi ta’minlanmaydi, iqtisodiy landshafti zaif va qutbiylashmagan bo‘ladi.

Avvallari, hududiy mehnat taqsimotining shakllanishida asosan ichki omillarga, “Butunittifoq yoki umumittifoq” imtiyozlarga urg‘u berilardi. Hozir esa bu jarayonni, eng avvalo, bozor qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda tashkil qilish talab etiladi. Demak, hududda faqat nima yetishtirish qulayligi emas, balki yaratilgan mahsulotning bozor talabiga mosligi, sifati, xaridorgirligi, raqobatbardoshligi muhimdir.

Albatta, “bozorbop” mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun ichki imkoniyatlar, shart-sharoitlar, qulay investisiya muhiti ham mavjud bo‘lishi kerak. Aks holda hudud-mamlakat yoki mintaqaning iqtisodiy faolligi yuzaga kelmaydi. Bu xususda, avvalambor, tabiiy sharoit va tabiiy boyliklarning ahamiyati katta. Biroq, ta’kidlash joizki, *tabiiy boyliklarning miqdori emas, ularning turli-tumanligi hududiy mehnat taqsimotini keng rivojlantirishga imkon beradi.* Binobarin, tabiiy boyliklarning hududiy birikmalari, majmualari mamlakatda xo‘jalikni har tomonlama tashkil qilishga sababchi bo‘ladi.

Hududiy mehnat taqsimoti rivojlanishining yana boshqa bir omili transportdir. Transport iqtisodiy muhitning “qon tomiri”, harakatlantiruvchi kuchi, tashqi miqyosda esa mahsulot ayirboshlash, savdo-sotiq yurgizishning asosiy shartidir. Shuningdek, hududiy

mehnat taqsimotida ishchi kuchi, mamlakatning geosiyosiy va geoiqtisodiy oʻrni, ekologik holati, siyosiy barqarorligi, investisiya va infratuzilma, fan-texnika taraqqiyoti kabi omillar ham ahamiyatlidir.

Yuqoridagilardan maʼlum boʻladiki, hududiy mehnat taqsimotini amalga oshirishda uchun ham tashqi, ham ichki sharoitlar muhim rol oʻynaydi va faqat bu ikki tomonning oʻzaro muvofiqlashgan holatidagina u yaxshi iqtisodiy samara beradi. Shu bilan birga, hududiy mehnat taqsimoti mahalliy-ichki ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilish, mamlakatning jahon hamjamiyati, xalqaro mehnat taqsimotida faol qatnashish maqsadlari ham bir-biri bilan uzviy bogʻliq holda amalga oshirilishi kerak.

Yuzaki qaraganda, hududiy mehnat taqsimoti oʻz mohiyatiga koʻra mamlakat yoki jahon xoʻjaligini hududiy boʻlaklarga ajratadi, regionlashtiradi, chunki hududlar rivojlanishi, ixtisoslashuvi individuallashtadi, “qoʻshnisida” yoki koʻpgina boshqa joylarda rivojlanmagan sohalarga ustuvor ahamiyat beriladi. Ammo bunday tor darajada qarash masalaning faqat bir tomonini ifodalaydi, xolos. Sababi-hududiy mehnat taqsimoti mamlakat va rayonlar xoʻjaligini ajratish asosida ularning oʻzaro iqtisodiy aloqalariga, integrasiya jarayonlariga erishiladi. Bu har qanday taraqqiyotning qonuniyatidir, qolaversa, hudud xoʻjaliklari tarqoq, qovushmagan (amorf) mamlakatda milliy iqtisodiyot bir butun, yagona tizim shaklida boʻlmaydi. Xalqaro miqyosda esa jahon xoʻjaligi ham vujudga kelmaydi.

Hududiy mehnat taqsimotining turli darajalari, bosqichlari mavjud. Ularni ikki yirik guruhga ajratish mumkin: jahon miqyosidagi hamda davlatlarning ichki mehnat taqsimoti. Oʻz navbatida, ular ham bir necha bosqichlarga boʻlinadi. Masalan, birinchi guruhda jahon mamlakatlari va xalqaro, yaʼni alohida mamlakatlararo mehnat taqsimoti ajratiladi. Barcha mamlakatlar orasidagi iqtisodiy munosabatlar jahon xoʻjalik tizimi va bozorini vujudga keltiradi, alohida mamlakatlarning iqtisodiy integrasiya jarayonlari esa yirik mintaqalar iqtisodiy hamkorligi va bozorlarni shakllantiradi.

Hududiy mehnat taqsimotining shakllanishiga qator omillar taʼsir qiladi. Ularga tabiiy sharoit va tabiiy boyliklar, aholi va mehnat resurslari, iqtisodiy geografik oʻrin, bozor iqtisodiyoti (talab va taklif munosabati) kabilar kiradi. Jumladan, tabiiy sharoit va tabiiy resurslarning turli tumanligi mamlakat yoki mintaqada xoʻjalik

yuritishning turli yo‘nalishlarini vujudga kelishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Tog‘, voha va vodiylar, cho‘l, o‘rmonzor, issiq iqlim yoki qurg‘oqchilikda shularga mos holda iqtisodiyot ixtisoslashuvi ham turlicha bo‘ladi. Faraz qilaylik, agar O‘zbekiston hududi (tabiati) faqat Qizilqum cho‘llari yoki Ustyurt platosi yoki faqat Farg‘ona vodiysidek bo‘lganda, ehtimol, xo‘jalik tizimi ham ancha bir tomonlama bo‘lar edi.

Hududiy mehnat taqsimotining bir necha bosqichlari (darajalari) mavjud:

- xalqaro mehnat taqsimoti;
- mamlakatlararo mehnat taqsimoti;
- mamlakat ichidagi mehnat taqsimoti;
- yirik iqtisodiy mintaqalar (viloyatlararo) doirasidagi mehnat taqsimoti;
- viloyat ichidagi (quyi ma'muriy rayonlar yoki tumanlararo) mehnat taqsimoti; — mahalliy mehnat taqsimoti (qishloq tumanlari doirasida).

Davlat ichidagi mehnat taqsimoti quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

1. Yirik iqtisodiy rayonlararo mehnat taqsimoti;
2. Viloyat va boshqa turdagi ma'muriy-hududiy birliklar o‘rtasidagi mehnat taqsimoti;
3. Viloyat ichidagi mehnat taqsimoti;
4. Mahalliy mehnat taqsimoti.

Bu darajadagi hududiy mehnat taqsimotining tarkibiy tuzilishi mamlakatlar maydonining katta-kichikligi, ijtimoiy-siyosiy vaziyatga ham bog‘liq. Jumladan, sobiq Ittifoq va jahon socialistik tizimining barham topishi hududiy mehnat taqsimotining barcha bosqichlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi, socialistik mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar (o‘zaro iqtisodiy yordam kengashi), Umumittifoq mehnat taqsimoti yo‘qoldi.

Siyosiy tizimning tubdan o‘zgarishi, iqtisodiyotni tashkil etish va boshqarishda markazlashgan ma'muriy-buyruqbozlik, socialistik rejalashtirish tizimidan ochiq va erkin bozor munosabatlariga o‘tish o‘ziga xos, muvaqqat muammolarni yuzaga keltirdi. Masalan, sobiq ittifoqdosh respublikalar o‘rtasidagi (gorizontal) iqtisodiy aloqalarning buzilishi oqibatida barcha respublikalar-yangi mustaqil davlatlar ayrim qiyinchiliklarga duch keldi. Ayniqsa, bu muammo yuqori darajada rivojlangan, sanoatlashgan respublikalarda keskin tus oldi, chunki

mazkur hududlardagi sanoat, asosan og'ir sanoat tarmoqlari ko'p jihatdan tashqi omillarga, mamlakatlararo iqtisodiy integrasiyaga bog'liq bo'lgan. Qisman bunday qiyinchiliklarni O'zbekistondagi yirik sanoat markazlarida ham ko'rish mumkin. Ma'lumki, hozircha Toshkentdagi yirik mashinasozlik korxonalari, Chirchiq, Angren sanoatining rivojlanish holati uncha yaxshi emas.

Ayni vaqtda milliy va mintaqaviy iqtisodiyot ko'proq agrosanoat majmuasi bilan bog'liq bo'lgan hududlarda "Umumittifoq" mehnat taqsimotining yo'qolishi katta muammolarga olib kelmadi. Sababi-bu joylarning xo'jaligi asosan ichki omillarga, mahalliy tabiiy sharoit, ishchi kuchi, oddiy texnologiyalarga asoslangan edi.

Siyosiy mustaqillikka erishgan mamlakatlarda iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish ularning ichidagi mehnat taqsimotini zaruriyat qilib qo'ydi. Chunki, ilgari tizimda respublikalar iqtisodiy makoni ichki jihatdan turlanmagan, asosan muayyan mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yoki xomashyo bazasiga yo'naltirilgan bo'lgan. Natijada, siyosiy mustaqillikni iqtisodiy jihatdan mustahkamlash muammosi eng dolzarb bo'lib qoldi. Iqtisodiy mustaqillik esa makroiqtisodiy sohada yoqilg'i-energetika, oziq-ovqat (don), yo'l-transport tizimini jadal rivojlantirish, mamlakat ichki salohiyatidan to'laroq foydalanish, mintaqalarning bozor munosabatlariga tezroq moslashuvi, ularning iqtisodiy faolligini oshirishni taqozo etdi.

Hududiy mehnat taqsimoti qaysi bir ma'noda o'ziga xos *iqtisodiy geografik jarayon* sanaladi; uning natijasida yangi yerlar o'zlashtiriladi, yangi xo'jalik tarmoqlari shakllanadi, iqtisodiyotning tarmoqlar va hududiy tarkibida o'zgarishlar yuz beradi, shahar va iqtisodiy rayonlar, o'sish qutb va markazlari vujudga keladi. Aynan shuning uchun ham *hududiy mehnat taqsimoti iqtisodiy geografiya fanining fundamental tushunchasi hisoblanadi*. Chunki, bu fanning qolgan barcha tushunchalari bevosita yoki bilvosita hududiy mehnat taqsimotidan kelib chiqadi.

Bamisoli katta oilada ota-ona, turli yosh va jinsdagi bolalar kundalik yumushda har birlari o'zlariga biriktirilgan yumushlarni bajarganlaridek, mamlakat ichidagi mehnat taqsimoti ham uning iqtisodiy jihatdan butligi va birligi, mustahkamligi va mustaqilligini bildiradi. Shu bois, hududiy mehnat taqsimoti mamlakatlar ijtimoiy-

iqtisodiy rivojlanganligini ko'rsatuvchi muhim geoindikator vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, hududiy mehnat taqsimotining quyidagi jihat yoki xususiyatlarini ko'rsatish mumkin:

✓ hududiy mehnat taqsimoti iqtisodiy geografiya fanining asosiy tushunchasi;

✓ uning shakllanishi va rivojlanishi mamlakat yoki rayonlar yetukligini belgilovchi ko'rsatkich;

✓ hududiy mehnat taqsimoti rivojlanishida tabiiy sharoitning turli tumanligi, tabiiy resurslarning hududiy birikmalari katta ahamiyatga ega;

✓ hududiy mehnat taqsimoti muayyan hududga muayyan mahsulotlar ishlab chiqarishni anglatadi;

✓ hududiy mehnat taqsimotida ixtisoslashuv asosiy omil hisoblanadi va u, albatta, ichki va tashqi bozorda tovar almashinuvini nazarda tutadi;

✓ hududiy mehnat taqsimoti rivojlanishida transportning o'zining katta va bu bevosita tashqi iqtisodiy aloqalarni ham vujudga keltiradi;

✓ hududiy mehnat taqsimoti bilan milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning diversifikasiyalashuvi bog'liq;

✓ hududiy mehnat taqsimoti iqtisodiy rayonlar shakllanishining moddiy negizi sanaladi va h.k.


Savollar:

1. Hududiy mehnat taqsimoti nima?
2. Merkantilizm va fritredizm g'oyalarini asoslang.
3. Hududiy mehnat taqsimotini rivojlantiruvchi omillarni ayting.
4. Davlat ichidagi mehnat taqsimoti qanday bosqichlardan tashkil topgan?
5. Tabiiy resurslarning mavjudligi hududiy mehnat taqsimotiga qanday ta'sir qiladi?

Topshiriqlar:

1. Hududiy mehnat taqsimoti misolida o'z mamlakatingizning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qiling.
2. Merkantilizm va fritredizm asosida xalqaro savdning afzallik va kamchiliklarini taqqoslang.
3. I.Tyunen, A.Vebber yoki A.Lyoshing nazariyalaridan foydalanib, hududiy mehnat taqsimotining amaliy ahamiyatini yozma ish shaklida asoslang.

4. Hududiy mehnat taqsimotini rivojlantirish uchun takliflar ishlab chiqing va ularni iqtisodiy asoslang.



1. Iqtisodiy rayonlashtirish iqtisodiy geografiyaning asosi ekanligi.

2. Iqtisodiy rayonlashtirish omillari.

3. O‘zbekistonning iqtisodiy rayonlari.

Iqtisodiy rayon - bu tabiiy va iqtisodiy sharoitlari o‘xshash bo‘lgan, xalq xo‘jaligining tarixiy rivojlanishi natijasida shakllangan va ixtisoslashgan ishlab chiqarish tarmoqlariga ega hududiy birlikdir. Iqtisodiy rayon mamlakatning hududiy-ishlab chiqarish majmuidan iborat bo‘lib, iqtisodiyotning ma‘lum tarmog‘iga qaratilgan faoliyatlarni tashkil etadi.

Ko‘pincha iqtisodiy rayonlar iqtisodiy-geografik rayonlar deb ham ataladi. Aslida, ular orasida mazmunan jiddiy farq mavjud emas, chunki har qanday rayon geografik joylashuv va sharoit bilan bog‘liq. Shu sababli “geografiya” atamasini alohida ta’kidlash ko‘pincha ortiqcha hisoblanadi. Xuddi hududiy joylashtirish jarayonida “geografiya” so‘zi har doim muhim bo‘lmaganidek, iqtisodiy rayonlashtirishda ham bu atama shart emas.

Iqtisodiy rayonlar hududiy mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv natijasida shakllanadi. Hududiy mehnat taqsimoti ma‘lum bir hududning tabiiy resurslari va iqtisodiy sharoitlariga qarab ixtisoslashuvni belgilaydi. Bu jarayon natijasida mamlakat iqtisodiyotining hududiy tarkibi vujudga keladi. Ammo iqtisodiy rayonlarning shakllanishi faqatgina iqtisodiy omillar bilan cheklanmaydi. Hududiy tarkib quyidagilarga asoslanishi mumkin:

- Ma‘muriy-hududiy birliklar (viloyatlar, tumanlar).
- Tabiiy-geografik omillar (relyef, iqlim, tuproq).


- Hidrografik xususiyatlar (daryolar, ko‘llar).

Har bir iqtisodiy rayon o‘zining yetakchi, asosiy xo‘jalik tarmoqlariga ega bo‘lib, bu tarmoqlar iqtisodiy rayonning iqtisodiy qiyofasini belgilaydi, ayni paytda, har bir iqtisodiy rayonda shu rayonning yetakchi xo‘jalik tarmog‘iga xizmat qiladigan, uni to‘ldiradigan yordamchi tarmoqlar ham bo‘ladi. Iqtisodiy rayondagi asosiy omil hududiy ijtimoiy mehnat taqsimotidir. Shu taqsimot tufayli ayrim rayonlar ishlab chiqarishning ma‘lum tarmoqlari bo‘yicha ixtisoslashadi, rayon doirasida va rayonlararo iqtisodiy aloqalar amalga oshadi. Ilmiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan iqtisodiy rayonlar xalq xo‘jaligi sohalarini rivojlantirish va uni to‘g‘ri boshqarishga yordam beradi, milliy xo‘jalik tizimining hududiy tuzilmasini qulaylashtirishga, davlatning mintaqaviy siyosati vazifalarini hal etishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy rayonlar mintaqaviy iqtisodiyot va mintaqaviy siyosatning obyekti hisoblanadi. Agar ilgari iqtisodiy rayonlashtirish xalq xo‘jaligini planlashtirish maqsadida ajratilgan bo‘lsa, hozirgi sharoitda ular ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilishning asosiy shakli, davlat mintaqaviy siyosatining obyekti, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni tartibga solib borish va boshqarish uchun zarur. Qolaversa, iqtisodiy rayonlarsiz mamlakat xo‘jaligi ichki tuzilishi, hududiy tarkib va tizimini geografiyasini o‘rganish ham qiyin.

Iqtisodiy rayonga bo‘lish ishlari ko‘pgina mamlakatlarda, shu jumladan, AQSH, Fransiya, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda ham amalga oshirilgan. O‘zbekistonda mamlakat hududini iqtisodiy rayonlarga bo‘lish bo‘yicha dastlabki ishlar istiqbolni rejalashtirish bilan bog‘liq holda O‘zbekiston FA Iqtisodiyot institutida 60-yillar boshida amalga oshirilgan. Bunga qadar G.N.Cherdansev, N.G.Sapenko, V.M.Chetirkinlarning ilmiy ishlarida respublika hududini iqtisodiy rayonlarga bo‘lish masalalari bo‘yicha ayrim qarashlar olg‘a surilgan. Keyinchalik, 80-yillar boshlarida O‘zbekiston FA Iqtisodiyot instituti va Ishlab chiqaruvchi kuchlarni o‘rganish kengashi tomonidan bu ish davom ettirildi, respublika hududini iqtisodiy rayonlashtirishni takomillashtirish ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish va joylashtirishning uzoq muddatli istiqbollari ehtiyojlari, ilmiy-texnika progressining kompleks dasturini ishlab chiqish bilan bog‘liq holda olib borildi. Iqtisodiy rayon muammolari va uni hal qilish bo‘yicha takliflar olimlardan S. K. Ziyodullayev, K. N. Bedrinsev va boshqalarning asarlarida yoritildi.

Aynan ana shu maqsadlarda iqtisodiy rayonlashtirishning amaliy ahamiyati yanada oshib bormoqda. Masalan, Rossiya Federasiyasida 11 ta yirik iqtisodiy rayonlar negizida yettita federal okruglar ajratilgan.



7 – rasm. Rossiyaning iqtisodiy geografik rayonlari

O‘zbekistonda iqtisodiy rayonlashtirish mamlakatni samarali boshqarish va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun muhimdir. Bu jarayon hududlarning tabiiy va iqtisodiy resurslariga mos ravishda ixtisoslashuvini belgilash, xalq xo‘jaligini rejalashtirish va davlatning hududiy siyosatini amalga oshirishga yordam beradi. Iqtisodiy rayonga bo‘lish ishlari ko‘pgina mamlakatlarda, jumladan, AQSh, Fransiya, Germaniya kabi rivojlangan davlatlarda muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Ushbu jarayon hududlarning tabiiy va iqtisodiy resurslariga mos ravishda ixtisoslashuvini ta‘minlab, resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilish imkonini beradi. Shuningdek, iqtisodiy rayonlashtirish hududlararo iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish, iqtisodiy farqlarni kamaytirish va milliy iqtisodiyotning hududiy tuzilmasini rivojlantirishda muhim ahamiyat o‘ynaydi.

Iqtisodiy rayonlashtirish mamlakat hududining kattaligi yoki kichikligiga bog‘liq emas, eng muhimi, iqtisodiy makon ichki jihatdan turlangan va hududiy mehnat taqsimoti rivojlangan bo‘lishi kerak. Hududiy tafovutlar qanchalik katta bo‘lsa, iqtisodiy rayonlar to‘ri va tizimi ham shuncha rivojlangan bo‘ladi. Masalan, maydoni juda katta bo‘lgan Avstraliya mamlakatida asosan 4 ta iqtisodiy rayon ajratiladi,

garchi Yevropa kabi maydoni kichikroq hududlarda bir nechta iqtisodiy rayonlar shakllangan.

Iqtisodiy rayonlarning turlari va shakllari turlicha bo'lib, ular mamlakatning butun hududini yoki alohida qismlarini o'z ichiga olishi mumkin. Ayrim mamlakatlarda iqtisodiy rayonlar yagona hududga ajratilgan bo'lsa, boshqalarida esa diskret holda, ya'ni bir-biridan mustaqil ravishda ajratiladi. Buning o'zi mamlakatning iqtisodiy tuzilishi va hududiy farqlari bilan bog'liq. Iqtisodiy rayonlar, shuningdek, umumiy (integral) va tarmoq rayonlariga bo'linadi. Bundan tashqari, mamlakat hududi ijtimoiy-iqtisodiy va sosial rayonlarga ham ajratilishi mumkin. Ijtimoiy-iqtisodiy rayonlar, odatda, iqtisodiy rayonlarga nisbatan kichikroq, ammo ular ma'lum bir hududdagi ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Sosial rayonlar esa, o'z navbatida, eng kichik hududiy birliklar bo'lib, ijtimoiy va iqtisodiy omillar bilan bir qatorda, insonlar turmush tarziga ta'sir ko'rsatadigan boshqa omillarni ham inobatga oladi. Bunday farqlar turli xil rayon hosil qiluvchi omillarga bog'liq. Iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy omillar, shuningdek, mintaqaviy boshqaruv tizimlari va mamlakatning umumiy iqtisodiy strategiyasi har bir rayonning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy rayonlar turli omillarga qarab ajratiladi. Ular quyidagilar:

- Hududiy mehnat taqsimoti va hududiy ixtisoslashuv;
- Bozorga mo'ljallangan tovar mahsulot ishlab chiqarish, bozor makonining shakllanganligi;
- Tabiiy sharoit va qazilma boyliklar, ularning hududiy birikmalari;
- Aholi va mehnat resurslari;
- Rayon hosil qiluvchi va uni tashkil etuvchi markazning yoki markazlarning mavjudligi;
- Iqtisodiy geografik o'rin;
- Transport to'rtining rivojlanganligi;
- Mintaqaviy infratuzilma va investitsiya muhitining shakllanganligi va h.k.

Barcha rayon hosil qiluvchi omillar va tamoyillar ikki katta guruhga bo'linadi: iqtisodiy va hududiy (geografik) omillar. Iqtisodiy omillar bozor iqtisodiyoti, mujassamlashuv, ixtisoslashuv, kompleks rivojlanish va transport tizimlariga asoslanadi. Ushbu omillar ishlab

chiqarishning samarali taqsimlanishi va iqtisodiy faollikning mintaqaviy yondashuvini ta'minlashga yordam beradi.

Hududiy yoki geografik omillar esa tabiiy sharoitlar, tabiiy boyliklar, infratuzilma, aholi joylashuvi va geografik o'rin kabi elementlardan iborat. Ushbu omillar hududning tabiiy resurslari va mavjud imkoniyatlarini hisobga olib, iqtisodiy faoliyatni shakllantiradi va mintaqaviy rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Bu ikki asosiy qismning birligi, ya'ni "iqtisod + hudud", iqtisodiy rayon tushunchasini shakllantiradi. Shuningdek, fan-texnika taraqqiyoti, ekologiya va boshqa omillar ham rayon chegaralarini aniqlashda muhim rol o'ynaydi, chunki ular hududning uzoq muddatli rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yuqoridagi omil va shartlarga ko'ra, mamlakatning iqtisodiy makoni bir nechta rayonlarga bo'linadi. Hozirgi sharoitda bozor ta'siri katta ahamiyatga ega, chunki bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarish va iste'mol faoliyatini tashkil etishda juda muhim. Nemis olimi A. Lyosh ham iqtisodiy landshaftlarni (ya'ni rayonlarni) bozor makoniga qarab ajratgan edi. Unga ko'ra, iqtisodiy rayonning shakllanishi uchun ikki muhim shart mavjud: birinchidan, rayon hosil qiluvchi markaz, ikkinchidan esa ixtisoslashgan iqtisodiyot tarmog'i, ya'ni bu markazning iqtisodiy faoliyatining o'ziga xos tarmog'i. Ba'zi olimlar, jumladan, amerikalik geograf R. Xartshorn, iqtisodiy rayonlarning obyektiv mavjudligiga shubha bildiradilar va faqat rasmiy chegaralarni tan olishadi. Ular iqtisodiy rayonlarni faqat siyosiy yoki administrativ birliklar sifatida ko'rishadi. Biroq, bu fikrga qarshi chiqish mumkin: iqtisodiy rayonlar faqat rasmiy chegaralar bilan cheklanmaydi, balki har bir tarmoq va sohaga mos ravishda aniq ixtisoslashgan hududiy tarkib va tizimlarga ega. Shuning uchun "hammabop" iqtisodiy rayonlar mavjud emas, har bir tarmoqning o'ziga xos real hududiy tarkibi mavjud. Masalan, sanoat va qishloq xo'jaligi rayonlari, sotsial rayonlar, sanoat tugunlari, shahar aglomeratsiyalari kabi aniq sohalar asosida shakllangan rayonlar mavjud. Bu hududiy birliklar turli ijtimoiy, iqtisodiy va tabiiy omillar ta'sirida rivojlanadi, shuningdek, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va iqtisodiy aloqalar o'zaro bog'liq bo'ladi.

Iqtisodiy rayonlashuv tizimi mamlakatning iqtisodiy tuzilishini yaxshilash, ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirish va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy farqlarni kamaytirish uchun muhim

vositadir. Shuningdek, bu tizim davlatning hududiy siyosatiga xizmat qilib, mintaqaviy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Hududiy mehnat taqsimotiga o'xshash iqtisodiy rayonlar ham pog'onasimon bo'ladi. Mamlakat ichida bir nechta iqtisodiy rayonlarni birlashtiruvchi yirik iqtisodiy mintaqalar mavjud bo'lib, ular asosiy iqtisodiy rayonlar, ma'muriy-iqtisodiy rayonlar, viloyat ichidagi rayonlar va, nihoyat, mahalliy ma'muriy-iqtisodiy rayonlar (masalan, O'zbekistonning qishloq tumanlari)ni o'z ichiga oladi. Har bir iqtisodiy rayon o'zining xususiyatlariga ko'ra turli darajadagi bozorlar bilan mos keladi. Bu bozorlar mahsulotlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarini tashkil etadi, shuningdek, iqtisodiy aloqalar va mintaqaviy ixtisoslashuvni rag'batlantiradi.

Har bir iqtisodiy rayonning o'ziga xos rayon hosil qiluvchi omil va ishlab chiqarish tarmog'i mavjud. Ba'zi rayonlar shakllanishida tabiiy resurslar, xususan, qazilma boyliklar asosiy rol o'ynaydi, boshqalarida esa transportning geografik o'zni va malakali ishchi kuchi, yirik shaharlar, ayniqsa poytaxt shahar omili muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, iqtisodiy rayonlar o'rtasida geologik tuzilishning ta'siri ham mavjud. Y.G.Saushkin kabi olimlar bu aloqalarni o'rganib, geologik omillarning iqtisodiy rayonlashtirish jarayonidagi o'zni haqida fikr bildirganlar.

Kombinatlashuvga va hamkorlikka moyil bo'lgan tarmoqlarning rayon hosil qilish salohiyati kuchli bo'ladi. Masalan, neft va neftni qayta ishlash sanoati, qora va rangli metallurgiya, to'qimachilik, mashinasozlik va boshqa sanoat tarmoqlari o'zaro hamkorlikda rivojlanib, iqtisodiy rayonlar shakllanishiga olib keladi. Shuningdek, transport, rekreasiya, xalqaro turizm kabi xizmat ko'rsatish sohalari ham o'ziga xos iqtisodiy rayonlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular hududlararo aloqalar va iqtisodiy faoliyatning muvofiqlashishini ta'minlaydi.

Iqtisodiy rayon o'ziga xos hududiy majmua va tizimni tashkil etadi. Bu yerda "rayon", "kompleks" va "tizim" tushunchalari bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ular aynan bir mazmunga ega emas. Biroq, ularning o'zaro bog'liqligi va bir-birini to'ldirishi inkor etilmasdir. Har qanday iqtisodiy rayon, avvalo, kompleks, hududiy majmua prinsipiga asoslanadi. Bu komplekslik, o'z navbatida, turli daraja va ahamiyatga ega tarmoqlarning mavjudligi va ularning o'zaro muvofiqlashgan holda




mutanosib rivojlanishida o'z ifodasini topadi. Har bir rayonda ixtisoslashgan tarmoqlar, ya'ni bozor ahamiyatiga ega bo'lgan asosiy tarmoq yoki tarmoqlar, ularni to'ldiruvchi yordamchi, ikkinchi darajali tarmoqlar va mahalliy ehtiyojlarga qaratilgan tarmoqlar mavjud bo'ladi. Bu uchta bo'g'inning har biri o'z o'rniga ega bo'lib, ularning birining shakllanmasligi iqtisodiy rayonning to'la qonli va samarali faoliyat yuritishi uchun jiddiy to'siq bo'ladi. Agar bu tizimdagi bo'g'inlar o'zaro uyg'un va izchil rivojlanmasa, iqtisodiy rayonning rivoji to'liq bo'lmasligi mumkin.



8 – rasm. Hududiy majmualar

Har bir yirik iqtisodiy rayon bazaviy tarmoqlarga ega bo'lishlari kerak. Ularga, masalan, elektroenergetika, qurilish industriyasi kabilar kiradi. Ayni vaqtda bu tarmoqlar yuqoridagi 3 guruhdan iborat bo'g'inlarning biriga ham kirishi mumkin. Demak, ana shu mazmunda iqtisodiy rayonni hududiy ishlab chiqarish majmuasi shaklida talqin qilsa bo'ladi. Ammo real hududiy ishlab chiqarish majmualari bilan rayon ishlab chiqarish majmualari bir xil emas; birinchisi, haqiqiy borliq bo'lsa, ikkinchisi ko'p jihatdan ma'muriy-boshqaruv ma'nosidagi majmuadir. Jumladan, Angren-Olmaliq yoki Qarshi hududiy ishlab chiqarish majmualari bilan Toshkent viloyati yoki Qashqadaryo hududiy majmualari bir-biridan farq qiladi. Bundan tashqari, iqtisodiy rayonda bir emas, bir necha hududiy ishlab chiqarish majmualari bo'lishi va, ayni vaqtda, majmua hosil qiluvchi tarmoqlar ham mavjud bo'ladi. Hududiy ishlab chiqarish majmualari iqtisodiy rayonlarning o'zagini, asosini tashkil qiladi, ammo rayonning o'zi emas.

Dastlab, 1960-yillar o'rtalarida respublika hududi 5 Iqtisodiy rayonga ajratilgan edi (Toshkent, Farg'ona, Zarafshon, Quyi Amudaryo, Surxondaryo). 80-yillar oxiri - 90-yillar boshida respublika hududida ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish va joylashtirishda yuz bergan o'zgarishlarni hisobga olgan qolda yangi Iqtisodiy rayonlashtirish o'tkazildi va O'zbekiston hududi takomillashgan 7 iqtisodiy rayonga bo'lindi. Aynan shu masalada prinsipial kelishmovchiliklar, xatolik va noaniqliklar mavjud. Masalan, ota-o'g'il Musayevlarning VIII sinf uchun yozgan "O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" darsligida respublikamizda 8 ta iqtisodiy rayon (Toshkent, Mirzacho'l, Farg'ona, Buxoro-Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo va Quyi Amudaryo) ajratilgan. Ushbu kitobning muallifi esa 1998 yilda mamlakatimizda 6 ta asosiy iqtisodiy rayonlar borligini yozgan va shu miqyosda u o'zining ilmiy-pedagogik faoliyatini olib bormoqda.



9 – rasm. O'zbekistonning iqtisodiy geografik rayonlari xaritasi

Oltita iqtisodiy rayonlar quyidagilardan iborat: Toshkent, Mirzacho‘l, Farg‘ona, Zarafshon, Janubiy, Quyi Amudaryo. Bu yerda kelishmovchilik Zarafshon va Janubiy iqtisodiy rayonlarga tegishli. Jiddiy prinsipial xatolik shundaki, darslik mualliflari asosiy rayon bilan ma‘muriy - iqtisodiy rayonni chalkashtirgan, Samarqand yoki Qashqadaryo viloyatlarini Farg‘ona yoki Toshkent iqtisodiy rayonlari darajasida ko‘rilgan, tenglashtirilgan. U holda e‘tiroz bildirish mumkin: Namangan, Buxoro, Andijon, Farg‘ona, Jizzax va boshqa viloyatlar ham iqtisodiy rayon bo‘lishga haqli – ku! Biroq, *bu hududiy – iqtisodiy birliklar asosiy emas, balki rayonlashtirish tizimida turgan ikkinchi darajali ma‘muriy - iqtisodiy rayonlardir.* (A.S. Soliyev). Bunday rayonlarda boshqaruv organlari, hokimiyat bor, asosiy iqtisodiy rayonlar esa ma‘muriy – iqtisodiy birliklar uyushmasidan tarkib topgan haqiqiy (real) hududiy – iqtisodiy, geografik makon hisoblanadi. Iqtisodiy rayon hududiy majmua va hududiy tizimlardan unchalik uzoq emas. Chunki, iqtisodiy rayon mamlakat hududining ma‘lum bir xo‘jalik tarmog‘iga (yoki tarmoqlariga) ixtisoslashgan va bu jihatdan qo‘shni, tutash hududlardan farq qiluvchi, umumiy iqtisodiy landshaft shakliga ega bo‘lgan qismidir. U yaxlit iqtisodiy makon sifatida hududiy tizim ma‘nosini anglatadi.

Shunday qilib, rayonlashtirish ilmiy tadqiqot jarayoni, usul, rayon esa uning natijasi, obyektiv borliqdir. N.N.Baranskiy, V.M.Chetirkin kabi buyuk olimlar rayonlashtirishni umumgeografik metod sifatida e‘tirof etganlar, uning ko‘p sonli va turli hodisalarni bir tartibda keltirishda, real geografik voqyelikni aks ettirishda eng muhim vosita ekanligini e‘tirof etganlar.

Iqtisodiy rayon hududiy mujassamlashuv va hududiy ixtisoslashuvning o‘zaro uyg‘unlashgan, ishlab chiqarishni joylashtirish va hududiy tashkil qilish, ushbu jarayon iqtisodiy samaradorligini oshiruvchi muhim omil yoki shakldir. Zero, har qanday iqtisodiy rayon yoki mintaqa biror bir xo‘jalik tarmog‘ini boshqa joylarga qaraganda bu yerda ko‘proq to‘planganligi, mujassamlashganligi, rivojlanligi demakdir.



10 – rasm. Hududiy mehnat taqsimoti

E'tirof etish joizki, O'zbekiston hududidagi iqtisodiy rayonlar tizimi hozircha rasman tan olinmagan va bu rayonlarga oid hisob-kitoblar, statistik ma'lumotlar to'planmaydi. Biroq, ular mavjud bo'lib, har bir iqtisodiy rayonning shakllanishi hududiy mehnat taqsimotining natijasi hisoblanadi. Hududiy mehnat taqsimoti esa har qanday mamlakatda muhim ahamiyat o'ynaydi va iqtisodiy rivojlanishni tartibga solishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Aynan shu taqsimot orqali mamlakatdagi ishlab chiqarish tarmoqlari, xizmat ko'rsatish sohalari va ijtimoiy ehtiyojlar bir-biri bilan muvofiqlashadi, bu esa ularning o'zaro aloqalarini va hududiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Iqtisodiy rayonlar, o'z navbatida, iqtisodiy faoliyatni yaxshilash, resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish quvvatlarini joylashtirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ularning mavjudligi va o'zaro bog'liqligi mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham asosiy omil bo'ladi. Shunday qilib, iqtisodiy rayonlar tizimi mamlakatning umumiy iqtisodiy rivojlanishiga va hududiy taqsimotining samarali amalga oshirilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Savollar:

1. Iqtisodiy rayonlashtirish nima va uning iqtisodiy geografiyadagi o'rni qanday?
2. Iqtisodiy rayonlashtirishning asosiy maqsadlari va vazifalari nimalardan iborat?
3. Iqtisodiy-geografik rayonlashtirishning asosiy omillari nimalardan iborat?

4. O'zbekistonning iqtisodiy-geografik rayonlari qanday shakllangan?
5. O'zbekistonning iqtisodiy rayonlari qanday ajratiladi?

Topshiriqlar:

1. O'zbekistonning iqtisodiy rayonlarini tahlil qilib, har bir rayonning iqtisodiy va tabiiy sharoitlarini o'rganing. Ularning asosiy ixtisoslashgan sohalari, sanoat tarmoqlari va resurslardan foydalanish xususiyatlarini aniqlang.
2. O'zbekistonning iqtisodiy rayonlari o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilib, ularning o'zaro ta'sirini tushuntirib bering. Hududlararo iqtisodiy hamkorlikni qanday rivojlantirish mumkinligini o'ylab ko'ring.
3. Iqtisodiy rayonlashtirish jarayonida ekologik omillarni qanday hisobga olish kerak? Ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini tushuntirib, misollar keltiring.

GLOSSARIY

Agroiqlimiy resurslar - dehqonchilik yoki chorvachilikda muayyan ekin yoki hayvon turidan mahsulot olish uchun eng qulay iqlim va tabiiy omillar yig'indisi.

Aholi - Yer yuzida yoki uning muayyan hududi, qit'a, mamlakat, ma'muriy birlik yoki shahar, qishlog'ida istiqomat qiluvchi insonlar majmui.

Aholining yosh tarkibi - aholi o'rtasidagi turli yosh guruhlarini birlashtiruvchi tizim.

Aholining jins tarkibi - aholi o'rtasida jinslarning miqdoriy tafovutini ko'rsatuvchi tushuncha.

Aholi joylashuvi - aholining turli tabiiy geografik sharoitga mos ravishda joylashuvi.

Aholi zichligi – muayyan hududda doimiy istiqomat qiluvchi aholining ushbu hududning har 1 km² ga to'g'ri keluvchi miqdori.

Aholi punktlari – muayyan hudud aholisining doimiy turar joylaridan tashshkil topgan yashash hududi.

Aholi ro'yxatlari – hukumat tomonidan aholi haqida to'liq ma'lumot olish maqsadida davriy o'tkazilib turadigan ijtimoiy-siyosiy tadbir.

Geografik determinizm (lot. determino – aniqlayman) - jamiyat rivojlanishi qonuniyatlari va uning xo'jalik faoliyatini tabiiy sharoit xususiyatlari hamda joyning geografik o'rni bilan asoslab beruvchi konsepsiya.

Geografik yondashuv - tabiiy qonuniyatlarni bilish maqsadida hodisalarning fazoviy munosabatlarini o'rganuvchi ilmiy yo'nalish.

Geokriminogen vaziyat - jinoyatchilikning hududiy tarkibi, darajasi, hududlarga xos jinoyatchilik turlari, jinoyatchilik o'choqlarining o'zaro hududiy joylashuvi va omillarning ta'siri natijasida vujudga kelgan vaziyatidir.

Geokriminologiya - sotsial geografiya tarkibiy qismi sifatida, jinoyatchilikning hududiy jihatlari, unga ta'sir qiluvchi omillar hamda geokriminogen vaziyatni o'rganadi.

Demogeografiya – demografiya va aholi geografiyasi fanlarining aloqadorligi natijasida hosil bo'lgan tadqiqot sohasi.

Demografik vaziyat - muayyan hududdagi aholi tabiiy o'sishini ifodalovchi holat.

Demografik portlash - aholi tabiiy o'sishining juda yuqori ko'rsatkichga ega bo'lishi. XX asr ikkinchi yarmida rivojlanayotgan mamlakatlarda yuz bergan demografik vaziyat.

Demografik bashorat - ayni vaqtdagi tabiiy o'sish ko'rsatkichlariga asoslangan holda kelajakdagi demografik vaziyatni ilmiy bashorat qilish.

Demografik siyosat – hukumat tomonidan aholi tabiiy o'sishini yuqori yoki past darajaga keltirish uchun qabul qilinadigan chora-tadbirlar.

Dehqonchilik - madaniylashtirilgan o'simliklar yetishtirish sohasi.

Din (konfessional) geografiyasi - turli dinlar va e'tiqodlar, ularning tarkibiy qismlarining (mazhablar, diniy harakatlar, dindorlar, kultlar, diniy ta'lim muassasalari, ziyorat obyektlari va h.k) hududiy joylashuvini va qonuniyatlarini o'rganuvchi sotsial geografiya bo'limi.

Envayronmentalizm – jamiyat taraqqiyotining geografik tabiiy sharoitga bog'liqligini ta'kidlovchi ta'limot.

Yengil sanoat - asosan qishloq xo'jaligi va kimyo sanoati xomashyolarini qayta ishlash orqali mahsulot olishga yo'naltirilgan soha.

Yoqilg'i-energetika balansi - yoqilg'i foydali qazilmalarini qazib olish va qayta ishlash jarayoni va ulardan olinadigan energiya sarfi o'rtasidagi farq.

Yoqilg'i-energetika majmui - xalq xo'jaligida yoqilg'i foydali qazilmalarini undirish, energiya resurslarini qayta ishlash, energiya olish va iste'molga yetkazishning kompleks shakli.

Yoqilg'i foydali qazilmalari - yer ostidan qazib olinadigan yonuvchan jinslar turkumi.

Jinoyatchilik geografiyasi - sotsial geografiyaning muhim bir qismi sifatida turli mamlakat yoki mintaqalarda sodir etilayotgan jinoyatlarga ta'sir etuvchi shart- sharoit va omillarni, hamda geokriminogen vaziyatni o'rganadi.

Ishlab chiqarish - kishilar tomonidan tabiiy resurslarni o'zlashtirish, qayta ishlash va mahsulot yaratish jarayoni.

Ishlab chiqarish tarmoqlari - kishilarning moddiy ne'matlarni o'zlashtirish va ishlab chiqarishida alohida ixtisoslashish yo'nalishlari.

Ishlab chiqarish munosabatlari - jamiyatda moddiy ne'matlar yaratish va iste'mol qilishdagi aholi qatlamlari o'rtasida taqsimotdan kelib chiqadigan munosabatlar.

Ishlab chiqarish vositalari - moddiy ne'matlar yaratish jarayoniga jalb etiladigan narsa va hodisalar.

Ishlab chiqarish kuchlari - moddiy ne'matlar yaratishda bevosita ishtirok etuvchi kishilar guruhlar (mehnat resurslari).

Madaniy geografiya - Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning bir qismi bo'lib, madaniy farqlarning hududiy jihatlarini o'rganuvchi yo'nalish hisoblanadi. Shuningdek, u, eng avvalo, kishilarning hayot tarzi, kashfiyotlari, hudud va ilohiy kuchlarga munosabatlarini o'rganish sifatida tushuniladi.

Mashinasozlik - xalq xo'jaligida turli sohalar uchun mexanik va avtomatik ravishda ish bajaradigan uskuna va moslamalar ishlab chiqarish sohasi.

Metallurgiya - metall rudalarini qazib olish, qayta ishlash hamda tayyor mahsulot yaratish sohasi.

Moddiy ne'matlar - inson tomonidan iste'mol qilinadigan tabiiy mavjud hamda inson tomonidan tabiiy resurslar asosida yaratiladigan narsa va buyumlar.

Nozoekologiya (kasalliklar ekologiyasi) - aholi orasida uchraydigan kasalliklar va ularning tabiiy o'choqlari, ularning kelib chiqish sabab va tarqalish qonuniyatlarini o'rganadi.

Nozogeografik majmualar - ma'lum tabiiy geografik va ijtimoiy-iqtisodiy, sotsial makonda, ularning ta'siri ostida vujudga keladigan turli xil kasalliklarning hududiy uyg'unligi va birligi.

Nozogeografiya (yoki kasalliklar geografiyasi) - tibbiy geografiyaning kasalliklarning geografik tarqalishini yoki odamning boshqa patologik sharoitlarini o'rganishga qaratilgan bo'limi.

Oziq-ovqat sanoati - kishilarning oziq – ovqatga bo'lgan barcha ehtiyojlari uchun sanoat darajasida mahsulot ishlab chiqaruvchi soha.

Oilaning vazifalari – erkak va ayolga nikoh ittifoqi yuklaydigan vazifalar.

Reemigratsiya – mamlakatdan ko'chib ketgan kishilarning qayta o'z joylariga ko'chib kelishi.

Rekreatsion geografiya – aholining dam olish, sog'lig'ini tiklash imkonini beruvchi hududlarni geografik o'rganish sohasi.

Sanoat - tabiiy resurslar, foydali qazilmalar, yaratilgan xomashyo resurslari va iste'mol chiqindilarini qayta ishlash orqali tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish tarmoqlari.

Sanoat chiqindilari - ishlab chiqarish jarayoni natijasida olingan

yoki chiqarilgan keraksiz materiallar.

Sotsial geografiya - iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanlari tizimiga kiruvchi aholi bilan bog'liq barcha sotsial hodisa va jarayonlarning hududiy jihatlarini o'rganuvchi fan.

Sotsium (lot. socium - umumiy, birgalikda) - kishilar hayot faoliyati shart-sharoitlarining umumiyligini tavsiflovchi ijtimoiy birlik.

Suv transporti - daryo va dengizlarda harakatlanuchi transport vositalarining yuk va yolovchi tashish sohasi.

Tabiiy resurslar - tabiatda mavjud inson ishlab chiqarishi va iste'moliga yaroqli narsa va hodisalar.

Tikuvchilik - kishilar va boshqa maqsadlarda tayyor matolardan kiyim va turli buyumlar tayyorlash sohasi.

Tog'-kimyo sanoati - bu tarmoq kimyo sanoati uchun xomashyo hisoblanuvchi apatit, fosforit, oltingugurt, osh tuzi, kaliy va glauber tuzlarini qazib olishni tashkil qiladi.

Transport (lot. transporto — tashiyman) - ijtimoiy moddiy ishlab chiqarish tarmog'i. Yuklarni va yo'lovchilarni bir joydan ikkinchi joyga eltishni, mamlakat viloyat va tumanlari, korxonalari, xalq xo'jalik tarmoqlari o'rtasida, shuningdek, mamlakat ichida ayirboshlash va aloqani ta'minlaydi.

To'qimachilik - kiyim va boshqa maqsadlarda foydalaniladigan matolarni tabiiy hamda suniy tolalardan to'qishga yo'naltirilgan tarmoq sohasi.

Turizm geografiyasi - iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning bir bo'lagi bo'lib, u turli mamlakatlardagi sayyohlikning shakllanishi, rivojlanish va hududiy tashkil etish xususiyatlari hamda qonuniyatlarini o'rganadi.

Turmush tarzi - kompleks ijtimoiy kategoriya bo'lib, aholining mehnat va xo'jalik faoliyati, kundalik turmushidagi xulq-atvori, dam olish usullari, madaniy urf-odat va an'analarning tarixan shakllangan hamda o'zgarib boradigan odatiy holatidir.

Urbanizatsiya - shaharlarning o'sishi va rivojlanishi, shahar aholisi mavqesining mamlakat, hudud, jahon miqyosida o'sishi.

Urbanizatsiya darajasi – aholi nisbatida shahar aholisining salmog'i.

Xalqaro turizm - bu bir davlatdan boshqa davlatga uyushtiriladigan sayohatdir. U viza, meditsina tekshiruvi, valyuta almashtirish va boshqa ko'pgina tadbirlarni o'z ichiga oladi. Xalqaro

turizm ma'lum maqsadda uyushtirilgan marshrut yo'nalishi asosida guruh yoki yakka tartibda kechishi mumkin.

Xulq-atvor geografiyasi - insonning ruhiy xususiyatlari, xarakteri va shu kabi holatlarga atrof-muhitning ta'siri hamda uning hududiy jihatlarini o'rganadigan sotsial geografiyaning bir qismi hisoblanadi.

Havo transporti - yo'lovchilar, pochta va yuklarni havo yo'llari orqali tashishni amalga oshiradigan transport turi.

Chorvachilik - xonakilashtirilgan hayvonlardan mahsulot olish maqsadida boqish, ko'paytirish va mahsulot hamda sanoat xomashyosi olish sohasi.

Emigratsiya – kishilarning doimiy yashash hududidan ko'chib ketishi. Turli mamlakatlarda bu tushuncha nisbiy bo'lib, ko'chib keluvchilar ham emigrantlar deb ataladi.

Energetika - suv oqimi, bug' va issiqlik bosimi hamda atom reaksiyasi asosida energiya (elektr toki) hosil qilish yo'nalishi.

Etnografiya - xalqlarning turmush-tarzi va madaniyati, vujudga kelishi va shakllanishi, madaniyati va tarixiy aloqalarini o'rganuvchi fan.

Qishloq xo'jaligi - yer, suv, agroiqlimiy sharoitlar xususiyatlarga bog'liq ravishda o'simliklar va xonaki hayvonlarda mahsulotlar olish jarayoni.

Quruqlik transporti - quruqlikda harakatlanuvchi transport vositalari va yo'llarining muvofiq tizimi.

TESTLAR

A.Y.Skopinning fikriga ko‘ra, iqtisodiy geografiyaning obyekti nima?

Geografik qobiq

Antroposfera

Biosfera

Mamlakat va mintaqalar iqtisodiyoti

“Iqtisodiy geografiya – hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning shakllanishi, faoliyati va rivojlanish jarayonlari hamda ushbu tizimlarni boshqarish haqidagi fandir”, deb kim ta’rif bergan?

A.Veber

N.Baranskiy

N.Kolosovskiy

Y.Saushkin

Geografiyaning asosiy tamoyillarini belgilang?

Hududiylik

Komplekslilik

Tarixiylik

Barcha javoblar to‘g‘ri

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining ichki tuzilishi nechta asosiy qismdan (blokdan) tashkil topgan?

Ikkita

Uchta

To‘rtta

Beshta

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani nimani o‘rganadi?

Hududiy ishlab chiqarish majmualarini

Mamlakat va rayonlarda ishlab chiqarish kuchlarini joylanish va rivojlanish xususiyatlarini hamda inson hayot faoliyati va yashash tarzining hududiy jihatlarini

Mamlakat va rayonlar xo‘jalagini hududiy tashkil etilishini

Iqtisodiy rayonlar shakllanishini

Shahar atrofida qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining joylashuv tizimi yoki hududiy majmuasi kim tomonidan yaratildi?

V.Leontev

I.Tyunen

U.Ayzard

A.Veber

Quyidagi olimlardan qaysi biri “Sanoat shtandorti to‘g‘risida” nomli asarni muallifi?

I.G. Tyunen

A. Lyosh

V. Kristaller

A. Veber

Ishlab – chiqarishni yirik korxonalarda to‘planishi ishlab chiqarishning deyiladi?

Ixtisoslashuvi

Kooperatsiyalashuvi

Mujassamlashuvi

Kombinatlashuvi

Iqtisodiy geografiyaning asosiy tushunchalari orasida qaysi biri ortiqcha?

Hududiy mehnat taqsimoti

Iqtisodiy geografik o‘rin

Iqtisodiy rayonlashtirish

Mujassamlashuv

Hududiy mehnat taqsimoti doimiy «yo‘ldoshi» nima?

kooperatsiya

ixtisoslashuv

mujassamlashuv

kombinatsiya

Ma’lum o‘xshashlikka eng bo‘lgan hududning bir qismiga deyiladi?

iqtisodiy mintaq

rayon

zona

mintaqa

Hududiy ishlab chiqarish majmualari tushunchasini fanga kim kiritdi?

N.N.Kolosovskiy

N.N.Baranskiy

I.G.Aleksandrov

M.K.Bandman

Qaysi tushuncha iqtisodiy geografiyani «kaliti» hisoblanadi?

HICHM

Kooperatsiya

Iqtisodiy rayonlashtirish

IGO‘

“Iqtisodiy geografiya” tushunchasini fanga kim kiritdi?

A.Gumbold

M.V.Lomonosov

G.Saushkin

N.N.Baranskiy

Quyidagilardan qaysi biri ishlab chiqarishini ijtimoiy tashkil etish shakli emas?

Iqtisodiy rayonlashtirish

Mujassamlashuv

Kooperatsiya, ixtisoslashuv

Kombinatsiya

Kooperatsiya shakli qaysi sanoat tarmog‘ida aniq namoyon bo‘ladi?

Metallurgiya

Energetika

Yoqilgi

Mashinasozlik

Quyidagi tushunchalardan qaysi biri V.Kristaller nomi bilan bog'liq?

Markaziy o'rinlar, iyerarxiya, shaharlar klassifikatsiyasi
Sanoat shtandorti
Aglomeratsiya samaradorligi
Tyunen halqalari

“Bozor muhiti yoki makoni”, “iqtisodiy landshaft” tushunchalarini kim fanga kiritdi?

I.Tyunen
A.Veber
V.Kristaller
A.Lyosh

A.Veber “Sanoat shtandorti” ni belgilovchi qanday omillarni ajratdi?

Transport, ishchi kuchi, aglomeratsiya
Masofa, tannarx, yer rentasi, qiymati
Transport, ishchi kuchi, aglomeratsiya
Transport, ishchi kuchi, aglomeratsiya, resurs, xomashyo

A.Smit va D.Rikardlar tomonidan yaratilgan g'oyani ajrating

Energiya ishlab chiqarish sikllari
Geografik konveyr
Qiyosiy imtiyoz
Sanoat standarti

Aholi joylashuvi va aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini hududiy tashkil etishga doir g'oyalar muallifini ajrating.

I.Tyunen
A.Veber
V.Kristaller
N.N.Baranskiy

Sanoat markazi deb nimaga aytiladi?

Bir yoki bir necha sanoat tarmoqlari to'plangan shahar yoki shaharcha
Bir-biri bilan o'zaro bog'langan ishlab chiqarish korxonalari
to'plangan hudud.

Bir-biri bilan o‘zaro bog‘lanmagan ishlab chiqarish korxonalari to‘plangan hudud.

Bir yoki bir necha kichik sanoat tarmoqlari to‘plangan shaharcha

Sanoat tarmoqlari qanday mezunga ko‘ra guruhlanadi?

Xomashyo birligi

Iste‘mol birligi

Texnologik jarayon

Xomashyo birligi, Iste‘mol birligi, Texnologik jarayon

Hududiy mehnat taqsimoti tushunchasini fanga kim kiritgan?

I.M. Mayyergoyz

Y.G. Saushkin

N.N. Baranskiy

N.N.Kolosovskiy

Sanoatni rivojlantirish uchun muhim bo‘lgan omilni belgilang?

Xomashyo

Yoqilg‘i – energetika

Suv

Xomashyo, yoqilg‘i – energetika, suv, ishchi kuchi

Transportning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

yuk tashish

yo‘lovchi tashish

yo‘lovchi va yuk tashish

mahsulot tashish

“Tyunen xalqalari” ni ikkinchisini aniqlang?

o‘rmonxo‘jaligi (o‘sha davrda o‘tin uchun)

kartoshka, arpa yetishtirish va urug‘chilik

yuqori unumdor g‘allachilik va sut-go‘sht chorvachiligi

bog‘dorchilik, sabzavotchilik va qisman sut chorvachiligi

Mehnat kooperatsiyasining qanday turlari bor?

oddiy va murakkab

umumlashgan va konkretlashgan

murakkab va xalqaro

ixtisoslashgan va ixtisoslashmagan

Iqtisodiy geografiyada statistik va tarmoqlar yo‘nalishining asoschisi kim hisoblanadi?

A.Veber

N.Baranskiy

N.Kolosovskiy

Y.Saushkin

Iqtisodiy geografiyada rayonlar yo‘nalishiga asos solgan olimni ko‘rsating?

N.N.Kolosovskiy

N.N.Baranskiy

Y.G.Saushkin

A.I.Alekseyev

Tabiiy omillar tushunchasi o‘z tarkibiga nimalarni oladi?

tabiiy shart-sharoitlarni

landshaftlarning barqarorligini

ekologik holatni

Barcha javob to‘g‘ri

Tugaydigan, tiklanmaydigan resurslarni ajrating?

suv, xavo, tuproq

yer osti qazilmalari

o‘simlik va hayvonlar

tuproq, suv, o‘simliklar

Antik davr geografiyasining asosiy xususiyatlari nimadan iborat?

Geografiya mustaqil fan sifatida e’tirof etildi

Geografik fanlar tizimi vujudga keldi

Buyuk geografik kashfiyotlar sodir bo‘ldi

Dastlabki geografik bilimlar shakllana bordi

1497-98 yillarda Afrikani janubdan aylanib o‘tib Hindistonga borgan sayyohni aniqlang?

Vasko da Gama

V.Vavilov

D.Livingston

A.Nikitin

“Quruqlik Magellani” nisbati kimga tegishli?

Aleksandr Gumbold

Mikluxo-Maklay

Afanasiy Nikitin

Vasko da Gama

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo ilm-faniga hissa qo‘shgan olmlar qatorini aniqlang?

Beruniy, Fitrat, Cho‘lpon, Behbudiy, Xorazmiy, Farobiy

Beruniy, Fitrat, Ibn Sino, Farg‘oniy, Xorazmiy, Farobiy

Beruniy, Zamaxshariy, Ibn Sino, Farg‘oniy, Xorazmiy, Farobiy

Beruniy, Fitrat, Usmon Nosir, Behbudiy, Xorazmiy, Farobiy

Al-Xorazmiyning geografiya faniga oid asari qanday nomlangan?

“Kitob al-suratil ard”

“Sayohatnoma”

“Jo‘g‘rofiya”

“Xudud ul-olam”

Sanoat inqilobi dastlab qaysi mintaqada yuz berdi?

AQSH da

Osiyoda

Yevropada

Afrikada

“Demografik siyosat” nima?

Aholi tug‘ilishini cheklashga qaratilgan tadbirlar

Aholi migratsiyasiga qaratilgan siyosat

Aholi ko‘payishiga qaratilgan siyosat

Aholi tabiiy harakati ko‘rsatkichlarini tadqiq etishva nazorat qiluvchi tadbirlar

Dunyoda maydoni va aholisiga ko‘ra eng yirik mamlakatlar qaysi?

Rossiya va Xitoy
Rossiya va Hindiston
Kanada va Xitoy
Xitoy va Hindiston

“Demografik portlash” nima?

Aholining tez sur’atlarda ko‘chishi
Aholining kamayishi
Shaharlarning tez o‘sishi
Aholining tez sur’atlarda ko‘payishi

Aholi ko‘payishining birinchi tipii qaysi rivojlangan mamlakatlar uchun xos hisoblanadi?

Shimoliy va Janubiy Amerika davlatlari
Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlari
Avstraliya va Afrika davlatlari
Afrika va Osiyo davlatlari

Ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda kam bandligi qayerlarda ko‘proq kuzatilmoqda?

Lotin Amerikasi davlatlarida
Afrika mamlakatlarida
Osiyo davlatlarida
Barcha javoblar to‘g‘ri

Mehnatga layoqatli mehnat yoshidagi aholiga nima deyiladi?

Mehnat resurslari
Iqtisodiyotda band aholi
Iqtisodiy faol aholi
Mehnat vositasi

Aholi migratsiyasi natijasida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ladi?

Aholi zichligi, uning ko‘payish ko‘rsatkichlari o‘zgaradi.
Yosh-jins, milliy, ijtimoiy tarkibi o‘zgaradi.
Aholi ko‘chib ketgan va ko‘chib kelgan hududdagi demografik vaziyat o‘zgaradi.
Barchasi to‘g‘ri

Elektr stansiyalar nimaga asoslanib nomlanadi?

Ularda birlamchi energiyaning qaysi turi ishlatilishiga qarab
Quvvatiga qarab
Tezligiga qarab
Kuchlanishiga qarab

Tiklanadigan energetik resurslar deb nimaga aytiladi?

Tabiat tomonidan qayta tiklanadigan resurslar (suv, shamol quyosh)
Suvdan olinadigan resurslar
Neftdan olinadigan energiyaga
Ko'mirdan olinadigan energiyaga

Tiklanmaydigan energetik resurslarga nimalar kiradi?

Ko'mir, neft, tabiiy gaz
Suv, quyosh
Shamol, suv
Ko'mir, quyosh

Issiqlik elektr stansiyasida birlamchi energiyasi sifatida qanday energetik resurslar ishlatiladi?

Ko'mir, tabiiy gaz
Suv
Shamol
Quyosh

AEslarni qaerlarda qurish ruxsat etiladi?

Shahardan 180-200 km chetda, seysmik jihatdan tinch joyda.
Suv bo'yiga yaqin joyda
Ko'mir, neft qurilmalari yaqinida
Aholi yashaydigan hududga yaqin joyda

IESda energiyaning o'zgarish sxemasi (ketma-ketligi) qanday?

Yoqilgi, issiqlik, mexanik, elektr
Yoqilgi, mexanik, issiklik, elektr
Yoqilgi, issiqlik, elektr, mexanik
Issiqlik, mexanik, elektr

Atrof – muhitga, ekologiyaga eng katta zarar yetkazadigan elektr stansiyasi?

IES

GAES, GES

AES, KES

AES, GES

Ko‘p tarmoqli yirik sanoat markazlari qaysi shaharlarda joylashgan?

Qo‘qon, Olmaliq, Chirchiq

Qo‘qon, Angren, Chirchiq

Yangiyo‘l, Angren, Olmaliq

Navoiy, Jizzax, Namangan

Shahar atrof urbanizatsiyasi bu?

Konurbanizatsiya

Suburbanizatsiya

Rurbanizatsiya

Soxta urbanizatsiya

“Sanoat aglomeratsiyasi” deb nimaga aytiladi?

Shaharlarni o‘zaro uzokda joylashuvi

Shaharlar va qishloqlar

Shaharlarni tez o‘sishi

Sanoat korxonalarini bir joyda g‘uj xolda mujassamlashuvi

Sanoat tarmoqlari qanday mezonlar asosida ajratiladi ?

Mehnat resurslari, iste’molchi, transport

Xomashyo, texnologik jarayon va iste’mol birligi

Dexkonchilik va chorvachilik

Tog‘-kon ishchi kuchi

Yengil sanoatni joylashtirishdagi yetakchi omilni belgilang

Ishchi kuchi va iste’molchi

Xomashyo va energiya

Transport va tabiiy sharoit

Bozor iqtisodi

Hududiy mehnat taqsmoti ta'limoti dastlab kimlar tomonidan yaratilgan?

E.Xeksher, B.Olin

I.Aleksandrov, Y.Saushkin

N.Kolosovskiy, N.Baranskiy

A.Smit, D.Rikardo

Kombinatlashuv nimani anglatadi?

Ishlab chiqarishning to'planishini

Sanoat korxonasini

Turli korxonalar hamkorligini

Xomashyoni chuqur, texnologik va chiqindisiz qayta ishlashni

Kooperatsiya ko'proq qaysi tarmoq uchun xos?

metallurgiya

yengil va oziq-ovqat

kimyo, mashinasozlik

energetika

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, farmonlari va qarorlari.

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2017. - 48 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2018. – 64 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 392 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-sonli Farmoni. <http://lex.uz/docs/5841063>

II. Darslik, monografiya va o‘quv qo‘llanmalar

6. Абиркулов Қ. Иқтисодий география. –Т., 2004.
7. Абу Али Ибн Сино. Тиб қонунлари. //Тузувчилар: У. Каримов, Ҳ. Ҳикматуллаев// — Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – 304 б.
8. Алаев Э.Б. Социально-экономическая география. Понятийно-терминологический словарь. М.: Мысль, 1983. - 350с.
9. Асанов Г.Р. Социал-иқтисодий география: термин ва тушунчалар изохли луғати –Т., 1990.
10. Баранский Н. Н. Становление советской экономической географии. – М.: Мысль, 1980. 287 с
11. Баранский Н. Н. Научные принципы географии. Избр. труды. –М., 1980.
12. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари. Ўқув қўлланма. – Т.:«Тафаккур», 2011. -160 б.

13. Komilova N. Q., Ravshanov A., Muhammedova N. Tibbiyot geografiyasi va global salomatlik. O‘quv qo‘llanma. –T.:Mumtoz so‘z, 2019. - 188 b.
14. Komilova N.Q. Tibbiyot geografiyasining nazariy va amaliy masalalari.-Toshkent, “SHARQ”, 2016. 277 b.
15. Komilova N.K., Jumaxanov Sh.Z., Rajabov F.T. Inson geografiyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.:“Universitet”, 2018. - 248 b.
16. Komilova N.K., Maxmudov B.X. Sotsial geografiya. O‘quv qo‘llanma. T.: “Zebo Prints” 2023. – 164 b.
17. Максаковский В.П. Географическая картина мира. Кн. I: Общая характеристика мира. - Москва, Дрофа. 2008, 4-е изд., 495 стр.
18. Максаковский В.П. Географическая картина мира. Кн. II: Региональная характеристика мира. Москва, Дрофа, 2009. 480 стр.
19. Саушкин Ю.Г. Введение в экономическую географию. - М., 1970.
20. Soliyev A.S., Maxamadaliyev R. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. – T. 2005
21. Soliyev A.S. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot: tanlangan asarlar. Monografiya. –Toshkent: «Kamalak». 2013, 184 b.
22. Soliyev A.S. Ilmiy tadqiqot asoslari (Magistr va aspirantlar uchun qo‘llanma). – T.: Universitet, 2003. 51 b.
23. Soliyev A.S., Nazarov M., Qurbonov SH. O‘zbekiston hududlari ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishi.- T., 2010.
24. Soliyev A.S., Komilova N.Q., S.L.Yanchuk, Jumaxonov Sh., Rajabov F. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. Darslik. 2019

Internet manbalari

25. https://uz.wikipedia.org/wiki/Geografik_determinizm
26. <http://uzstat.uz>
27. <https://library.ziyonet.uz/>
28. <https://www.scopus.com/standard/marketing.uri#basic>
29. <https://www.researchgate.net/>

MUNDARIJA

Kirish	3
1-mavzu. Kirish. Iqtisodiy geografiya fanining hozirgi zamon mazmuni va vazifalari	4
2-mavzu. Iqtisodiy geografiyaning tarixiy shakllanishi	15
3-mavzu. Fanning tadqiqot usullari	23
4-mavzu. Iqtisodiy geografiyaning asosiy tushunchalari	34
5-mavzu. Ishlab chiqarishni tashkil etishning ijtimoiy shakllari.....	42
6-mavzu. Ishlab chiqarish tarmoqlari haqida tushuncha	53
7-mavzu. Ishlab chiqarishni joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar	60
8-mavzu. Hududiy mehnat taqsimoti.....	79
9-mavzu. Iqtisodiy rayonlashtirish.....	86
Glossariy.....	97
Testlar	102
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	113

Zaynutdinova D.K.

IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYA

O'quv qo'llanma

<i>Muharrir:</i>	<i>A. Qalandarov</i>
<i>Texnik muharrir:</i>	<i>G. Samiyeva</i>
<i>Musahhih:</i>	<i>Sh. Qahhorov</i>
<i>Sahifalovchi:</i>	<i>M. Bafoyeva</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 13.01.2025. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog'ozi. Bosma tobog'i 7,2. Adadi 100. Buyurtma №34

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45